

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Z. AKBAROVA

MEHNAT STATISTIKASI

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini
muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan oliy o'quv yurtlarining
iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari uchun o'quv qo'llanma
sifatida tavsiya etilgan**

TOSHKENT-2006

Akbarova Z. Mehnat statistikasi (O'quv qo'llanma). – T.: TDIU, 2006, - 138 b.

Ushbu qo'llanmada iqtisodiyotni yanada liberallashtirish borasida iqtisodiy islohotlar va ularning muhim natijalarida xalqaro «Mehnat statistikasi»ning eng muhim kategoriya va ko'rsatkichlari tutgan o'rni bayon etilgan, ular orasida mehnat bozori, ishchi kuchiga talab va taklifi, mehnat samaradorligi, ishchi kuchi qiymati, ishchi kuchi ko'chuvchanligi (mobilligi), xodimlarning turmush, mehnat va dam olish ko'rsatkichlari alohida ajratib ko'rsatilgan.

Qo'llanma mehnat va mehnat munosabati sohasiga ixtisoslashgan o'qituvchilarga hamda shu sohaga ixtisoslashayotgan talabalarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

TDIU “Iqtisodiyot va statistika” fakulteti
dekani, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
A.B.Xayitov

Taqrizchilar:

DJQA qoshidagi OBM kafedra mudiri, i.f.d.
O.K.ИМИНОВ
TDIU “Statistika” kafedراسи dotsenti, i.f.n.
M.Ya.Azimov

Ekspertlar:

TDIU “O'quv bo'limi boshlig'i” dotsent,
i.f.n. B.B.Usmonov

TDIU “Statistika” kafedراسи dotsenti, i.f.n.
A.H.Ayubjonov

Акбарова З. Статистика труда. (Учебное пособие). – Т.: ТДИУ, 2006, - стр.

В данном учебном пособии рассматриваются основные категории и показатели статистики труда, в условиях либерализации экономики. Среди них рассматриваются такие категории как рынок труда, спрос и предложение на рабочую силу, эффективность труда, издержки на рабочую силу, мобильность рабочей силы. Особое внимание уделяется изучению уровня жизни населения, условиям труда и отдыха.

Учебное пособие предназначено для специализирующихся в этой области преподавателей а также для студентов.

Ответственный редактор: Декан факультета «Экономика и статистика» ТГЭУ, к.э.н., доц. А.Б.Хаитов

Рецензенты: Зав. Кафедры В.Ш.Б. при А.Г.О.С., к.э.н. О.К.Иминов
Доцент кафедры «Статистика» ТГЭУ к.э.н. М.Я.Азимов

Эксперты: Начальник «Учебно-методического управления» ТГЭУ, к.э.н., доц. Б.Б.Усмонов

Доцент кафедры «Статистика» ТГЭУ к.э.н. А.Х.Аюбджанов

KIRISH

Iqtisodiyotga iqtisodiy faoliyat bozor tamoyillarining joriy etilishi ilgarilari mamlakatimiz uchun noma'lum bo'lgan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarning paydo bo'lishiga, ayniqsa, mehnat munosabatlari sohasida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi.

Sobiq Ittifoq xalq xo'jaligi majmuining tarqalib ketishi esa aholining iqtisodiyotdagi bandlik darajasiga salbiy ta'sir etdi. Ishsizlar va ish qidirib yurgan shaxslar paydo bo'ldi. Aholining real daromadlari pasaydi. Natijada mehnat nizolarining soni ortdi. Aholining norasmiy sektordagi bandligi keskin o'sdi. Bularning barchasi «Mehnat statistikasi» sohasida to'la holda ishonarli axborot olish uchun «Mehnat statistikasi»ni qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Bu hayotiy talab «Mehnat statistikasi» ko'rsatkichlarini hisob-kitob qilish metodologiyasini BMT Statistika komissiyasi va Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro standartlarga yaqinlashtirish yo'li bilan amalga oshirilmoqda. SHu tufayli xalqaro «Mehnat statistikasi»ning nazariy asoslarini tadqiq qilish respublikadagi mehnat va mehnat munosabatlarini ta'riflashda katta ahamiyat kasb etadi.

O'quv qo'llanmada davlat statistika amaliyotiga Xalqaro «Mehnat statistikasi»ni tadbiq qilish maqsadida Xalqaro mehnat tashkiloti va uning statistik faoliyati qisqacha bayon etilib, «Mehnat statistikasi» to'g'risidagi 160-sonli qonuniga ko'ra, Xalqaro mehnat tashkilotining Konvensiyani ratifikatsiya qiladigan barcha a'zo mamlakatlari mehnat haqidagi ma'lumotlarni muttasil to'plab va e'lon qilib borishlari kerak. Shu ma'lumotlar to'plamiga kiradigan – iqtisodiy faol aholi, bandlik, ishsizlik va oshkora noto'liq bandlilik kategoriyalari bo'yicha MHT shu kategoriyalarni yoritishga alohida o'rin ajratilgan bo'lib, shu bilan bir qatorda iqtisodiy faol aholining tarkibiy tuzilishi va taqsimlanishini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ish vaqti va uning o'rtacha davomiyligi, o'rtacha ish haqi va uning tarkibi va taqsimlanishi haqida ham ma'lumot to'plab, o'rganish lozim bo'lganligi tufayli bu savollar ham hal etishga harakat qilingan va ish kuchi qiymatini ham baholash va ta'riflash berilgan.

Iste'mol baho indeksi ahamiyati va hisoblash usuli yoritilib, bu indeks bilan bir qatorda aholi turmush darajasiga umumiy ta'rif berish maqsadida qo'llanish tavsiya etilgan Inson Taraqqiyoti Indeksi ham yoritilgan.

1985 yilda «Mehnat statistikasi» bo'yicha 170-sonli tavsiyalarga binoan, mehnat unumdorligi, uning darajasini o'rganish muammolariga to'xtalib, dinamikasini o'rganish usullari ham bayon etilgan.

I bob. «MEHNAT STATISTIKASI» FANINING PREDMETI VA USULI

1.1. «Mehnat statistikasi» fanining predmeti, uning boshqa fanlar bilan bog'liqligi va asosiy vazifalari

«Statistika» fani hozirgi kunda «Matematik statistika», «Statistikaning umumiy nazariyasi», «Ijtimoiy-iqtisodiy statistika», «Iqtisodiyotning turli tarmoqlari statistikasi», «Milliy hisobchilik va «Mehnat statistikasi» kabi fanlarni o'z ichiga olgan fanlar majmuidir. «Statistika» ijtimoiy-iqtisodiy ommaviy hodisa va jarayonlarning miqdoriy tomonini aniq makon va zamonda ularning sifati bilan uzviy aloqada o'rganadi.

«Mehnat statistikasi» XIX asr boshlaridan boshlab ortib borayotgan bandlik va ishsizlik muammolari tufayli statistikada o'ta muhim o'rinni egallay boshladi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda aholi sonining sezilarli o'sishi ish joylariga talab qilinayotgan mehnatga layoqatli aholining ko'payishiga olib keldi.

Muttasil o'sib borayotgan mehnat unumdorligi ishchi kuchiga ehtiyoj nisbatan (ba'zida mutlaq) kamayishini keltirib chiqaruvchi omil ham hisoblanadi. SHunga ko'ra mehnat potentsiali, uning tuzilmasi, dinamikasi va hozirgi bosqichda undan foydalanishni statistik o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. «Mehnat statistikasi»ning asosiy maqsadi mehnat potentsialini shakllantirish zaminlarini miqdoriy ta'riflash, uning tuzilmasini turli belgilar (jins va yosh; ma'muriy va malaka darajasi; hudud bo'yicha taqsimlanishi; ijtimoiy-kasbiy guruhlar bo'yicha va b.)ga ko'ra o'rganish; ishchi kuchi bozorini ta'riflash; ishga yaroqli aholining ijtimoiy, kasbiy va hududiy ko'chuvchanligi (mobilligi)ni o'rganish; ishchi kuchiga sarflar darajasi dinamikasini tahlil qilish hisoblanadi.

«Mehnat statistikasi»ning markaziy vazifalaridan biri – mehnat potentsialidan foydalanishni (bandlik va ishsizlik ko'rsatkichlari; ish vaqtdan foydalanish darajasi; mehnat potentsialidan etarlicha foydalanmaganlik oqibatida iqtisodiyotdagi yo'qotishlar) ta'riflash. U, shuningdek, «Mehnat statistikasi» ko'rsatkichlarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishini ifodalovchi eng muhim ko'rsatkichlar bilan aloqasi va o'zaro bog'liqligini ham aks ettirishi, bundan tashqari, ishchi kuchi turmush darajasini aniqlovchi ko'rsatkichlar – aholining mehnat, turmush va dam olish sharoitlari darajasi va dinamikasiga ham statistik ta'rif berishi kerak.

«Mehnat statistikasi» birinchi navbatda aholining tabiiy tiklanishi va uning migrasiyasi hodisa va jarayonlarini o'rganuvchi demografiya bilan bog'liq. SHunday qilib, u mehnat potentsialining shakllanish shart-sharoitlari, uning dinamikasi va undan iqtisodiyotda foydalanishni tadqiq qiladi. «Mehnat statistikasi» demografik statistika ma'lumotlaridan mehnat potentsialining barcha miqdoriy ko'rsatkichlarini hisoblash va tahlil qilish metodologiyasini ishlab chiqishda foydalanadi.

«Mehnat statistikasi» «Matematik statistika» va «Umumiy statistika nazariyasi» bilan ham uzviy bog'langan. Demografiya va iqtisodiyotda barcha

hodisa hamda jarayonlar ehtimollik xarakteriga (tug'ilish, kasallanish, shikastlanish, o'sish; iqtisodiyotning ko'pgina tarmoqlari faoliyati mavsumiy xarakterdaligi; siyosiy hodisalar va b.) ega bo'lganligi uchun, u «Mehnat statistikasi»da «Matematik statistika» va «Ehtimollik nazariyasi» usullaridan kengroq foydalanishni talab qiladi.

«**Statistika**»ning umumiy nazariyasi bilan o'zaro aloqaga kelsak, u iqtisodiy-statistik axborotni to'plash, ishlov berish va tahlil qilish metodologiyasini ishlab chiqadi. Bu, eng avvalo, olingan axborotni statistik kuzatish, nazorat qilish, ma'lumot to'plash va guruhlash nazariyasiga tegishlidir. Bundan tashqari, statistikaning umumiy nazariyasi statistik ma'lumotlar (dinamika qatorlari statistik ko'rsatkichlarini hisoblash; korrelyasion-regressiv tahlil, indeksli usul va b.) ni tahlil qilish usullarini tadqiq qiladi. «Mehnat statistikasi» bu usullardan foydalanib, mehnat munosabatlari sohasida sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlarga miqdoriy tavsif berish; mehnat bozori ishlashining muhim ko'rsatkichlarini bashorat (prognoz) qilish, amaliy faoliyat uchun xulosa va takliflarni shakllantirish imkoniyatiga ega.

«Mehnat statistikasi» xalq ho'jaligini bashorat qilish masalalari bilan ham bog'liq, chunki iqtisodiy faoliyatning har qanday iste'moli ishlab chiqarish jarayonining ishchi kuchi bilan ta'minlanganligini bashorat qilishdan boshlanadi. «Mehnat statistikasi»ni o'rganish ish sohasidagi amaliy faoliyat, elektron-hisoblash mashinalaridan foydalanish bilan uzviy bog'langan. Bu mehnat bozorida sodir bo'layotgan, amaliy dasturlarning standart va ixtisoslashgan paketlari yordamida mexanik ishlov berishni talab qiladigan ommaviy hodisa va jarayonlar to'g'risidagi iqtisodiy-statistik axborotning ko'pligidan kelib chiqadi.

«Mehnat statistikasi»ning nazariy asosini «Mehnat iqtisodiyoti» tashkil qiladi. «**Mehnat iqtisodiyoti**» mehnat munosabatlari sohasida sodir bo'ladigan hodisa va jarayonlarni o'rganadigan, ularning rivojlanish qonuniyatlarini ochib, mehnat sohasidagi muhim kategoriya va ko'rsatkichlariga ta'rif beradigan, shuningdek, ularni tahlil hamda bashorat qilishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqadigan fandir. «Mehnat bozori iqtisodiyoti» mehnat sohasidagi ommaviy hodisa va jarayonlarning metodologiyalarini sifat jihatidan o'rgansa, «Mehnat bozori» statistikasi shu sifat aniqligiga miqdoriy ta'rif berish metodologiyasini ishlab chiqadi.

SHunday qilib, mehnat va mehnat munosabatlari sohasida sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlar «Mehnat statistikasi»ning **predmeti** bo'lsa, mehnat bozori uning **tadqiqot ob'ekti** hisoblanadi.

SHunga ko'ra, hozirgi bosqichda «Mehnat statistikasi»ning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- aholini mamlakat mehnat potensialini shakllantirish bazasi sifatida statistik o'rganish;
- aholi iqtisodiy faolligi, bandlik va ishsizlik ko'rsatkichlarini statistik tahlil qilish;
- mehnat bozori va uning elementlariga ta'rif berish;

- mehnat bozorining asosiy tamoyillarini o'rganish;
- ishchi kuchi taklifi, unga talab va mehnat bozori kon'yunkturasini statistik o'rganish;
- aholining noto'liq bandligi va ish vaqtidan foydalanishning statistik tavsifi;
- iqtisodiyotning norasmiy sektoridagi bandlikni o'rganish;
- mehnat bozoridagi ishchi kuchi qiymati va uning dinamikasini statistik o'rganish;
- mehnat unumdorligi va uning dinamikasini o'rganish;
- ishchi kuchining mobilligi(xodim yoki ijtimoiy kasbiy maqomining o'zgarishi va aholi hamda ishchi kuchining hududiy joydan-joyga ko'chishi)ni statistik tahlil qilish;
- ishchi kuchining turmush, mehnat va dam olish shart-sharoitlarini iqtisodiy faoliyat natijasi sifatida tahlil qilish;
- mehnat statistikasi ko'rsatkichlarini qiyoslashni amalga oshirish.

1.2. «Mehnat statistikasi» da qo'llaniladigan usullar

«Mehnat statistikasi» o'z amaliy faoliyatida «Statistikaning umumiy nazariyasi» ishlab chiqqan usullardan foydalanadi. Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, mehnat munosabatlari sohasidagi barcha hodisa va jarayonlar dinamikada hamda o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqiladi.

«Mehnat statistikasi» zarur axborotni to'plashda oldindan ishlab chiqilgan dasturlarga ko'ra, belgilangan muddatda zarur axborotni olish imkonini beradigan statistik kuzatish usulidan foydalanadi. Bu axborotni olish uchun yalpi va noyalpi kuzatishning barcha turlaridan foydalaniladi. Kuzatish usulini tanlash ko'p sonli omillar: tadqiqot maqsadi; tadqiqot dasturi; moddiy, moliyaviy va mehnat resurslariga bog'liq.

Axborot olingandan so'ng uning nazorati amalga oshiriladi. Bunda «Mehnat statistikasi» nazoratning quyidagi turlaridan foydalanadi:

- **statistik**, bunda kuzatish ob'ektlari qamrovining to'laligi; barcha zarur grafa va qatorlar to'liq to'ldirilganligi; zarur rekvizitlar; manzil, sana, imzo, muhrlarning borligi tekshiriladi;
- **arifmetik**, u miqdoriy bog'langan ko'rsatkichlarga asoslanadi(masalan, tashkil etuvchi elementlar yig'indisi yakundan katta bo'la olmaydi);
- **mantiqiy**, u sifat bog'lanishiga asoslanadi (masalan, 5-6 yoshli bola oliy ma'lumotga ega bo'la olmaydi).

Olingan statistik axborotning sifati tekshirilgach, uni jamlash va guruhlash amalga oshiriladi.

Statistik ma'lumotlarni jamlash oldindan tuzilgan dastur bo'yicha guruhli va umumiy yakunlarni olishdir. **Guruhlash** o'rganilayotgan birliklar majmuini o'rganilayotgan belgilariga muvofiq, miqdoriy va sifatiy guruhlarga taqsimlashdan iborat. SHunday qilib, miqdoriy guruhlash miqdoriy ifoda (masalan,

iqtisodiyotda band bo'lganlar soni, ishsizlar soni, daromad hajmi va boshqalar bo'yicha guruhlash)ga ega bo'lgan belgilar (ko'rsatkichlar)ga asoslanadi, sifatiy guruhlash asosida esa miqdoriy ifodaga ega bo'lishi mumkin bo'lmagan ko'rsatkichlar (masalan, mehnatga layoqatli aholi sonining jinsi va yoshi hamda ijtimoiy-kasbiy guruhlari va h.k.) yotadi.

«Mehnat statistikasi» bo'yicha axborotni jamlash va guruhlash keyingi tahlil uchun boshlang'ich material xizmatini o'taydigan ko'rsatkichlarning ma'lum tizimiga ega bo'lish imkonini beradi. Bunda ham statistika umumiy nazariyasi ishlab chiqadigan usullardan foydalaniladi.

Sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlarning hajm va darajalarini ifodalaydigan **mutlaq ko'rsatkichlar** bilan birga quyidagilarga kiradigan **nisbiy kattaliklar** ham hisoblanadi:

- dinamaning nisbiy kattaligi hodisa vaqtidagi o'zgarish yo'nalishini ifodalaydi va bu o'zgarish tezligini o'lchaydi (masalan, o'sish va qo'shimcha o'sish sur'ati);

- tuzilmaning nisbiy kattaligi o'rganilayotgan ko'rsatkich umumiy hajmda har bir komponent(tarkibiy qismi)ning ulushi yoki salmog'ini ifodalaydi (masalan, iqtisodiy faol aholi sonida iqtisodiyotda band bo'lganlar sonining o'sishi);

- qiyoslashning nisbiy kattaligi turli ob'ektlarga tegishli bo'lgan bir va ayni o'sha davrdagi ikki yoki undan ortiq bir nomdagi kattaliklar nisbatini ko'rsatadi (masalan, ishsizlarning jahon mamlakatlari bo'yicha soni);

- muvofiqlashtirish (koordinasiya)ning nisbiy kattaliklari, bir va o'sha yig'indining turli elementlari nisbatini ifodalaydi (masalan, shu mamlakatda iqtisodiyotda band bo'lgan erkaklar va ayollar sonining nisbati);

- intensivlikning nisbiy kattaliklari, u berilgan hodisaning ma'lum muhitda tarqalish darajasini aks ettiradi (masalan, aholi zichligi ko'rsatkichi).

Mehnat sohasidagi hodisa va jarayonlarni ifodalashda o'rtacha kattaliklar hisob-kitobi juda muhim hisoblanadi. U o'rganilayotgan yig'indining (masalan, xodimlar ish haqining o'rtacha darajasi) barcha birliklar uchun xos bo'lgan, ko'rib chiqilayotgan umumiy belgining qiymatini aniqlash imkonini beradi.

Variasiya ko'rsatkichlari hisob-kitobi o'rganilayotgan belgining o'zgaruvchanlik darajasini aniqlaydi, ya'ni berilgan yig'indining berilgan belgi munosabatida o'zgaruvchanligini ifodalaydi. Variasiyalarni o'rganishda dispersiya va o'rtacha kvadratik tafovut muhim statistik tasnif hisoblanadi.

«Mehnat statistikasi» ko'rsatkichlarining boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan o'zaro aloqasi yaqinligi, asosan korrelyasion-regressiv tahlil o'tkazish yordamida o'rganiladi. Korrelyasiya bandlik ko'rsatkichlari va ishsizlik ko'rsatkichlarining boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar(yalpi ichki mahsulot, asosiy kapital, investisiyalar, tovar va xizmatlar eksporti , importi va boshqalar) bilan aloqasining yaqinligini miqdoriy baholash imkonini beradi. Regressiya ko'rsatkichlari natijasi ko'rsatkich faktorli ko'rsatkichga (masalan, mehnat unumdorligi 1% oshganda ish haqining o'sishi) bog'liqligining miqdoriy bahosiga ega bo'lish imkonini beradi.

«Mehnat statistikasi»da indeksli usuldan keng foydalaniladi. Birinchidan, u «Mehnat statistikasi» ko'rsatkichlari (mehnat unumdorligi, ish haqi, aholining nominal va haqiqiy daromadlari, iste'mol narxlari indekslari) dinamikasini o'rganish, ikkinchidan, indeksli faktorli, tahlil faktorli belgining natija ko'rsatkichiga (masalan, yalpi ichki mahsulotning band bo'lganlar va mehnat unumdorligi hisobiga o'sishi) miqdoriy ta'sirini aniqlash imkonini beradi.

«Mehnat statistikasi» mehnat va mehnat munosabatlari sohasida sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlar tendensiyalarini o'rganish maqsadida dinamik qatorlar tahlili usulidan foydalanadi. Bunday tahlil natijasida aniqlangan «Mehnat statistikasi» ko'rsatkichlarining o'sish dinamikasidagi tendensiyalar ularning interpolyasiyasi (tadqiq qilinayotgan dinamika qatorlari ichida noma'lum darajalarni topish) va trend ekstrapolyasiyasi (bashorat qilish) uchun boshlang'ich material xizmatini o'taydi.

«Mehnat statistikasi» o'rganilayotgan yig'indi birliklarni bir necha belgilari bo'yicha tasniflashni amalga oshirishda bu birliklarni (masalan, mamlakatlar yoki iqtisodiy mintaqalar) har bir birlik o'rtacha guruhlashga yaqin ko'rsatkichlarga ega bo'lgan (masalan, mintaqalarning bandlik darajasi, ish haqi va aholi daromadlari bo'yicha guruhlash), nisbatan bir xil guruhlarga birlashtirish imkonini beradigan klasterli tahlildan foydalanadi. Statistik axborotni to'plash, ishlov berish va tahlil qilish natijalari odatda statistik jadval va grafiklar (diagramma va statistik kartalar) tuzishning umumiy tamoyillarini ishlab chiqadi. Ulardan mehnat statistikasi ko'rsatkichlari tahlilining oraliq yoki pirovard yakunlarini bayon qilishda foydalanadi.

«Mehnat statistikasi»da bir yo'la tadqiqotlar o'rtasidagi davrda (aholini ro'yhatga olish o'rtasidagi davrda) oraliq ko'rsatkichlarga ega bo'lish imkonini beradigan balans usuli alohida o'rinni egallaydi. Bundan tashqari, u mehnat potensialining mavjudligi va undan foydalanish (jumladan, band aholi balansi va undan iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha foydalanish)ni ifodalaydi. Balans usuli mavjud mehnatga layoqatli aholi va undan foydalanish orasidagi bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi.

1.3. Xalqaro Mehnat Tashkiloti va uning statistik faoliyati

Xalqaro Mehnat Tashkiloti Xalqaro mehnat statistikasining qaror topishi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. U (XMT, International Labour Organization) 1919 yilda Millatlar ligasi huzurida mehnat tashkiloti sifatida tashkil etilgan. Xalqaro Mehnat Tashkiloti 1946 yildan boshlab, BMT ning ixtisoslashgan muassasasi hisoblanadi, dunyoning 171 davlati XMT a'zosi hisoblanadi. XMTda fransuz va ingliz tillarida ish yuritiladi, uning qarorgohi Jeneva shahridadir. XMTning vakolatxonalari yirik davlatlar poytaxtlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Ustaviga ko'ra, Xalqaro mehnat tashkilotining vazifalari quyidagilar hisoblanadi: ish vaqtini regeomentlash; ishsizlikka qarshi kurash; mehnatkashlarni kasb kasalliklari va ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan himoya qilish;

bolalar, o'smirlar va ayollar mehnatini muhofaza qilish; ish sharoiti muhitini yaxshilash; ijtimoiy sug'urta va ta'minot masalalarini tartibga solish; kasbiy-texnik ta'limni tashkil etish va h.k.

Xalqaro Mehnat Tashkilotining yuqori organi – Bosh konferensiya; ijro etuvchi organi – Ma'muriy kengash, u kotibiyat – Xalqaro Mehnat Byurosi (XMB) ishiga boshchilik qiladi. XMB doimiy ishlaydi va XMTning ishchi organi hisoblanadi. XMB axborot to'playdi va tarqatadi. Hukumatlarga ularning iltimoslariga ko'ra, yordam ko'rsatadi. Xalqaro mehnat tashkilotining texnik hamkorlik dasturlarini boshqaradi, maxsus ilmiy tadqiqotlar o'tkazadi. Bu tashkilot doirasida XMB Statistika byurosi tashkil etilgan. Ma'lum vaqt o'tgandan so'ng boshqa doimiy ishlovchi organ – Mehnat statistikasining Xalqaro konvensiyasi tashkil etildi.

XMBning Statistika byurosi Xalqaro Mehnat Tashkilotiga a'zo mamlakatlar mehnat to'g'risidagi statistik hisobotini to'plash, ishlov berish va e'lon qilishdek joriy faoliyatni amalga oshiradi. Mehnat statistikasining Xalqaro konferensiyalarida jahonning shu sohadagi etakchi mutaxassisleri nazariy masalalarni muhokama etadi va «Mehnati statistikasi»ning turli jihatlariga taalluqli rezolyusiyalarni qabul qiladi.

Xalqaro Mehnat Tashkilotining har yil o'tkazadigan konferensiyalarida bo'lajak ish rejalari va o'tgan yilgi rejaning bajarilash yakunlari muhokama qilinadi. XMBning Statistika byurosida tayyorlagan materiallar ko'rib chiqiladi, shuningdek, konvensiya va tavsiyalar qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida

“Davlat statistika to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligini qayta tashkil etish to'g'risida” 2002 yil 24 dekabrda PF-3483dagi Farmonini bajarish yuzasidan, shuningdek, respublika statistika organlari faoliyatini tashkiliy ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quydagilar:

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi nizomi tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi markaziy apparatining tashkiliy tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi markaziy apparat shtatdagi xodimlarining cheklangan soni 128 nafar (xizmat ko'rsatuvchi xodimlardan tashqari) etib belgilansin.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasida raisning bir nafar birinchi o'rinbosari, raisning uch nafar o'rinbosarlari hamda etti kishidan iborat Hay'at bo'lishiga ruxsat etilsin.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi raisi vazir maqomiga, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari

va o'rinbosarlari – tegishli ravishda vazirning birinchi o'rinbosariga va o'rinbosarlariga tenglashtirilsin.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi raisini shtatdagi xodimlarning belgilangan soni va statistika ishlarini amalga oshirishga ajratiladigan mablag'lar doirasida Qo'mita tuzilmasini o'zgartirishlar kiritish huquqi berilsin.

3. Quyidagilar:

Qoraqolpog'iston Respublikasi viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalarining tuman (shahar) statistika bo'limlarining namunaviy tizilmasi 3, 3a va 3b-ilovalarga muvofiq:

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida Nizom 4-ilogava muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining maxsus jamg'armasi to'g'risidagi Nizom 5-ilogava muvofiq tasdiqlansin.

4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi davlat statistikasini rivojlantirish, uning faoliyat ko'rsatishi va uni muvofiqlashtirish muammolari bo'yicha kollegial maslahat organi Statistika kengashi tashkil etilsin.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ikki hafta muddatda Statistika kengashi to'g'risidagi Nizomni belgilangan tartibda tasdiqlash uchun kiritсин.

5. Belgilab qo'yilсин:

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining raisi va Statistika kengashining shaxsiy tarkibi respublika Hukumatining taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Qoraqolpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi, tumanlar va shaharlardagi statistika organlari va unga bo'ysinuvchi tashkilotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining yagona tizimini tashkil etadi.

Qoraqolpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari boshliqlari tegishli ravishda Qoraqolpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi raisi tomonidan lavozimga tayinlanadi.

Tuman shahar statistika bo'limlari boshliqlari tuman va shahar hokimlarining taqdimnomasiga ko'ra hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi bilan kelishilgan holda Qoraqolpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari boshliqlari tomonidan lavozimga tayinlanadi.

6. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasiga davlat statistika hisoboti shakllarini va ularni to'ldirish bo'yicha yo'riqnomalarni tasdiqlash yuklamasi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan davlat statistika

to'g'risidagi amaldagi qonun hujjatlariga rioya qilinishi, statistika axboroti o'z vaqtida taqdim etilishi, uning to'liqligi va ishonchliligi ustidan qat'iy nazorat o'rnatsin. Qonun buzilishlari aniqlangan hollarda aybdor shaxslarni jismoniy javobgarlikkacha tortish to'g'risida takliflar kiritilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi bir oy muddatda mintaqaviy statistika boshqarmalari hamda tuman (shahar) statistika bo'limlari va boshqa o'ziga qarashli tashkilotlar to'g'risidagi Namunaviy nizomlarni belgilangan tartibda tasdiqlasin.

8. Belgilansinki, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tizimi faoliyati statistika ishlarini amalga oshirish uchun ajratiladigan davlat byudjeti mablag'lari, shuningdek xo'jalik hisobidagi faoliyati mablag'lari hisobiga mablag' bilan ta'minlansin.

9. Belgilab qo'yilsinki, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi: O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligining statistikaga oid vakolatlari bo'yicha.

O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi Statistika davlat departamentining vakolatlari majburiyatlari va mulkiy huquqlari bo'yicha huquqiy voris hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlarning vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, mahalliy hokimyat va boshqaruv organlari, mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, xujalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

10. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi xodimlarini attestasiyadan o'tkazish bo'yicha 6-ilovaga muvofiq tarkibda komissiya tashkil etilsin.

Attestasiya komissiyasi bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi markaziy apparati hodimlarini hamda Qoraqolpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari rahbarlarini attestasiyadan o'tkazsin.

Respublika viloyatlarida shunday attestasiya komissiyasi tashkil etilsin, ularning tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi rahbarlari, viloyat hokimlarining iqtisodiyot va kadrlar masalalari bo'yicha o'rinbosarlari, hududiy Statistika boshqarmalari boshliqlari kritilsin. Hududiy komissiyalar ikki oy muddatda viloyat statistika boshqarmalari, tuman va shahar statistika bo'limlari xodimlarini attestasiyadan o'tkazsin.

Attestasiya komissiyasi raisi (R.S.Azimov) o'tkazilgan attestasiya natijalari to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga axborot bersin.

11. Xalqaro statistika standartlariga muvofiq kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi huzurida Bozor munosabatlari o'quv konsalting markazi bazasida Kadrlarni qayta tayyorlash va statistika tadqiqotlari markazi tashkil etilsin.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi 2003-2005 yillarda davlat statistikasi organlari tizimi xodimlarining malakasini oshirish, ularni qayta tayyorlash dasturini ikki oy muddatda ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

Kadrlarni qayta tayyorlash va statistika tadqiqotlari markazi davlat statistikasi hududiy organlari, birinchi navbatda, tuman va shahar statistika bo'limlari rahbarlarining uch yilda kamida bir marta kasb darajasini va malakasi oshirilishini ta'minlasin.

12. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining buyurtmalariga muvofiq davlat statistika organlari uchun mutaxassislar tayyorlanishini ta'minlasin.

13. Davlat statistika hisobotini taqdim etish tartibini buzganligi, statistika ma'lumotlarini yashirganligi va buzib ko'rsatganligi uchun mansabdor shaxslarga solinadigan jarimalardan o'akllantiriladigan Maxsus jamg'armani yuritish O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasiga berilsin.

14. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi raisiga, Qoraqolpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari boshliqlariga davlat statistika organlari tizimi xodimlarining yuqori malakasi uchun ularga oylik lavozim maoshi miqdoridan ortiq bo'lmagan miqdorda ustama belgilash huquqi berilsin.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining maxsus jamg'armasi mablag'lari davlat statistika organlari tizimi xodimlarining yuqori malakasi uchun to'lanadigan ustamalar manbai etib belgilansin.

15. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har yili davlat byudjetini shakllantirishda statistika ishlarini amalga oshirish, davlat statistika organlarining ta'minoti va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun zarur mablag'larni nazarda tutsin.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasiga beshta engil avtomobil xarajatlari uchun limet ajratsin.

16. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi Toshkent shahar, Buyuk ipak yo'li ko'chasidagi 63-uyga;

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining Kadrlarni qayta tayyorlash va statistika tadqiqotlari markazi Toshkent shahar, Buyuk ipak yo'li ko'chasidagi 42a-uyga joylashtirilsin.

O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligining Statistika davlat deportamenti va unga qarashli tashkilotlar egallab turgan xizmat binolari O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va unga qarashli tashkilotlar ixtiyorida qoldirilsin.


17. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari bir nusxadan majburiy tartibda yuboriladigan tashkilotlar ro'yxatiga kiritilsin.

18. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat statistika qo'mitasi bilan birgalikda bir oy muddatda amaldagi qonun xujjatlariga mazkur qarorlardan kelib chiquvchi o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritсин.

19. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari R.S.Azimov zimmasiga yuklansin.


**Vazirlar Mahkamasining 2003
yil 8 yanvardagi 8-son
qaroriga 1-ilova**

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tizimining tuzilmasi




**Vazirlar Mahkamasining
2003 yil 8 yanvardagi
8-son qaroriga 2-ilova**

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi markaziy apparatining tashkiliy tuzilmasi



Xodimlarning umumiy soni (xizmat ko'rsatuvchi xodimlardan tashqari) – 128 kishi

Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 8 yanvardagi 8-son qaroriga 3-ilova
Qoraqolpog'iston Respublikasi va viloyatlar statistika boshqarmalarining Namunaviy tuzilmasi



Statistika boshqarmalari, shu jumladan tuman (shahar) statistika bo'limlari xodimlari soni (xizmat ko'rsatuvchi xodimlardan tashqari)

Toifadan tashqari:

1 toifa – 200 kishidan 210 kishigacha II toifa – 155 kishidan 162 kishigacha III toifa – 125 kishidan 131 kishigacha


Toshkent viloyati 753 kishi

Buxoro, Qashqadaryo, Samarqand, Farg'ona viloyatlari

Qoraqolpog'iston Respublikasi, Andijon, Navoiy, Namangan, Xorazm, Surxondaryo viloyatlari

Jizzax, sirdaryo viloyatlari

Toshkent shahar statistika boshqarmasining tuzilmasi



**Vazirlar mahkamasining 2003 yil 8 yanvardagi 8-sonli qaroriga O'zbekiston
Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida**

NIZOM

1. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, vakolotlarini va faoliyatining tashkiliy asoslarini belgilaydi.

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi "Davlat statistika to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligini qayta tashkil etish to'g'risida" 2002 yil 24 dekabrda PF-3183-son Farmoniga muvofiq tashkil etilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi statistika sohasida rivojlanishning milliy va mitaqaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda ilmiy metodologiyaga, xalqaro standartlar va qoidalarga asoslangan yaxlit ilg'or statistika axboroti tizimini yaratishga va uning faoliyat ko'rsatishiga yo'naltirilgan yagona siyosatni amalga oshiruvchi, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, fuqarolar va tashkilotlarning rasmiy statistika axborotlariga bo'lgan ehtiyojini qondiruvchi davlat hokimiyati ijro etuvchi organi hisoblanadi.

4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligining statistikaga oid vakolatlari bo'yicha:

O'zbekiston Respublikasi Maroiqtisodiyot va statistika vazirligi Statistika davlat departamentining vakolatlari, majburiyatlari va mulkiy huquqlari bo'yicha huquqiy voris hisoblanadi.

5. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi statistika ishlarining ishonchlilik, xolislik, beg'arazlik;
dolzarblik, qiyosiylik va barqarorlik;
qulaylik, ochiq-oydinlik va oshkoralik;
statistika axborotini yig'ish, qayta ishlash va umumlashtirish tartibiga har qanday aralashishni istisno etish tamoyillari asosida tashkil etilishini ta'minlaydi.

6. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlariga, Oliy Majlis qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, mazkur Nizomga hamda boshqa qonun xujjatlariga amal qiladi.

7. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi Qoraqolpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi, tumanlar shaharlardagi statistika organlari hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasiga qarashli tashkilotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining yagona tizimini tashkil etadi.

8. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining o'z vakolotlari doirasida qabul qilingan qarorlarining vazirliklar, idoralar, ijro etuvchi hokimiyat mahalliy organlari va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

Davlat statistika organlari faoliyatiga davlat organlari va joylardagi davlat hokimiyati organlarining aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

9. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi o'z faoliyatini respublika va mahalliy hokimiyat organlari, o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va tashkilotlari bilan o'zaro bog'liq ravishda amalga oshiradi.

10. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi mustaqil yuridik shaxs hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi yozilgan muhurga, mustaqil balansga, o'z hisob raqamlariga, shu jumladan, xorijiy valyutadagi hisob raqamlariga ega bo'ladi.

II. Asosiy vazifalari

11. Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

statistika sohasida yagona siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, statistikani tashkil etishning zamonaviy xalqaro statistika standartlariga javob beradigan samarali tizimini ta'minlash;

ilmiy asoslangan, bozor iqtisodiyoti asosiy tamoyillariga javob beradigan yagona statistika metodologiyasini hamda milliy hisob raqamlarini tuzishni ta'minlovchi va xalqaro statistika standartlariga muvofiq bo'lgan ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

jamiyatni iqtisodiy va ijtimoiy hayotida ro'y bergan jarayonlarni har tomonlama xarakterlovchi statistika va hisobot ko'rsatkichlarini tezkorligini, ishonchliligini, holisligini va izchilligini ta'minlash;

statistik axborotning qulayligini, aniqligini va oshkoraligini kengaytirish ishlarini amalga oshirish;

statistika ishlarini tashkil etishning statistika axborotini yig'ish qayta ishlash va umumlashtirish tartibiga har qanday aralashishni istisno qiluvchi tizimini yaratish;

ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi statistika axborotlarini yig'ish, qayta ishlash, to'plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va e'lon qilishni amalga oshirish;

SNS xalqaro metodologiyasiga muvofiq bo'lan milliy hisoblar tizimini ishlab chiqish, xalqaro statistika standartlari va qoidalarini hisobga olgan holda milliy hisoblar tizimini axborotlar bilan ta'minlash tizimini shakllantirish;

statistika ishlari davlat buyurtmasini tayyorlash va uning bajarilishini ta'minlash, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari ehtiyojlari, foydalanuvchilarning statistika axborotlariga talabini o'rganish asosida Davlat statistika ishlaridasturlarini ishlab chiqish va ularning bajarilishini tashkil etish;

yo'nalishlar bo'yicha statistika axborotlarining taqqoslanuvchanligini mamlakatlararo taqqoslanuvchanligini ta'minlovchi, o'zaro bog'liq bo'lgan iqtisodiy-statistika tasniflar tizimini ishlab chiqish, joriy etish va yuritish;

vazirliklar, idoralar va tashkilotlarning statistika sohasidagi yagona siyosatni amalga oshirish bo'yicha faoliyatining muvofiqlashtirishni ta'minlash;

respublikani, mintaqalarni va tarmoqlarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish dasturlarining, ijtimoiy-iqtisodiy masalalari bo'yicha Oliy Majlis qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlarining, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarining bajarilishining statistik kuzatuvlarini amalga oshirish;

davlat organlarini va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini, yuridik shaxslarni, davlat muassasalarini va xalqaro tashkilotlarni hamda jamoatchilikni statistika axboroti bilan belgilangan tartibda ta'minlash;

dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo'yicha metodik bazaning ishlab chiqilishini amalga oshirish, tematik yozishmalarni, senz tadqiqotlarini va monitoringini tashkil etish va amalga oshirish;

statistika organlarini zamonaviylashtirish hamda statistika axborotini tezkorlik bilan uzatishni va qayta ishlashni ta'minlovchi zamonaviy kompyuterlar hamda axborot-kommunikatsiya tizimlari va texnologiyalari bilan qata jihozlash, statistika bo'yicha yagona axborot tizimini yanada rivojlantirish, uning respublikadagi boshqa axborot tizimlari bilan o'zaro muvofiqligi va bog'liqligini ta'minlash;

statistika ishlarini tashkil etish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy-statistik klassifikatorlar tizimini hamda Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat reestrini yuritish;

statistika axborot resurslarining xavfsizligini ta'minlash va axborot hisoblash tizimini ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish;

barcha darajalardagi statistika organlari xodimlari malakasini izchil asosida oshirishni va ularni qayta tayyorlashni ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasining ustuvor yo'nalishlar bo'yicha davlat statistikasi sohasidagi xalqaro majburiyatlarini bajarish va xalqaro xamkorligini rivojlantirish;

Xo'jalik shartnomalari asosida korxonalar va tashkilotlarga dasturlar ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar hamda axborot-hisoblash xizmatlari ko'rsatishga doir statistik va boshqa ishlarni bajarish noshirlik faoliyatini amalga oshirish;

III. Asosiy funksiyalari

12. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

davlat statistika prinsiplariga rioya etilishini va xalqaro standartlar va qoidalarga muvofiq bo'lgan statistik metodologiya yagonaligini ta'minlaydi;

statistika kuzatuvlari va statistik hisob-kitoblar metodologiya yagonaligini takomillashtirish bo'yicha metodologik tadqiqotlar o'tkazish;

davlat statistikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini, ishlarning ilmiy-metodologik, tashkiliy-texnik, kadrlar va moliyaviy ta'minotini belgilaydi;

statistika ishlarining ko'p yillik va yillik Dasturlarini ishlab chiqadi va belgilangan tartibda respublika Hukumatiga tasdiqlash uchun kiritadi hamda ularning bajarilishini tashkil qiladi;

statistika kuzatuvlari dasturlarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi, ishlarning samarali amalga oshirilishini, statistika axborotlarini qayta ishlash, to'plash. Saqlash va tarqatishni kelishib oladi;

eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolar bo'yicha monitoringni tashkil qiladi va amalga oshiradi;

mamlakatda va mintaqalarda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni kompleks tahlil qilish uchun statistika ko'rsatkichlarini axborot tizimini shakllantiradi;

iqtisodiy islohotlarning borishini, institusional o'zgarishlarni bozor munosabatlari va bozor infratuzilmasining vujudga kelishini, narxlar dinamikasini va inflyasiya darajasini, davlat, korxonalar va iqtisodiyot tarmoqlarining moliyaviy ahvolini, mehnat bozorlari, investisiya va iste'mol tovarlari va xizmatlari kon'yunkturasini demografik jarayonlarni, mehnat resurslari dinamikasi va tarkibini mehnatga haq to'lash va uning shartlarini ijtimoiy guruhlar va daromaddorlik guruhlari bo'yicha aholi turmushini moddiy taminlanganligi darajasini, ijtimoiy soha huquqiy tartibot va ekologiya ahvolini, iqtisodiyot sektorlari va tarmoqlari faoliyat ko'rsatishi dinamikasini, davlatning tashqi iqtisodiy faoliyati, sado va to'lov balansini statistik kuzatishlarini va tadqiq qilishni amalga oshirish;

mamlakatdagi eng muhim iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar va hodisalarning dastlabki statistik tahlilini amalga oshiradi;

bozor munosabatlarida iqtisodiyotni va ijtimoiy sohani baravar tasniflash hamda muvofiq axborot tizimlari va dasturiy resurslarini yaratish uchun yagona asosni ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasiga birkirilgan umumdavlat va tizim ichidagi klassifikatorlarni ishlab chiqadi va ularning yuritilishini ta'minlaydi;

foydalanuvchilarga, umumdavlat klassifikatorlari va ularga kiritiladigan o'zgartirishlar to'g'risidagi axborotni belgilangan tartibda taqdim etadi;

respublikadagi barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni to'liq hisobga olishni va identifikasiyalashning hamda axborot resurslarining mosligini ta'minlovchi asosiy metodologik instrument sifatida Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yanada rivojlantirishni ta'minlaydi;

statistika kuzatuvlarini tanlov bo'yicha tashkil etishning asosi sifatida statistika kuzatuvlari sub'ektlarining asosiy majmuini takomillashtiradi;

statistik faoliyat shu jumladan davlat axborot tizimlari va resurslarini yaratish hamda yuritish masalalari bo'yicha normativ huquqiy xujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi, kelishib oladi va belgilangan tartibda respublika Hukumatiga va tegishli organlarga kiritadi;

respondentlarni statistik kuzatuvlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan statistika hisoboti shakllari banklari, ularni to'ldirish bo'yicha yo'riqnomalar bilan respublika byudjetidan ushbu maqsadlarga ajratiladigan mablag'lar darajasida ta'minlaydi;

statistika kuzatuvlari va rasmiy statistika axboroti masalalari bo'yicha axborot tushuntirish ishlarini amalga oshiradi;

milliy qonun xujjatlariga va mavjud xalqaro standartlarga va tavsiyanomalarga muvofiq statistika ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlaydi;

ma'lumotlarni tayyorlash metodlarini, tartibini va sifatini takomillashtirish negizida barcha foydalanuvchilarga ochiq statistika axboratini tarqatadi va ularni foydalanish uchun teng sharoitlar bilan ta'minlaydi;

metadologiya va statistika masalalari bo'yicha xalqaro qoidalarga muvofiq bo'lgan va milliy sharoitlarga moslashtirilgan tadqiqot ishlarini tashkil qiladi va amalga oshiradi;

ijro etuvchi hokimyatning boshqa organlari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi xalqaro tashkilotlarda a'zolidan kelib chiqadigan majburiyatdarni bajaradi, jamiyatning ehtiyojlariga muvofiq statistika sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi, ilg'or xorijiy tajribani o'tganadi, umumlashtiradi va tarqatadi;

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi qonun xujjatlarida belgilangan boshqa funksiyalarni ham bajaradi;

IV Huquq va majburiyatlari.

13. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasiga o'ziga yuklangan funksiyalarni bajarishi uchun quyidagi huquqlar beriladi:

Statistika bo'yicha yagona siyosatni o'tkazish sohasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishni va funksional tartibga solishni amalga oshiradi;

Davlat statistika kuzatuvchilari shakllarini ularni to'ldirish hamda taqdim etish tartibini tasdiqlash va idoraviy statistika kuzatuvlari shakllarini kelishib olish;

Moliya, bojxona, soliq organlaridan, bank muassasalaridan, boshqa idora va xizmatlardan, yuridik shaxslardan va ularning vakolatxonalarini va filiallaridan jismoniy shaxslardan, shu jumladan yakka tartibdagi statistika ishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni (ularning ishlab chiqishining har qanday bosqichida) shuningdek, ularga ilova qilinadigan tushuntirishlarni talab qilish va olish hamda ulardan davlat statistika hisobotlarida statistika maqsadlarida foydalanish;

Yuridik shaxslarni va yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organlardan, faoliyatning ayrim turlarini lisenziyalovchi organlaridan. Ijro etuvchi hokimyatning boshqa organlaridan, shuningdek, byudjetdan tashqari davlat jamg'armalaridan tassis xujjatlari nusxalarini hamda korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish uchun zarur bo'lgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar to'g'risidagi ma'lumotlarni olish;

Davlat statistika kuzatuvchilari metodologiyasi va ularni tashkil etish, shuningdek rasmiy statistika axboroti bilan bog'liq masalalar bo'yicha axborot – tushuntirish ishlarini amalga oshirish;

Statistika axborotlari va statistika ma'lumotlarining noto'g'ri foydalanilishi va talqin qilinishi hollarini tushuntirish;

Amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq davlat statistikasi sohasidagi O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlarining barcha yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan bajaralishi ustidan nazoratni amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq amalga oshirish;

Olinayotgan statistika ma'lumotlarining to'liqligi, ishonchliligi va xolisligini ekspertizadan o'tkazish;

O'zbekiston Respublikasi hududidagi muassasalar va tashkilotlarda statistika ma'lumotlarining ishonchliligi va to'liqligini belgilangan tartibda tekshirish. Buzilishlar aniqlangan taqdirda ularni bartaraf etish to'g'risidagi ko'rsatmalar berish va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;

Statistika ma'lumotlarini taqdim etish tartibi buzilishiga yo'l qo'ygan hamda yashirin va noqonuniy ishlab chiqarishni, pul mablag'larining bankdan tashqari aylanishini yashirishga va korxonalar faoliyatini xolisona boholashning buzilishiga sabab bo'ladigan, uning muassasalari va aksiyadorlari manfaatlariga zarar keltiradigan noto'g'ri statistika ma'lumotlarini qasddan taqdim etgan shaxslarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlariga muvofiq jarima jazolari qo'llash;

noto'g'ri statistika hisobotini noto'liq va qasddan noto'g'ri taqdim etgan holda qo'pol qonun buzilishiga yo'l qo'ygan shaxslarni qonunchilikka muvofiq ma'muriy va jismoniy javobgarlikka tortish yuzasidan belgilangan tartibda takliflar kiritish;

davlat statistika hisobotini taqdim etish tartibi buzilganligi uchun mansabdor shaxslardan undiriladigan jarimalar hisobiga Maxsus jamg'armani shakllantirish hamda undan belgilangan qoidaga muvofiq foydalanish;

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tasarrufidagi tashkilotlarni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlarida belgilangan tartibda takliflar tayyorlash va kiritish, shuningdek, ushbu korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi nizomlarni (ustavlarni) tasdiqlash;

xo'jalik shartnomalari bo'yicha, tijorat asosida statistik, tahliliy axborot-hisoblash, noshirlik va soha mavzusi bo'yicha boshqa ishlarni amalga oshirish;

boshqa davlatlarning statistika idoralari va xalqaro statistika va boshqa tashkilotlar bilan statistika faoliyati masalalari bo'yicha hamkorlik qilish to'g'risida belgilangan tartibda bitimlar tuzish;

statistika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, ularni ishlab chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi ilmiy muassasalarini, respublika va xorijiy mamlakatlarning boshqa tashkilotlarini, shuningdek, olimlar va mutaxassislarni belgilangan tartibda jalb etish;

xalqaro statistika va iqtisodiyot tashkilotlari bilan hamkorlik qilish, statistika masalalari bo'yicha seminarlar va kengashlar shu jumladan xalqaro seminar va kengashlar o'tkazish hamda ularning ishida qatnashish;

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham egadir;

14. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi statistika sohasidagi yagona siyosatning samarali amalga oshirilishi uchun javob beradi.

15 O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi xodimlari "Davlat statistikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablarini buzganlik uchun, shuningdek statistika ma'lumotlarini yashirganlik va buzib ko'rsatganlik uchun, yohud mazkur qonun buzilishlariga ko'maklashganlik uchun qonunga muvofiq ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortiladi.

V. Faoliyatini tashkil etish

16. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasiga rais rahbarlik qiladi. Rais respublika Hukumatining taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

Rais lavozimiga kasb va texnik malakasi asosida uch yil muddatga tayinlanadi hamda, u o'zining kasbga nomuvofiqligi sababli belgilangan muddatdan oldin lavozimdan ozod etilishi mumkin;

Raisning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan to'rt nafar o'rinbosari, shu jumladan bir nafar birinchi o'rinbosari bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi raisi maqomiga ko'ra vazirga, raisning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari tegishli ravishda vazirning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlariga tenglashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi raisi O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasiga yuklangan vazifalarning bajarilishi va uning funksiyalarining amalga oshirilishi uchun shaxsan javob beradi.

17. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi raisi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi faoliyatiga rahbarlik qiladi:

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining tarkibiy bo'limlari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

Davlat statistika organlari xodimlariga nisbatan malaka talablarini belgilaydi va ularning mehnatini rag'batlantirish tizimini shakllantiradi, yuqori malaka uchun ustamalar belgilaydi;

Zarur bo'lganda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tizilmasiga shrhatdagi xodimlarning tasdiqlangan soni va statistika ishlarini amalga oshirish uchun ajratiladigan mablag'lar doirasida o'zgartirishlar kiritadi.

Qoraqolpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari rahbarlarini tegishli ravishda Qoraqolpog'iston Respublikasi

Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari taqdimnomasiga ko'ra belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qiladi;

dasturlar bo'yicha bajariladigan statistika ishlari hajmlariga muvofiq moliyaviy va moddiy-texnikaresurslarini taqsimlaydi;

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi barcha organlari va bo'limlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

statistika organlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash, ularni zamonaviylashtirish hamda zamonaviy kompyuterlar va axborot kommunikasiya tizimlari va texnologiyalari bilan qayta jihozlash chora tadbirlarini ko'radi;

qonun xujjatlarida nazarda tutilgan tartibda hamda xalqaro huquq normalariga muvofiq boshqa davlatlar iqtisodiyot idoralari bilan statistika metodologiyasini va amaliyotini takomillashtirish masalalari bo'yicha shartnomalar tuzadi, o'ziga yuklangan vazifalar doirasida xalqaro va xorijiy statistika tashkilotlari bilan hamkorlikni amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari doirasida o'ziga yuklangan vazifalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash uchun amaldagi qonun xujjatlari doirasida boshqa barcha zarur chora-tadbirlarni ko'radi;

18. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasida 7 kishidan iborat Hay'at tuziladi. Hay'at tarkibi belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

Hay'at davlat statistikasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini, shuningdek, davlat statistika organlari faoliyatining boshqa masalalarini ko'rib chiqadi.

Hay'at qarorlari protakollar bilan rasmiylashtiriladi va O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi raisining buyruqlari bilan amalga oshiriladi.

19. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi huzurida davlat hokimiyati organlari, ishbilarmon doiralar, ilmiy jamoatchilik, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari vakillaridan iborat tarkibda davlat statistikasini rivojlantirish, faoliyatini amalga oshirish va muvofiqlashtirish, shuningdek, statistika metodologiyasini takomillashtirish va foydalanuvchilarning rasmiy statistika axborotiga bo'lgan ehtiyojini hisobga olish muammolari bo'yicha kollegial maslahat organi hisoblanadigan Statistika kengashi tashkil etiladi.

Statistika kengashi faoliyatining tashkiliy-texnik ta'minoti O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

Statistika kengashining shaxsiy tarkibi respublika Hukumati taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

20. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi huzurida yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan Kadrlarni qayta tayyorlash va statistika tadqiqotlari markazi tashkil etiladi.

VI. Mol-mulki va xo'jalik faoliyati

21. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining mol-mulkini asosiy vositalar va aylanma mablag'lar, shuningdek, qiymati uning mustaqil balansida aks ettiriladigan boshqa boyliklar tashkil etadi.

22. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasini mablag' bilan ta'minlash va uning moddiy-texnika ta'minoti Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq Davlat byudjeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Davlat statistika ishlari dasturiga kiritilmagan qo'shimcha statistika ishlariga haq to'lash buyurtmachilar mablag'lari hisoblanadi.

23. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi o'z faoliyatini har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika ishlarini bajarish davlat buyurtmasiga, shuningdek, mahsulotlar, ishlar va xizmatlardan foydalanuvchilar bilan tuzilgan sharnomalarga muvofiq tashkil qiladi.

24. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi o'z ishlari natijalarining tezkor va bexgalteriya hisobini amalga oshiradi, statistika hisobotini yuritadi.

1985 yili bir yo'la qabul qilingan mehnat statistikasi to'g'risidagi 170-sonli tavsiyalar, ularga amal qilinishi konvensiyalardan farqli o'laroq, XMTga a'zo mamlakatlar fikriga bog'liq bo'ladi, statistik ma'lumotlarni yuqorida aytib o'tilgan bo'limlar bo'yicha to'plash va ularga ishlov berish hamda imkoni boricha iqtisodiy faoliyatning asosiy tarmoqlarini qamrab olgan holda mehnat unumdorligi to'g'risida statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish va to'plashga oid amaliy tavsiyalar aks ettirilgan.

XMB tomonidan XMTga a'zo mamlakatlardan olingan ma'lumotlar mehnat masalalari bo'yicha oylik jurnalda ("International Labour Review"), mehnat statistikasiga oid choraklik byulletenda ("Bulletin of Labour Statistics"), shuningdek, mehnat statistikasi bo'yicha yillik to'plamda ("Yearbook of Labour Statistics") ingliz, fransuz va ispan tillarida e'lon qilinadi. XMT «Mehnat statistikasi» yillik to'plamining 1935 yildan buyon har chorakda chiqayotgan byulleteni 1962 yildan beri chop etilmoqda.

1985 yili qabul qilingan «Mehnat statistikasi to'g'risida»gi 160-sonli konvensiyaga ko'ra, XMT Konvensiyani ratifikasiya qiladigan barcha a'zo mamlakatlari mehnat to'g'risidagi asosiy statistik ma'lumotlarni quyidagi bo'limlar bo'yicha muntazam to'plab va e'lon qilib borishlari kerak:

- iqtisodiy faol aholi, bandlik, ishsizlik va oshkora noto'liq bandlik (yilda kamida bir marta to'planishi va jins yoki guruhlar hamda iqtisodiy faoliyat tarmoqlari bo'yicha tasniflanishi kerak);

- iqtisodiy faol aholining tarkibiy tuzilishi va taqsimlanishi (o'n yilda kamida bir marta to'planishi va turli ijtimoiy-iqtisodiy belgilar (jins, yosh guruhlar, kasbiy guruhlar yoki malaka darajalari, iqtisodiy faoliyat tarmoqlari,

bandlik maqomi bo'yicha ham, shu mamlakatning ma'muriy-huquqiy bo'linishidan kelib chiqib, hududlari bo'yicha ham tasniflanishi kerak);

- o'rtacha ish haqi va ish vaqtining o'rtacha davomiyligi, ish haqining vaqtbay haq to'lash stavkalari va ish vaqtini normal davomiyligi (yilda kamida bir marotaba to'planib borishi lozim);

- ish haqi tuzilmasi va taqsimlanishi haqida ma'lumot muntazam vaqt oraliqlarida to'planib o'rganiladi;

- ishchi kuchi qiymati, uning miqdori va tarkibi haqida;

- iste'mol baho indeksi, aholi asosiy guruhi va butun aholi bo'yicha iste'mol tovar va xizmatlari alohida yiriklashtirilgan guruhlar bo'yicha e'lon qilinishi kerak;

- uy xo'jaliklari xarajatlari va daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlanishi kerak;

- ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasbiy kasalliklar haqida ma'lumotlar yilda kamida bir marta to'planishi kerak;

- mehnat nizolari bilan bog'liq bo'lgan ish tashlashlar va boshqalar bo'yicha yilda kamida bir marta ma'lumot to'planishi kerak va boshqalar.

1.4. «Mehnat statistikasi» ko'rsatkichlari tizimi

Mehnat va mehnat munosabatlari sohasida sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlarni o'rganish ularning miqdoriy tavsifini ifodalash imkonini beradigan, o'zaro bog'langan ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi ko'magida amalga oshiriladi. Bu tizim iqtisodiy faoliyat jarayonida shu faoliyat ishtirokchilari va eng avvalo ish beruvchi va yollanma ishchilar o'rtasida mavjud bo'lgan o'zaro haqiqiy aloqalarni aks ettiradi.

XMT tomonidan ishlab chiqilgan «Mehnat statistikasi» bo'yicha zamonaviy xalqaro tavsiyalar Xalqaro «Mehnat statistikasi» ko'rsatkichlarini hisoblashning uslubiy asosi hisoblanadi. Xalqaro «Mehnat statistikasi» ko'rsatkichlari ifodalanadigan o'lchov birliklari turiga ko'ra, uning ko'rsatkichlari tizimi o'ziga natural qiymat hamda mehnat ko'rsatkichlarini qamrab oladi.

Natural ko'rsatkichlarga shu hodisaning kattaligi (miqdori)ni ifodalaydigan va natural o'lchov birliklarida ifodalangan ko'rsatkichlar (masalan, ish vaqti birligiga aniq mahsulot turlarining ishlab chiqarilishi, bandlar va ishsizlar soni va h.k.) kiritiladi.

Qiymat ko'rsatkichlariga pul ifodasi ko'rsatkichlari (masalan, ishsizlik nafaqalarining o'rtacha miqdori ish vaqti fondi, milliy mehnat unumdorligining darajasi va h.k.) kiritiladi. Mehnat ko'rsatkichlari ish vaqti birliklarida (masalan, kishiG'soat, kishiG'kun, o'rtacha yildagi xodimlar) ifodalanadi.

Xalqaro «Mehnat statistikasi» ko'rsatkichlari tizimi qator kichik tizimlardan tarkib topadi. Ularning har biri mehnat va mehnat munosabatlari sohasida sodir bo'layotgan hodisa hamda jarayonlarning ma'lum sifatini ifodalaydigan mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlardan iborat bo'ladi.

Xalqaro «Mehnat statistikasi» ko'rsatkichlari tizimining asosiy bo'limlariga quyidagilar kiritiladi:

- har qanday mamlakat mehnat potensialini shakllantirish bazasi sifatida aholi statistikasi ko'rsatkichlari (aholi soni va tarkibi ko'rsatkichlari; mehnat yuklamasi ko'rsatkichlari; aholi va ishchi kuchining tabiiy va migrasiya harakati ko'rsatkichlari);
- iqtisodiy faol aholi, bandlik, ishsizlik va iqtisodiyotning ishsizlikdan yo'qotish ko'rsatkichlari;
- ishchi kuchi taklifi, unga talab va mehnat bozori kon'yunkturasi ko'rsatkichlari;
- noto'siq (qisman) bandlik, iqtisodiyotning noto'siq bandlikdan yo'qotishlar va norasmiy sektordagi bandlik ko'rsatkichlari;
- ish vaqtining davomiyligi va undan foydalanish ko'rsatkichlari;
- ishchi kuchi qiymati;
- mehnatga haq to'lash ko'rsatkichlari (ish haqi, mehnat bo'yicha boshqa daromadlar, nominal va haqiqiy ish haqi);
- mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari (mehnat unumdorligi darajasi va dinamikasi; omillarning mehnat unumdorligi darajasiga ta'sirini baholash; mehnat unumdorligi darajasini xalqaro qiyoslash);
- aholi va ishchi kuchi mehnat (ijtimoiy, kasbiy va hududiy) mobilligi statistikasi ko'rsatkichlari;
- ishchi kuchining turmush shart-sharoitlari ko'rsatkichlari (aholining haqiqiy va nominal daromadlari; xarajat va jamg'armalari; moddiy boylik va xizmatlar iste'moli ko'rsatkichlari; chakana tovar aylanishi ko'rsatkichlari; turar joy va uzoq foydalaniladigan ashyolar bilan ta'minlaganlik ko'rsatkichlari; ishlab chiqarishda jarohatlanish, kasbiy kasallanish, mehnat nizolari ko'rsatkichlari; bo'sh vaqt ko'rsatkichlari).

Xalqaro «Mehnat statistikasi» ko'rsatkichlari tizimini tuzishda guruhlash usulidan keng foydalaniladi. Bulardan statistik tahlil uchun eng muhimlari quyidagilar hisoblanadi:

a) **mehnatga layoqatlilik yoshi bo'yicha guruh**, BMT Statistika komissiyasi tavsiya etgan;

b) **hududiy guruh** – mamlakatlarni qit'alar (Evropa, Osiyo, SHimoliy Amerika, Janubiy Amerika, Afrika, Avstraliya va Okeaniya) hamda mamlakatlar birlashmalari bo'yicha (Evropa Ittifoqi, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Janubiy-SHarqiy Osiyo mamlakatlari uyushmasi) va boshqalar bo'yicha **xalqaro darajada** guruhlash. **Alohida mamlakatlar darajasida** hududiy guruhlash asosida ma'muriy-hududiy bo'lishish yotadi (masalan, AQSH 50 shtat va 1 federal okrugi; Yaponiya – 44 prefektura, 1 poytaxt okrugi va 2 shahar prefekturasiga; Xitoy – 22 muzofot (Tayvansiz), 5 muxtor tuman, 3 markazga bo'ysunadigan shaharchaga ajraladi va h.k.). O'zbekiston 12 viloyat, Qoraqolpog'iston Avtonom Respublikasi va 1ta poytaxt shahardan iborat.

Bundan tashqari, «Mehnat statistikasi»ning barcha ko'rsatkichlari shahar va qishloq aholisi uchun alohida-alohida hisoblanadi;

v) **xo'jaliklarni ijtimoiy shakllari bo'yicha guruhlash**, u quyidagicha ajratiladi:

- davlat korxonalari va muassasalari;
- mulkchilikning jamoa shaklida bo'lgan korxona va muassasalar (aksiyadorlik jamiyatlari, kooperativlar va h.k.);
- xususiy korxona va muassasalar;
- chet elliklar tasarrufidagi korxonalar;
- mulkchilik aralash shaklida bo'lgan korxonalar.

g) **iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha guruhlash**, bu iqtisodiy faoliyatning barcha turlarini xalqaro standart tarmoq tasnifi asosida guruhlash bo'lib, unda faoliyatning quyidagi turlari aniqlanadi:

- qishloq ho'jaligi, o'rmon xo'jaligi, ov;
- baliqchilik;
- qazib oluvchi (kon) sanoat;
- qayta ishlovchi sanoat;
- elektr energiyasi, gaz va suv ishlab chiqarish;
- qurilish;
- savdo, mehmonxonalar, restoranlar;
- transport, aloqa, ombor xo'jaligi;
- ko'chmas mulk bilan operasiyalar, ishlab chiqarish xizmatlari, ijara;
- ma'muriyat, muhofaza, ijtimoiy sug'urta;
- maorif;
- sog'liqni saqlash;
- boshqa shaxsiy va jamoa xizmatlari (atrof-muhitni muhofaza qilish, dam olish, turizm, ko'ngil ochish, madaniy tadbirlar);
- uy xo'jaliklariga pulli xizmatlar;
- ekshududiy tashkilotlar.

d) **bandlik maqomi bo'yicha guruh** – u XMT ishlab chiqqan bandlik maqomining xalqaro tasnifiga asoslanadi.

e) **kasbiy guruh**, uning asosida XMT qabul qilgan kasblarning xalqaro standart asosida yotadi, bu tasnif 4 bosqichdan iborat bo'ladi.

Iqtisodiyotning norasmiy sektorida band bo'lganlar soni, shuningdek, ular ishlab chiqargan mahsulot va xizmatlar hajmini aniqlashda jiddiy qiyinchiliklar borligi tufayli barcha mamlakatlarning milliy statistika xizmatlari iqtisodiyotida band bo'lganlar soni va yangi ko'rsatkichlarga norasmiy faoliyatni hisobga olib, qo'shimcha hisob-kitoblar qilinadi.

Qisqacha xulosalar

Bozor munosabatlarining mavjudligi va shu bilan bog'liq mehnat bozorining holatini statistik baholash, o'rganish, tahlil qilish va mamlakatimiz uchun ilgari noma'lum bo'lgan milliy hisoblar tizimi bir qator ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o'rganish va amaliyotga tadbiq etish, bizning sharoitimiz, amaliyotimizga mos kelmagan kategoriyalar ustida ish olib borish va ularni iloji boricha milliy hisoblar tizimidan chiqib ketmasdan amaliyotimizga moslashtirish va shu kabi vazifalarni hal etish uchun bozor mexanizmini, uning qonuniyatlari, tendesiyalarini chuqur va mukammal o'rganishda statistik tadqiqotlar tashkil etishni talab etadi.

Mehnat bozori statistikasi o'z predmeti va usuliga ega bo'lib, statistika ijtimoiy-iqtisodiy ommaviy hodisa va jarayonlarning miqdor tomonini aniq makon va zamonda, ularning sifati bilan uzviy bog'liqlikda o'rganadi.

Mehnat statistikasining asosiy maqsadi mehnat potensialini shakllantirish zaminlarini miqdoriy ta'riflash, uning tarkibini turli belgilarga ko'ra o'rganish; ish kuchi bozorini ta'riflash; ishga yaroqli aholining ijtimoiy, kasbiy va hududiy moyilligini o'rganish, ishchi kuchiga xarajatlar darajasi, dinamikasini tahlil qilish hisoblanadi.

Mehnat statistikasining markaziy vazifalaridan biri – mehnat potensialidan foydalanish, ish vaqtidan foydalanish darajasi va mehnat potensialidan to'la foydalanilmaganlik oqibatda iqtisodiyotdagi yo'qotishlar kabi savollarni ta'riflashdir. SHu bilan birga ishchi kuchi turmush darajasini aniqlovchi ko'rsatkichlar, aholining mehnat, turmush va dam olish sharoiti darajasi va dinamikasiga statistik ta'rif berish lozim. Mehnat va mehnat munosabatlari sohasida sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlar mehnat statistikasi predmeti bo'lsa, mehnat bozori statistika tadqiqot ob'ekti hisoblanadi.

Mehnat bozori statistikasi metodologiyasi barcha nazariy statistika usullaridan foydalanadi: absolyut va nisbiy miqdorlar, o'rtacha va variatsiya ko'rsatkichlari, guruhlash va tasniflash, balans va indekslar usuli, tanlanma kuzatish usuli kabilardan.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Mehnat statistikasi predmetiga ta'rif bering.
2. Bozor va mehnat bozoriga ta'rif bering.
3. Mehnat statistikasining boshqa fanlar bilan aloqasini izohlab bering.
4. Mehnat statistikasining bugungi kun vazifalari.
5. Mehnat statistikasida qo'llaniladigan usullar.
6. Mehnat statistikasi usuli va metodologiyasi orasidagi birligi va farqi.
7. Xalqaro Mehnat Tashkiloti va uning statistik faoliyati qanday?
8. Mehnat statistikasi qanday ko'rsatkichlar tizimidan foydalanadi?

Asosiy adabiyotlar

1. Akbarova Z. Mehnat bozori statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent, 2004.
2. Под ред. С.Д.Иленковой. Микроэкономическая статистика. Учебник. – М., 2004 г.
3. В.Г.Минашкин, О.Л.Козарезова. Основы теории статистики. – М., 2004 г.
4. Р.А.Шмойлова и др. Практикум по теории статистики. Учебной пособие. – М., 2004 г.
5. Р.А.Шмойлова и др. Теория статистики. Учебник. – М., 2004 г.
6. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida. TDIU, 2005.
7. Башкатов Б.И., Карпухина Г.Ю. Международная статистика труда. Учебник. – М.: Дело и Сервис, 2001.
8. Сиденко А.В., Башкатов Б.И., Матаева В.М. Международная статистика. Учебник – М.: Дело и Сервис, 1999.
9. www.euireland.ie
10. www.cec.org.uk
11. www.eurunion.org
12. www.europarl.ie

II bob. MEHNAT POTENSIALI VA MEHNAT RESURLARI MEHNAT BOZORI STATISTIKASINING O'RGANISH OB'EKTI SIFATIDA

2.1. Mehnat potentsiali va mehnat resurslari haqida tushuncha

Iqtisodiyotni bozor munosabati sharoitiga o'tishi, davlat aholisi turmush darajasini yanada yuqoriroq pog'onaga ko'tarish maqsadida, ishlab chiqarishni rivojlanish dinamikasining o'sishi va uning samaradorligini oshirish asosida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish kuchining rivojlanishi, yalpi ichki mahsulot barpo etilishi jamiyat a'zolarining moddiy va madaniy talablarini qondirish asosida iqtisodiy samaradorlikni oshirish yotadi. Ishlab chiqarish vositalari va ularni harakatga keltiruvchi ish kuchi – ishlab chiqarish kuchini tashkil etadi. Samaradorlik muammosini hal etish, potentsial imkoniyatlardan – ishlab chiqarish fondlaridan, mehnat resurslaridan maksimal foydalanish asosida, sifat tarkibini oshirish hisobiga davlat iqtisodiy potentsialini ko'paytirish, rasional foydalanish yordamida bajariladi.

Pirovard ishlab chiqarish har so'miga qancha xarajat etilishi jamiyat uchun muhim bo'lib hisoblanadi, shuning uchun yalpi ichki mahsulot, pirovard mahsulot o'sish sur'ati, asosiy va aylanma fondlarni, ish kuchi va boshqa resurslarni o'sish surati orasidagi mutanosiblik optimal miqdorini saqlash, uzluksiz hisob olib borish, tekshirish zaruriyati kelib chiqadi.

Jamiyat hayotining muhim tomonidan biri bo'lib ish kuchini takror ishlab chiqarish hisoblanadi va shu munosabat bilan bu nafaqat iqtisodiy muammo bo'lib, balki yangi ijtimoiy munosabatlarni shakllanishiga ta'sir ko'rsatib, o'z ichiga sosiologik, demografik, ruhiy, siyosiy aspektlarni qamrab oladi. Xalq xo'jaligining rivojlanishi muhim omillardan biri bo'lib, mehnat resurslaridan samarali foydalanish, iqtisodiy mehnat faolligini oshirish hisoblanadi.

Mehnat resurslari jamiyat ishlab chiqarishning asosiy kuchi bo'lib, ishlab chiqarish vositalari, moddiy boyliklar yaratishda bevosita ishtirok etadi.

Bugungi kunda davlat mehnat resurslaridan foydalanishga ikki xil yondashish mumkin. Birinchisi, jamiyat ishlab chiqarishida iqtisodiy faoliyat bilan band bo'lganlardan to'laroq foydalanish bo'lsa, ikkinchidan iqtisodiy faoliyat bilan band bo'lishga mumkin qadar ko'proq aholi potentsial mehnat resurslarini jalb etishdir.

Har qanday ishlab chiqarishni tashkil etish uchun uch element mavjud bo'lishi lozim:

- mehnat predmeti;
- ishlab chiqarish vositalari;
- ish kuchi.

Ish kuchi ishlab chiqarish kuchlarining sub'ektiv elementi va uning ishlab chiqarishda tutgan o'rni salmoqlidir. Ishlab chiqarish vositalari eng so'nggi, zamonaviy, yuqori unumli bo'lmasin, ish kuchisiz ulardan hech qanday naf

bo'lmaydi. Ikkinchidan, shu ishlab chiqarish vositalari, ishlab chiqaruvchi kuchlarning moddiy buyum qismi ilgari jonli mehnat mahsulidir.

Inson mehnat qilish qobiliyati moddiy ne'mat yoki xizmatlar yaratishda o'ziga o'rinbosar topadi.

Ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan shaxslar, ya'ni ishchi kuchining yig'indisi mehnat resurslarini tashkil etadi, bularga nafaqat iqtisodiy faol aholi, balki boshqa kategoriyalari ham, shu jumladan, ishdan ajralgan holda o'qiyotganlar va ayni daqiqada ishlamayotgan va ish qidirayotganlar ham kiritiladi.

Mehnat resurslari haqida ikki xil tushuncha mavjud:

- potensial mehnat resurslari;
- haqiqiy mehnat resurslari.

Potensial mehnat resurslariga mehnat yoshidagi mehnatga layoqatlilar kiritiladi. Mehnat qilish yoshi dinamikada o'zgaruvchan bo'lib, bu o'zgarish davlat rivojlanish darajasi, iqtisodiyot krizisi yoki rivojlanishi, mehnat resurslariga bo'lgan talab kabilar ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ikkinchi jahon urushida sobiq Ittifoq hududida 14 yoshdan yuqori bo'lganlar mehnat resursi qatoriga kiritilganlar.

Davlatimizda mehnat resurslar yoshining quyi chegarasi 16 yosh bo'lib, yuqori chegarasi ayollar uchun 55 yoshgacha, erkaklar uchun 60 yoshgacha hisoblanadi. 16 yosh quyi chegarasi bo'lishi bilan ilgari, bozor munosabatlariga o'tishdan oldingi davrda, majburiy 11 yillik o'rta ta'lim sharoitida, maktabni o'quvchilar asosan 17 yoshga yaqin bitirishar edi va mehnat resurslari safiga shu yoshdan keyin qo'shilishgan. Hozirgi paytda 9 sinfgacha majburiy o'rta ta'lim bo'lib, 14 yoshni tashkil etadi, demak o'qishni xohlamaydiganlar mehnat resurslari qatoriga qo'shilishadi.

Mehnat yoshining yuqori chegarasi ham turli xil imtiyozli mehnat faoliyati bilan band bo'lganlar uchun mavjud bo'lib, bunday imtiyozli nafaqaga chiquvchilar turli xil sog'liqqa zararli mehnat sharoitida faoliyat ko'rsatayotganlar, ko'p bolali ayollar, san'at xodimlari: o'yinchilar, duxovoy instrument cholg'uchilar va hokazolar bo'lishi mumkin.

Mehnat yoshi chegarasi har bir davlat qonunlari bilan belgilanib, davlat milliy xususiyatlarini hisobga oladi. SHuning uchun mehnat qilish qobiliyati yoshi davlatlararo ham turlichadir. Masalan, AQSH, SHvesiyada mehnat qilish qobiliyati quyi chegarasi 16 yosh, Fransiya, YAponiyada – 15 yosh, Italiya, Gresiyada – 14 yosh, Argentina, Braziliya, Pokistonda – 10 yosh, Polshada – 18 yosh. YUqori chegarasi esa ko'pgina davlatlarda erkak va ayollar uchun bir xil bo'lib: AQSH, Kanada, SHvesiya, YAponiyada – 65 yosh, Norvegiyada – 70 yosh, Fransiya – 60 yosh, Estoniyada esa ayollar uchun – 65 yosh, erkaklar uchun – 60 yosh. Potensial mehnat resurslari davlatda mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'lganlar qanchani tashkil etishini ko'rsatib beradi.

Haqiqiy mehnat resurslari deganda, o'rganilayotgan davrda aholining o'z mehnatiga o'rin topgan qismi tushuniladi.

2.1.1-jadval.

Mehnat resurslari (ming kishi)

	2003 y.	2004 y.
Doimiy aholining o'rtacha yillik soni	25567,7	25864,4
Mehnat resurslari soni	13597,0	14021,0
Doimiy aholiga nisbatan, %da	53,2	54,2
Iqtisodiy faol asholi soni	9621,2	9945,5
Mehnat resurslariga nisbatan, %da	70,8	70,9
Iqtisodiyotda band bo'lganlar soni	9589,0	9910,6
Mehnat resurslariga nisbatan, %da	70,5	70,7

Manba: O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharx 2004 yil. №8 mart 2005

Haqiqiy mehnat resurslari potentsiali mehnat resurslariga qaraganda ko'proqdir:

- ishlaydigan o'smirlar: ishlaydigan o'smirlar soniga turli xil omillar ta'sir ko'rsatadi, eng ko'proq ta'sir ko'rsatadigan omil ijtimoiy-iqtisodiy omildir. Bunga oila iqtisodiyoti va farovonligi ham kiradi.

- ishlaydigan pensionerlar: ishlaydigan pensionerlar soniga, ayniqsa, demografik omil ta'sir ko'rsatadi, ya'ni aholining eng tez ko'payib boruvchi qismi katta yoshdagi kishilar, hozirgi davrda aholining qarish jarayoni va bular soni qancha tez ko'paysa, ijtimoiy-iqtisodiy omilga ta'sir etuvchilar, o'z iqtisodiyotini yaxshilashga intiluvchilar soni ham oshib boradi. Ta'sir etuvchi omillardan yana biri ma'naviy omil bo'lib, mehnat qilishga o'rgangan insonning mehnati jamiyatga kerak emasligi tushkunlikka olib keladi.

- imtiyozli pensiyaga chiqib ishlamaydiganlar soniga;
- ishdan ajralgan holda o'qiyotganlar soniga;
- uy-ro'zg'or ishlari bilan band bo'lganlar soniga;
- bola tarbiyasi bilan band bo'lganlar soniga;
- mehnat qilishni istamaydiganlar soniga va h.k.

Mehnat potentsiali mavjud mehnat resurslarini faqat miqdor tomonidan emas, balki sifat tomonidan ham inobatga olib, bilim va malaka darajasi, intellektual salohiyati, kasbiy tayyorgarligini o'rganishdir.

2.2. Mehnat resurslari soni o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar

Mehnat resurslari aholining bir qismi bo'lib, aholi sonining o'zgarishiga ta'sir etadigan omillar, mehnat resurslari o'zgarishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bulardan demografik omil:

- tabiiy harakat: tug'ilish, vafot etish, tabiiy o'sish va h.k.
- mexanik harakat: aholi migrasiyasi.

Immigrant va emigrantlar sonida mehnat qilish yoshidagi mehnatga qobiliyatli salmoqli o'rinni egallaydi: O'ziga, o'z mehnatiga o'rin topishga

ishonganlar. Demak, mexanik harakat ko'proq mehnat resurslari soni o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi va bunga turli xil ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sir etadi.

Ish kuchi harakati aholi mexanik harakatiga qaraganda kengroq bo'lib, uning quyidagi turlari mavjud:

- tarmoqlararo;
- makonda;
- malakaviy;
- funksional;
- xalqaro.

Ish kuchining makondagi harakati deganda, ish kuchi ish joyini o'zgartirishi natijasida bir istiqomat qiluvchi joydan boshqa joyga ko'chishi tushuniladi. Aholi va ish kuchi harakatining quyidagi migrasiyasi tasnifini ko'rib chiqamiz:

1. Makon belgisi bo'yicha.

Ichki migrasiya davlat miqyosida bir ma'muriy-hududiy birlikdan boshqasiga ko'chish, hududlararo, viloyatlararo, shahardan qishloqqa va qishloqdan shaharga va h.k. Tashqi migrasiya davlat chegarasidan o'tish bilan bog'liq bo'lgan harakat. Mazkur davlatda vaqtincha yoki doimiy istiqomat qilish uchun boshqa davlatdan ko'chib kelayotganlar - emigrantlar. Boshqa davlatdan mazkur davlatga vaqtincha yoki doimiy istiqomat qilish uchun ko'chib kelayotganlar - immigrantlar.

2. Muddati bo'yicha:

- doimiy;
- vaqtincha;
- mayatnik turlardagi migrasiya o'rganiladi.

Doimiy migrasiya belgilangan muddat oralig'ida mazkur davlatga doimiy istiqomat qilish uchun ko'chib kelganlar yoki undan ko'chib ketganlar soni bilan ta'riflanadi. Doimiy istiqomat qilish joyini o'zgartirmasdan joriy ehtiyojlarini qondirish maqsadida mazkur davlatga kirib kelganlar soni-vaqtincha migrasiyani tashkil etadi. Mavsumiy ish kuchi vaqtincha migrasiyadan alohida hisobga olinadi. Bir haftadan kam bo'lgan muddatda ishdan doimiy istiqomat qiluvchi makonda va teskarisi - mayatnik migrasiya deyiladi.

3. Tashkil etilishi bo'yicha:

- tashkil etilgan migrasiya;
- tashkil etilmagan migrasiya;
- qonuniy;
- noqonuniy migrasiyalarga bo'lib o'rganiladi.

Yillik ajratilgan kvotalarga binoan immigrantlar soni qonuniy migrasiya deyiladi.

Noqonuniy migrasiya hujjatlar bilan vakolat berilmagan, mazkur davlat makonidan boshqa davlatlar makoniga belgilangan qoidaga rioya qilmasdan o'tish maqsadida foydalanilayotgan migrasiyadir.

Bundan tashqari, kasbiy faoliyatni noqonuniy bajarish uchun belgilangan qoidaga rioya qilmay, mazkur davlatga kirib kelish ham noqonuniy migrasiya hisoblanadi. Ularga: viza muddati tugaganlar, sayyohlik vizasi bilan mehnat faoliti

yuritayotganlar, shuningdek, noqonuniy kasbiy faoliyat yuritish, qurol-yarog', narkotik moddalar va hokazolar bilan savdo qilish, ish kuchini noqonuniy yo'llar bilan chet ellarga yuborish bilan shug'ullanuvchilar kiradi.

4. Migrasiya sabablari bo'yicha:

-siyosiy;

-ijtimoiy-iqtisodiy migrasiyaga bo'linadi.

Mehnat migrasiyasi iqtisodiy faol aholining ish izlab, makondaga harakati, tarmoqlararo harakatidir. Mehnat migrasiyasining ichki va tashqi malaka darajasi bo'yicha va boshqa ko'rinishlarga bo'lib o'rganish mumkin.

Qisqacha xulosalar

Ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan shaxslar, ya'ni ishchi kuchining yig'indisi mehnat resursidir.

Mehnat yoshidagi mehnatga layoqatlilar potensial mehnat resurslariga kiradi.

Mehnat qilish yoshi, mehnat resurslariga, davlat rivojlanishiga bog'liq holda o'zgarib turadi, ya'ni mehnat resurslariga bo'lgan talab mehnat yoshining o'zgarishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Potensial mehnat resurslari davlatda mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'lganlar qanchani tashkil etishini ko'rsatib bersa, haqiqiy mehnat resurslari shu davlat mehnat resurslari imkoniyatidan qanday foydalanilayotganini, o'rganilayotgan davrda aholining o'z mehnat qilish imkoniyatini tadbqiq qilish huquqidan foydalanilganlar tushuniladi.

Ishlab chiqarish kuchining rivojlanish asosi, yalpi ichki mahsulot dinamikasining o'sishi, jamiyat a'zolarining o'sib boruvchi moddiy va ma'naviy talablarini to'laroq qondirish asosi bo'lib iqtisodiy samaradorlik hisoblanadi. Har qanday jamiyat ishlab chiqarish kuchining asosi bo'lib mehnatkashlar, ya'ni mehnat resurslari hisoblanadi. Bozor munosabatlariga o'tish maqsadi – aholining turmush darajasini yuqori pog'onaga ko'tarish hisoblanib, bunga esa barcha resurslardan samarali foydalanish asosida erishish mumkin. Aholining turmush darajasi, mehnat qilish huquqini muhofaza etishga bog'liq bo'lib, uni nafaqat mehnat qilish huquqi borligi balki ishlashni xohlovchilarni mehnat bilan ta'minlashga imkon yaratishga yordam berishdir.

Mehnat resurslari sonining o'zgarishiga aholi sonining o'zgarishiga ta'sir etuvchi demografik va migrasion omillar ta'sir ko'rsatadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ish kuchining ijtimoiy ishlab chiqarishda tutgan o'ri.
2. Potensial mehnat resurslari haqida tushuncha va uning mohiyati.
3. Mehnat yoshidagi aholi chegaralari.
4. Haqiqiy iqtisodiy mehnat resurslari haqida tushuncha.
5. Mehnat resurslarini o'rganish muammolari.
6. Mehnat resurslarining soniga ta'sir etuvchi omillar.

Asosiy adabiyotlar

1. Akbarova Z. Mehnat bozori statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent, 2004.
2. Под ред. С.Д.Иленковой. Микроэкономическая статистика. Учебник. – М., 2004 г.
3. В.Г.Минашкин, О.Л.Козарезова. Основы теории статистики. – М., 2004 г.
4. Р.А.Шмойлова и др. Практикум по теории статистики. Учебной пособие. – М., 2004 г.
5. Р.А.Шмойлова и др. Теория статистики. Учебник. – М., 2004 г.
6. Башкатов Б.И., Карпухина Г.Ю. Международная статистика труда. Учебник. – М.: Дело и Сервис, 2001.
7. Сиденко А.В., Башкатов Б.И., Матаева В.М. Международная статистика. Учебник – М.: Дело и Сервис, 1999.
8. www.euireland.ie
9. www.cec.org.uk
10. www.eurunion.org
11. www.europarl.ie

III bob. ISH KUCHI STATISTIKASI

3.1. Mehnat resurslari balansi

O'tgan asrning 50-yillari oxirida sobiq Ittifoq bo'yicha yillik mehnat resurslari yoki ish kuchi balansi tuzila boshladi. SHu davrda statistik tahlilning asosiy usullaridan biri xalq xo'jaligi rivojlanishini rejalashtirish hudud va tarmoqlar bo'yicha ish kuchini taqsimlash muammosini hal etishda muhim ahamiyat kasb etar edi. Mehnat resurslari balansini Xalqaro Mehnat Tashkiloti ham tan olgan.

Mehnat resurslari balansini tuzishda nafaqat «Mehnat statistikasi» ma'lumotlari, balki boshqa tarmoq statistikasi ma'lumotlaridan ham foydalaniladi. Mehnat resurslari balansi, ish kuchi manbalarini ko'rsatib berish bilan bir qatorda iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha, hududlararo, faoliyat turi, mulkchilikka egalik va hokazolar bo'yicha taqsimlashni ko'rsatib beradi.

Bozor munosabatlariga o'tilishi bilan mehnat statistikasi oldiga qo'yilgan vazifalar doirasi ham kengaydi. SHuningdek, mehnat resurslari balansiga ham o'zgartirishlar kiritildi, shular qatoriga bandlilikning yangi turlari, ko'rinishlarini inobatga olish, yangi ishchi kategoriyalarini (ish beruvchilar, yollanma ishchilar, o'z-o'zicha band bo'lganlar va ishsizlik ko'rsatkichlari va h.k.) e'tiborda tutish lozim bo'lmoqda.

Hozirgi kunda tuzilayotgan mehnat resurslari balansi jadvali quyidagicha:

3.1.1-jadval

Mehnat resurslari balansi jadvali

Ko'rsatkichlar
01.Mehnat resurslari - jami shu jumladan:
02.Mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga qobiliyatli aholi
03.Iqtisodiyotda band bo'lgan qariyalar va o'smirlar ulardan:
04.Qariyalar
05.O'smirlar
Mehnat resurslarining taqsimlanishi:
06.Iqtisodiy faol aholi - jami (07-09) shu jumladan:
07.Iqtisodiyot tarmoqlarida bandlar - hammasi ulardan:
- qishloq va o'rmon xo'jaligi, ovchilik
- baliqchilik;
- tog' - qazilma sanoati va karerlar izlash;
- qayta ishlov beruvchi sanoat;
- elektroenergiya, gaz va suv ta'minoti;
- qurilish;

- ulgurja va chakana savdo: mashina va motosikllar, maishiy tovarlar, shaxsiy gigiena tovarlarini ta'mirlash;
 - mehmonxona va restoranlar;
 - transport, ombor xo'jaligi va aloqa;
 - moliyaviy vositachilik;
 - qo'zg'almas mulk bilan operatsiyalar, ijara va tijorat faoliyati;
 - davlatni boshqarish va mudofaa, majburiy ijtimoiy sug'urta;
 - maorif;
 - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar;
 - boshqa kommunal, ijtimoiy va shaxsiy xizmatlar;
 - xususiy uy xo'jaliklarining yollanma ishchilari ;
 - ekshududiy tashkilotlar va idoralar;
08. Bandlar umumiy sonidan (06 qatordan) qisqartirilgan ish kuni (haftasiga qisman ish haqi bilan yoki umuman uni saqlanmagandan holda o'tkazilgan xodimlar)
09. Ishsizlar
10. Mehnatga layoqatli yoshdagi ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'quvchilar (talabalar, maktab o'quvchilari; tinglovchilar va h.k.)
11. Mehnatga layoqatli yoshdagi uy yumushlari va yosh bolalar tarbiyasi bilan bandlar. **Balans (06 + 10 + 11)** Balansdan tashqari: yoshi bo'yicha va qarovchisini yo'qotganligi uchun
12. Nafaqaxo'rlar
13. Maktab va boshqa o'quv yurtlarining mehnatga layoqatli yoshgacha bo'lgan o'quvchilari
14. Maktabgacha yoshdagi bolalar
15. Nafaqa olmaydigan qariyalar
- Jami iqtisodiy normal aholi (10+11+12+13+14)

3.2. Iqtisodiy faol aholi

Mehnat bozori elementlari va uni statistik o'rganish imkoniyatlari to'g'risida yuqorida bayon etilgan tasavvurlar statistik amaliyotda muvofiq keluvchi statistik tushuncha va toifalar to'plamidan foydalanishni belgilab berdi.

Ishchi kuchining tarkibiy tuzilishini statistik tahlil qilish, mehnat bozorida talab va taklifni bashorat qilish hamda mehnat bo'yicha ma'lumotlarni xalqaro qiyoslashda XV mehnat statistikalari Xalqaro konferensiyasi qabul qilgan «Bandlik maqomining xalqaro tasnifi» (inglizcha versiyasi ICSE - 93, o'zbekcha versiyasi BMXT - 93) muhim ahamiyat kasb etadi. Aytib o'tilgan klassifikatordan foydalanish statistik amaliyotga bandlik turlari bo'yicha iqtisodiy faol aholining quyidagi toifalarini kiritishni nazarda tutadi.

Iqtisodiy faol aholi – tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun (bunga tovarlarni bozor, barter va shaxsiy iste'mol uchun ishlab chiqarish ham kiritiladi) o'z mehnatini taklif qiladigan har ikkala jinsga mansub shaxslardir. Xalqaro

standartlarga ko'ra, iqtisodiy faol aholiga band bo'lgan barcha aholi va ishsizlar kiritiladi. Bunda aholi harbiy xizmatchilar ham qo'shilgan holda iqtisodiy faol aholi va faqat fuqarolardan iborat iqtisodiy faol aholiga (ya'ni harbiy xizmatchilarsiz) ajratiladi.

Ko'pincha "iqtisodiy faol aholi" tushunchasi o'rnida "ishchi kuchi" va "mehnat resurslari" tushunchalari ishlatiladi. Ammo shuni nazarda tutish kerakki, "mehnat resurslari" toifasi yuqorida aytilgan toifalardan faqat "bandlar" va "ishsizlar"ningina emas, balki mehnatga layoqatli aholining mehnatga layoqatli yoshdagi o'quvchilar, uy bekalari, har xil sabablarga ko'ra iqtisodiy faol aholi hisoblanmaydigan mehnatga layoqatli boshqa shaxslarni qamrab olishi tufayli farqlanadi.

BMXT - 93 alohida shaxslarni haqiqiy yoki potensial bandlikka ko'ra tasniflaydi. Bunda band bo'lgan shaxslar maqomini ular haqiqiy bajarayotgan ishlari asosida, ishsizlarnikini esa ular oxirgi bajargan ishlari (agar ular ishlagan bo'lsalar) yoki ular izlayotgan ish turi asosida aniqlash kerak bo'ladi.

Quyidagi guruhlarini farqlash tavsiya etiladi:

1. YOllanma xodimlar.
2. Ish beruvchilar.
3. O'z hisobiga ishlaydigan shaxslar.
4. Ishlab chiqarish shirkatlari a'zolari.
5. YOrdam beruvchi oila a'zolari.
6. Maqom bo'yicha tasniflanmaydigan xodimlar.

YOllanma xodimlar. Ishlovchilarning eng ko'p sonli guruhi bo'lib, u mehnat shart-sharoitlari va unga haq to'lash to'g'risida har qanday mulkchilik shaklidagi korxonalar yoki alohida shaxs bilan mehnat shartnomasi (kontrakt, bitim) tuzgan shaxslarni o'z ichiga oladi.

Bu guruhni tashkil etuvchilar sifatida BMXT - 93 quyidagi kichik guruhlarini ajratadi:

- muddati qat'iy belgilangan doimiy yollanma ishchilar;
- muddatsiz mehnat bitimiga ega doimiy yollanma ishchilar;
- tasodifiy xodimlar;
- qisqa davrga qabul qilingan xodimlar;
- mavsumiy xodimlar;
- kasanachilar;
- pudratchilar;
- bir korxona bilan mehnat shartnomasiga ega bo'lgan, ammo ishni boshqa korxonada bajaradigan xodimlar;
- artel a'zolari, (bular qatoriga butun guruhi bilan ishga qabul qilinadigan, bunda yollayotgan tashkilot shartnomani har bir alohida xodim bilan emas, balki artel rahbari yoki vositachi bilan tuzadigan guruh xodimlari kiritiladi).

Ish beruvchilar. Bu guruhga mustaqil yoki bir yoki bir necha sheriklar bilan birga ishlab, doimo "yollanma ishchi" sifatida bir yoki bir necha xodimlarni yollaydigan xodimlar kiritiladi.

O'z hisobiga ishlaydigan shaxslar. Bu guruhga qoidaga ko'ra, mustaqil yoki sheriklar bilan ishlaydigan va doimiy asosda hech qanday yollanma ishchilarni yollamaydigan shaxslar kiritiladi.

Ishlab chiqarish shirkatlari a'zolari. Bu guruhga shirkatlarning faol (ishlaydigan a'zolari hisoblanadigan shaxslar kiritiladi. Bunda har bir a'zo ishlab chiqarishni tashkil qilish, mahsulotlarni sotish, korxona daromadlarini shirkat a'zolari o'rtasida taqsimlashga aloqador masalalarni boshqalar bilan teng huquqlarda hal qiladi. Ishlab chiqarish shirkatlarida yollanma ishchilar bu guruhga kiritilmasligi alohida aytib o'tiladi.

Oilaning yordam beruvchi a'zolari. Oilaviy korxonalar (biznes)da faoliyatni shu uy xo'jaligida yashovchi qarindosh boshqaradigan shaxslar oilaning yordam beruvchi a'zolari hisoblanadi. Bunda ularni sheriklar sifatida ta'riflab bo'lmaydi, chunki ularning korxona faoliyatidagi ishtiroklari ish vaqti va boshqa omillar nuqtai nazaridan turlichadir.

Bandlik maqomi bo'yicha tasniflanmaydigan xodimlar. Bu guruhga ilgari daromad keltiradigan mehnat faoliyati bilan band bo'lmagan ishsizlar va zarur axborotning etarli emasligi yoki qandaydir boshqa sabablar tufayli yuqorida aytib o'tilgan guruhlardan birortasiga ham kiritish mumkin bo'lmagan shaxslar kiritiladi.

3.2.1-jadval

Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan aholi soni

	Ming kishi		Jamiga nisbatan %da	
	2003 y.	2004 y.	2003 y.	2004 y.
Jami iqtisodiyotda band bo'lganlar	9589,0	9910,6	100	100
SHu jumladan tarmoqlarda:				
Sanoat	1223,3	1283,9	12,8	13,0
qishloq va o'rmon xo'jaligi	3063,0	3067,6	31,9	31,0
qurilish	763,3	808,1	8,0	8,2
Transport va aloqa	432,8	461,0	4,5	4,6
Savdo, umumiy ovqatlanish, tayyorlov idoralarida	815,0	857,6	8,5	8,7
Uy joy komunal va aholiga maishiy xizmat ko'rsatish	285,4	301,1	3,0	3,0
Sog'lio'ni saqlash, sport va ijtimoiy ta'minot sohalarida	654,4	689,0	6,8	6,9
Ta'lim, ma'daniyat san'at, fan va ilm sohalarida	1257,4	1321,0	13,1	13,3
Moliya, kredit va sug'urta	50,4	52,8	0,5	0,5
Boshqa tarmoqlar	1044,0	1068,5	10,9	10,8

Manba: O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharx 2004 yil. №8 mart 2005.

Band aholi - iqtisodiy faol aholining bir qismi bo'lib:

- ish xaqi yoki daromadning boshqa turi uchun yollanma ishni (bir soat bo'lsa ham) bajargan yoki korxona bilan rasmiy aloqani saqlab qolgan;

- oilaviy korxonada haq olmay ish (bir soat bo'lsa ham) bajargan;
- kasallik, mehnat ta'tili (homiladorlik va tug'ish hamda bolaga qarash bo'yicha ta'tillarni ham qo'shgan holda), ish tashlashlar, ob-havo shart-sharoitlari va shu kabilar tufayli ishda vaqtincha yo'q bo'lgan, ammo ular yo'qligida ularga ish haqi yozilgan - yozilmaganligi va ular bu vaqtda yangi ish izlagan - izlamaganliklaridan qat'inazar, korxona bilan rasmiy aloqani saqlab qolgan bo'ladi.

SHunday qilib, bandlar sonida: davlat korxona va tashkilotlarida; barcha turdagi shirkatlarda; xususiy korxonalar va aralash mulkchilik shaklidagi korxonalarda; fermer xo'jaliklarida ishlab turgan, shuningdek, o'z yordamchi xo'jaligida va ayrim shaxslarda yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan band bo'lgan shaxslar hisobga olinadi.

Ishsizlar - mamlakat milliy qonunchiligida mehnatga layoqatli yoshning quyi chegarasi sifatida qabul qilingan ma'lum yoshga etgan, ko'rib chiqilayotgan davrda:

- ishga (daromadli mashg'ulotga) ega bo'lmagan;
- darhol yoki milliy qonunchilikda belgilangan davr mobaynida ishga kirishishga tayyor bo'lgan;
- ish izlab yurgan shaxslardir.

Quyidagilar ish izlashning haqiqiy belgilari hisoblanadi: davlat va xususiy ishga joylashtirish byurosida ro'yxatdan o'tish; ish beruvchilar, korxonalar ma'muriyatiga bevosita murojaat qilish; matbuotda e'lon berish; shaxsiy aloqa va shu kabilardan foydalanish, shuningdek, o'z ishini tashkil etish (lisenziya olish, er, bino, mashina, asbob-uskunalar va boshqalarni olish)ga urinishlar.

Ishsizlar toifasiga kiritishda yuqorida keltirilgan uchta mezonning hammasiga rioya qilinishi kerak. Mehnat bozorining infratuzilmasi rivojlanmagan holatlarda, dastlabki ikki mezon bilan chegaralaniladi. Ish izlayotgan va ishga tushishga tayyor bo'lgan o'quvchilar, talabalar, nafaqaxo'r va nogironlar, agar ular ishsizlar umumiy sonini aniqlashda hisobga olingan bo'lsa, imkoni boricha alohida ajratiladi.

Iqtisodiy nafaol aholi - ishchi kuchi tarkibiga, ya'ni bandlar va ishsizlar qatoriga kirmaydigan, tekshirilayotgan yoshdagi aholi. Aholining bu guruhiga: bolalar, o'quvchilar, uy bekalar, ishlayotgan nafaqaxo'rlar va turli sabablarga ko'ra ishlayotgan aholi kiritiladi.

Xalqaro standartlarda "iqtisodiy faol aholi" atamasi uni aniqlovchi ikki o'lchovni – bu, odatda, faol aholi, vaqtiga ko'ra davomli davrga (qoidaga ko'ra, yilga) tatbiqan va joriy faol aholi yoki aynan, ishchi kuchi, qisqa vaqt bo'lagiga (kun yoki haftaga) tatbiqan nazarda tutuvchi o'xshash tushuncha sifatida ishlatiladi.

Turli mamlakatlarda iqtisodiy faol aholi sonini aniqlashda uning tarkibida quyidagi guruhlarni hisobga olish munosabatida farqlar bor: harbiy xizmatchilar; davlat muassasalarida saqlanayotgan shaxslar (masalan, qamalganlar); rezervasiyalarda yashovchi shaxslar; birinchi bor ish izlayotgan shaxslar;

6.3. Mehnat unumdorligi dinamikasi

Savol: Dinamika deganda nimani tushunasiz?

Javob: Xodisalarni o'zgarishi.

Javob: Mehnat unumdorligini o'zgarishi.

Javob: Xodisalarni ketma-ket kelishi.

O'qituvchi javoblarga quyidagicha umumlashtiradi:

Vaqt o'zgarishi bilan xodisalarni o'zgarishi dinamika deyiladi.

Mehnati unumdorligi dinamikasi indekslar yordamida o'rganiladi. Indeks lar individual va umumiy bo'lib o'rganiladi. Bir turdagi mahsulot ishlab chiqarilganda individual mehnat unumdorligi indekslaridan foydalaniladi:

$$i_w = \frac{W_1}{W_0} = \frac{q_1}{T_1} \cdot \frac{q_0}{T_0}$$

Bunda: W_1 va W_0 - mehnat unumdorligi bazis va joriy darajalari.

Bu mehnat unumdorligini to'g'ri ko'rsatkichi yordamida tuzilgan indeks hisobot davrida bazis davrga qaraganda qay darajada mehnat unumdorligi o'zgarishini ko'rsatib beradi.

Indeks lar orasidagi bog'liqlik

Xodisalar orasidagi bog'liqlik

$$\underset{\text{mahsulot hajmi}}{q} \times \underset{\text{baho}}{p} = \underset{\text{qiymat}}{q p}$$

SHu bog'liqlik indekslarda ham saqlanib qoladi.

$$\underset{\text{mahsulot hajmi o'zgarishi}}{i_q} \times \underset{\text{baho o'zgarishi}}{i_p} = \underset{\text{qiymat o'zgarishi}}{i_{q p}}$$

Xarid qilingan mahsulot qiymati 10 % oshgan bo'lsa, baho 8 % oshgan bo'lsa, mahsulot fizik hajmi qanchaga o'zgaragan.

Echim: $i_{qp}q_{1,1}$; $i_pq_{1,08}$; demak, $i_qq(i_{qp}/i_p)q_{1,1/1,08}q_{1,019} \times 100 \approx 101,9\%$
 Mahsulot fizik hajmi 1,9 % ga oshgan.

Bu indeksni teskari ko'rsatkich yordamida mehnat talabi bo'yicha ham tuzish mumkin, lekin shuni inobatga olish kerakki, mehnat talabi t , to'g'ri ko'rsatkichi vaqt birligida ishlab chiqarish W ko'rsatkichi bilan teskari bog'liqlikda bo'lganligi sababli, bu indeks ham teskari tuziladi, ya'ni:

$$i_w = \frac{t_0}{t_1} = \frac{T_0}{q_0} : \frac{T_1}{q_1}$$

bu ko'rsatkichning to'g'ri nisbatini ham olish mumkin $\frac{t_1}{t_0}$, lekin bu holda chiqqan natija qay darajada mehnat talabi o'zgarganligini aks ettiradi, ya'ni:

$$i_t = \frac{t_1}{t_0} = \frac{T_1}{q_1} : \frac{T_0}{q_0}$$

Demak, bu indekslar orasida ham teskari bog'liqlik mavjud.

$$i_w = \frac{1}{i_t}$$

Bir xil turdagi mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalar, birlashma bo'yicha umumiy mehnat unumdorligi natural indeksi hisoblanadi:

$$I_{\bar{w}} = \frac{\bar{W}_1}{\bar{W}_0} = \frac{\sum q_1}{\sum T_1} : \frac{\sum q_0}{\sum T_0}$$

Bu erda hisobot davridagi mehnat unumdorligining o'rtacha darajasi bazis davridagi mehnat unumdorligining o'rtacha darajasi bilan qiyoslanadi.

Bir turdagi iste'mol qiymatiga ega bo'lgan, lekin ayrim parametrlar bilan farqlanadigan mahsulot ishlab chiqarish korxonalari bo'yicha mehnat unumdorligi dinamikasi o'zgarishi shartli-natura indeksi yordamida o'rganiladi:

$$I_{\bar{w}} = \frac{\bar{W}_1}{\bar{W}_0} = \frac{\sum q_1^k}{\sum T_1} : \frac{\sum q_0^k}{\sum T_0}$$

Natura va shartli natura-shakldagi indekslarning afzalligi shundaki, ular eng avval jonli mehnat unumdorligi dinamikasini ifodalaydi. Bundan tashqari, mahsulotni o'lchashning natura va shartli natura-shakldagi indekslarining o'tgan asr 50-yillari birliklarini qo'llash, bu indekslarni hisoblash va bir xil mahsulot turlari bo'yicha belgilangan turli korxona, mintaqa va mamlakatdagi mehnat unumdorligi darajasini qiyoslash jarayonlarini soddalashtiradi. SHu bilan birga, mahsulotning natura va shartli-natura shaklidagi ko'rsatkichlaridan foydalanish mehnat unumdorligining natura va shartli-natura shaklidagi indekslarni qo'llash sohasini jiddiy cheklaydi; ular orasida alohida korxonalarda, iqtisodiyot tarmoqlarida va butun mamlakat iqtisodiyotida unumdorlik dinamikasini o'rganish deyarli mumkin emas:

$$i_w = \frac{t_0}{t_1} = \frac{T_0}{q_0} : \frac{T_1}{q_1}$$

YUqorida ko'rilgan indekslar o'zgaruvchan tarkibli indekslardir, chunki bu indekslarga ikki omil ta'sir ko'rsatadi:

1. Mehnat unumdorligi darajasining o'zgarishi (W).
2. Sarf qilingan ish vaqti salmog'ining o'zgarishi ($\frac{T}{\sum T}$)

o'zgaruvchan tarkibli mehnat unumdorligi o'zgarganligini ifodalaydi.

Bu o'zgarishning har bir omili ta'sirini alohida o'rganish maqsadida indekslar quyidagilarga bo'linadi:

Doimiy tarkibli mehnat unumdorligi indeksi (Strumilin usuli):

$$I_{\bar{W}} = \frac{\sum i_w T_1}{\sum T_1} = \frac{\sum (\frac{q_1}{T_1} : \frac{q_0}{T_0}) T_1}{\sum T_1}$$

Bu indeks faqat mehnat unumdorligi darajasi o'zgarishini aks ettiradi.

Ikkinchi omil, ya'ni sarf qilingan ish vaqti salmog'i o'zgarishi natijasida qay darajada mehnat unumdorligi o'zgarganligini aks ettiradi:

$$I_{w(dT)} = I_{\bar{W}} : \bar{I}_w$$

Namunaviy masala.

Ikki brigada bo'yicha terilgan paxta va terimchilar haqida quyidagi ma'lumotlar berilgan.

Brigadalar bo'yicha terilgan paxta va terimchilar haqida ma'lumotlar

	Sentyabr		Oktyabr	
Brigadalar	Terilgan paxta, kg	O'rtacha terimchilar soni, kishi	Terilgan paxta, kg	O'rtacha terimchilar soni, kishi
	q_0	T_0	q_1	T_1
1	75000	50	82000	62
2	100000	60	130000	78

Birinchi brigada bo'yicha mehnat unumdorligi indeksi:

$$i_w = \frac{W_1}{W_0} = \frac{q_1}{T_1} : \frac{q_0}{T_0} = \frac{8200}{62} : \frac{2500}{50} = \frac{1323}{1500} = 0,882 \cdot 100 = 88,2\%,$$

mehnati unumdorligi 11,8% ga kamaygan.

Ikkinchi brigada bo'yicha mehnat unumdorligi indeksi:

$$i_w = \frac{W_1}{W_0} = \frac{q_1}{T_1} \cdot \frac{q_0}{T_0} = \frac{130000}{78} \cdot \frac{100000}{60} = \frac{1667}{1667} = 1 \cdot 100 = 100\%$$

ya'ni, mehnat unumdorligi o'zgarmas.

Ikkala brigada bo'yicha mehnat unumdorligi indeksi:

$$I_w = \frac{\sum q_1}{\sum T_1} \cdot \frac{\sum q_0}{\sum T_0} = \frac{\bar{W}_1}{\bar{W}_0} = \frac{82000+130000}{62+78} \cdot \frac{75000+10000}{50+60} = \frac{212000}{140} \cdot \frac{175000}{110} = 1514,3 : 1590,9 = 0,9518 \cdot 100 = 95,18\%$$

ya'ni, 4,92%ga kamaydi.

Bunday o'zgarishga qanday omil qay darajada ta'sir etganligini o'rganish maqsadida quyidagi hosildor indekslarni hisoblaymiz.

Doimiy tarkibli indeks:

$$\bar{I}_w = \frac{\sum i_w T_1}{\sum T_1} = \frac{0,882 \cdot 62 + 1 \cdot 78}{62 + 78} = \frac{54,7 + 78}{140} = \frac{132,7}{140} = 0,948 \cdot 100 = 94,8\%;$$

faqat o'rtacha mehnat unumdorligi o'zgarishi natijasida umumiy mehnat unumdorligi 5,2 foizga kamaygan.

Tarkibi siljish indeksi:

$$I_{w(d)} = \frac{\bar{I}_w}{\bar{I}_w} = \frac{0,9818}{0,948} = 1,036 \cdot 100 = 103,6\%$$

Ikkinchi brigadada mehnat unumdorligi yuqoriroq bo'lgan, sarf qilingan ish vaqti salmog'i oktyabr oyida sentyabrdagiga nisbatan (55,7 : 54,5) 1,2 punktga oshganligi umumiy mehnat unumdorligining qo'shimcha 3,6% oshishiga sabab bo'lgan.

Turli xil iste'mol qiymati ishlab chiqarilganda yoki iste'mol qiymatlar va xizmatlar bo'yicha umumiy mehnat unumdorligi dinamikasini o'rganish maqsadida, qiymat mehnat unumdorligi indeksidan foydalaniladi:

$$I_{\bar{W}} = \frac{\bar{W}_1}{\bar{W}_0} = \frac{\sum q_1 p}{\sum T_1} \cdot \frac{\sum q_0 p}{\sum T_0}$$

Bu erda, R - o'zgarmas baho.

O'zgarmas baho turli xil iste'mol qiymatlarini umumlashtirish maqsadida «soizmeritel» tariqasida foydalaniladi:

SHunday «soizmeritel» tariqasida t_n – me'yor (norma) bo'yicha mehnat talabchanligidan ham foydalanish mumkin.

$$I_{\bar{W}} = \frac{\sum q_1 t_H}{\sum T_1} \cdot \frac{\sum q_0 t_H}{\sum T_0} = \frac{\bar{W}_1}{\bar{W}_0}$$

Bu indeksga ishlatilgan xomashyo qiymati t'sir ko'rsatmaydi. Vaqt birligida turli xil me'yor soatda ishlab chiqarish bilan farqlanadi:

$$\bar{W} = \frac{\sum q t_H}{\sum T}$$

Bu indeks mehnatni normallashtirish yaxshi tashkil etilgan ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Bunda o'zgaruvchan va doimiy tarkibli mehnat unumdorligining indekslari qiymati, qo'shilgan qiymat bo'yicha ham, sof mahsulot bo'yicha ham aniqlanishi mumkin. Ko'pincha natural, qo'shimcha qiymat mehnat unumdorligi indeksidan korxona yoki firma darajasidagi mehnat unumdorligini tavsiflash, ya'ni qo'shilgan qiymat yoki sof mahsulotdan ayrim tarmoqlar yoki butun iqtisodiyot darajasidagi mehnat unumdorligini tavsiflashda foydalaniladi.

Hozirgi kunda mehnat unumdorligi darajasi, dinamikasini tarmoqlar va butun iqtisodiyot bo'yicha tavsiflashda milliy hisoblar tizimi ma'lumotlaridan keng foydalaniladi. Global yoki total unumdorlik omillari indekslarini aniqlashda quyidagi ko'rsatkichlar, ya'ni sof ichki mahsulot, mehnat sarfi, oraliq iste'mol, asosiy kapital iste'moli va boshqa omillar sarfining dinamik qatorlarini joriy qoida qiyoslanadigan narxlarida oldindan tuzish tavsiya etiladi. Bunda sof ichki mahsulot omillari qiymati bo'yicha baholanadi.

Aytish lozimki, bazis davri uchun omillarning global unumdorligi birga teng, chunki mahsulotning narxlar omili bo'yicha qiymati omillar sarflari yig'indisiga teng. Boshqa davrlar unumdorligining darajalari qiyoslanadigan narxlar omilidagi mahsulot qiymatini omillarning qiyoslanadigan narxlardagi sarflariga bo'lishdan olinadigan natija sifatida aniqlanadi. Bu indekslarni hisoblashni soddalashtirish va har bir omilning yaqqol ta'sirini ko'rish maqsadida yuqoridagi indekslarga o'zgartirish kiritiladi:

1. O'zgaruvchan tarkibli mehnat unumdorligi indeksi:

$$I_{\bar{w}} = \frac{\bar{W}_1}{\bar{W}_0} = \frac{\sum q_1}{\sum T_1} \cdot \frac{\sum q_0}{\sum T_0} = \frac{\sum W_1 T_1}{\sum T_1} \cdot \frac{\sum W_0 T_0}{\sum T_0} = \frac{\sum W_1 d_{T_1}}{\sum d_{T_1}} \cdot \frac{\sum W_0 d_{T_0}}{\sum d_{T_0}} = \frac{\sum W_1 d_{T_1}}{\sum W_0 d_{T_0}}$$

Bu o'zgaruvchilar $W = \frac{q}{T}$. Bundan, $q = W T$.

SHundan kelib chiqadiki,

$$\bar{W}_0 = \frac{\sum W_0 T_0}{\sum T_0} \quad \bar{W}_1 = \frac{\sum W_1 T_1}{\sum T_1}, \text{ bu o'rtacha tortilgan arifmetik usul.}$$

O'rtachaning ayrim matematik xususiyatlaridan biri shundan iboratki, agar «soizmeritel» qandaydir bir xil doimiy songa ko'paytirilib yoki bo'linsa o'rtacha miqdor o'zgarmaydi.

SHuning uchun T-uning salmog'i tenglashtirilib olinadi.

Bu erda, birinchi omil (W_0 va W_1);

ikkinchi omil (d_{T_0} va d_{T_1}).

Birinchi omil ta'sirini o'rganish uchun ikkinchi omil o'zgarmas tarkibda olinadi. Doimiy tarkibli indeks:

$$I_w = \frac{\sum W_1 T_1}{\sum T_1} \cdot \frac{\sum W_0 T_1}{\sum T_1} = \frac{\sum W_1 T_1}{\sum W T_1} = \frac{\sum W_1 d_{T_1}}{\sum W_0 d_{T_0}}$$

Ikkinchi omilning ta'sirini o'rganish uchun birinchi omil o'zgarmas holda olinadi. Tarkibiy siljish indeksi:

$$I_w(dT) = \frac{\sum W_0 T_1}{\sum T_1} : \frac{\sum W_0 T_0}{\sum T_0} = \frac{\sum W_0 dT_1}{\sum dT_1} : \frac{\sum W_0 dT_0}{\sum dT_0} = \frac{\sum W_0 dT_1}{\sum W_0 dT_0}$$

Doimiy tarkibli va tarkibi siljish indeksleri o'zgaruvchan tarkibli indeksni hosilalari bo'lganligi uchun, ular orasida quyidagi bog'liqlik mavjud:

Namunaviy misol.

Ikki ko'mir koni bo'yicha quyidagi ma'lumotlarga asosan, mehnat unumdorligini o'zgaruvchan, doimiy va tarkibiy siljish indekslarini hisoblang:

	Bazis davrda		Joriy davrda	
Ko'mir koni	Qazilgan qo'mir (tonna)	O'rtacha ro'yxatdagi xodimlar soni, (kishi)	Qazilgan qo'mir (tonna)	O'rtacha ro'yxatdagi xodimlar soni, (kishi)
	q_0	T_0	q_1	T_1
1	2000	500	16400	400
2	27500	550	4200	700

1) Mehnat unumdorligi darajalari:

1-Ko'mir koni

$$W_0 = \frac{q_0}{T_0} = \frac{2000}{500} = 4 \text{ t.} \quad W_1 = \frac{q_1}{T_1} = \frac{16400}{400} = 41 \text{ t.}$$

2-Ko'mir koni

$$W_0 = \frac{q_0}{T_0} = \frac{27500}{550} = 50 \text{ t.} \quad W_1 = \frac{q_1}{T_1} = \frac{42000}{700} = 60 \text{ t.}$$

2) Sarf qilingan vaqt tarkibi.

1-Ko'mir koni

$$d_{T_0} = \frac{T_0}{\sum T_0} = \frac{500}{1050} = 0,476 \quad d_{T_1} = \frac{400}{1100} = 0,364$$

2-Ko'mir koni

$$d_{T_0} = \frac{T_0}{\sum T_0} = \frac{550}{1050} = 0,524 \quad d_{T_1} = \frac{700}{1100} = 0,636$$

Ko'mir koni	Mehnat unumdorligi darajasi (t)		Sarf etilgan ish vaqtining tarkibi	
	W_0	W_1	dT_0	dT_1
1	4	4,1	0,476	0,364
2	5	6	0,524	0,636

Mehnat unumdorligi:

Birinchi ko'mir koni bo'yicha mehnat unumdorligi:

$$i_m = \frac{m_i}{m_0} = \frac{4,1}{4,0} = 1,025 \cdot 100 = 102,5\%$$

Ikkinchi ko'mir koni bo'yicha mehnat unumdorligi:

$$i_m = \frac{m_i}{m_0} = \frac{5}{6} = 1,2 \cdot 100 = 120\%$$

a) O'zgaruvchan tarkibli mehnat unumdorligi indeksi:

$$I_w = \frac{\sum W_i d_{T1}}{\sum W_i d_{T0}} = \frac{4,1 \cdot 0,364 + 6 \cdot 0,636}{4 \cdot 0,476 + 5 \cdot 0,524} = \frac{5,3084}{4,524} = 1,173 \cdot 100 = 117,5\%$$

$$I_{w(dT)} = \frac{\sum W_i d_{T1}}{\sum W_i d_{T0}} = \frac{4 \cdot 0,364 + 5 \cdot 0,636}{4 \cdot 0,476 + 5 \cdot 0,524} = \frac{4,636}{4,524} = 1,025 \cdot 100 = 102,5\%$$

b) Doimiy tarkibli mehnat unumdorligi indeksi:

$$I_w = \frac{\sum W_i d_{T1}}{\sum W_i d_{T0}} = \frac{4,1 \cdot 0,364 + 6 \cdot 0,636}{4 \cdot 0,476 + 5 \cdot 0,636} = \frac{5,3084}{4,636} = 1,145 \cdot 100 = 114,5\%$$

Tarkibiy siljish indeksi:

$$I_{w(dT)} = \frac{\sum W_i d_{T1}}{\sum W_i d_{T0}} = \frac{4 \cdot 0,364 + 5 \cdot 0,636}{4 \cdot 0,476 + 5 \cdot 0,524} = \frac{4,636}{4,524} = 1,025 \cdot 100 = 102,5\%$$

$$I_{\bar{w}} = I_{\bar{w}} / \bar{I}_{w(dT)}$$

YUqorida ko'rib chiqilgan turli xil usulda hisoblangan doimiy tarkibli indekslar natijalari turli xil bo'ladi:

$$\bar{I}_w = \frac{\sum i_w T_1}{\sum T_1} = \frac{\sum \frac{t_0}{t_1}}{\sum t_1 q_1} = \frac{\sum t_0 q_1}{\sum t_1 q_1} = \frac{\sum t_0 dq_1}{\sum t_1 dq_1}$$
$$\bar{I}_w = \frac{\sum W_1 d_{T1}}{\sum W_0 d_{T0}}$$

Bu ikkala usulda hisoblangan indekslarga indekslashtirilayotgan ko'rsatkich turli xil o'zgarmas «soizmeritel»da olingan.

Birinchi indeksga o'zgarmas mahsulot salmog'i (dq);

ikkinchi indeksga o'zgarmas sarf qilingan vaqt salmog'i (dT).

Tarkibiy siljish indeksleri ham shu ikki usulda yuqorida ko'rilgan sababga ko'ra turlicha bo'ladi. Har xil sarf birliklariga nisbatan hisoblangan mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik. Mehnat sarfi birligi kishi/soat, kishi/kun, kishi/oy va kishi/yil demakdir. Demak, mehnat unumdorligi darajasi: o'rtacha soatlik, o'rtacha kunlik, o'rtacha oylik, o'rtacha yillik va hokazo bo'lishi mumkin.

Mehnat unumdorligini bir qancha mehnat sarfi birliklariga hisoblash, mehnat unumdorligini o'rganish jarayonini boyitadi va mehnat unumdorligining o'zgarishiga ish vaqtidan foydalanish darajasi ta'sirini ko'rsatib beradi.

Mehnat unumdorligi indekslarini mehnat talabchanligi yordamida o'rganish.

YUqorida aytilgadek, mehnat unumdorligi darajasi to'g'ri $W = q/T$ va teskari ko'rsatkichlari $t = T/q$ yordamida (mehnat talabchanligi) tuziladi. To'g'ri ko'rsatkich yordamida tuzilgan indekslarni ko'rib chiqdik. Endi esa teskari ko'rsatkichlardan foydalanamiz.

$I_m = t_0/t_1$ - individual mehnat unumdorligi indeksi.

Umumiy o'zgaruvchan tarkibli mehnat unumdorligi indeksi:

$$I_m = \frac{i_0}{i_1} = \frac{\sum T_0}{\sum q_0} : \frac{\sum T_1}{\sum q_1} = \frac{\sum t_0 q_0}{\sum q_0} : \frac{\sum t_1 q_1}{\sum q_1} = \frac{\sum t_0 dq_0}{\sum dq_0} : \frac{\sum t_1 dq_1}{\sum dq_1}$$

Bu erda $\sum d_{q_0} = \sum d_{q_1} = 1$

Mehnat unumdorligini doimiy tarkibli indeksi:

$$\bar{I}_W = \frac{\sum t_0 d_0}{\sum t_1 d_{q_1}} = \frac{\sum t_0 d_{q_1}}{\sum t_1 d_{q_1}}$$

Bu formula yordamida mehnat unumdorligi o'sishi natijasida qilingan vaqt tejami.

$$\text{yoki } \Delta = \sum t_1 q_1 - \sum t_0 q_1 = \sum (t_1 - t_0) q_1$$

$$\text{yoki } \bar{I}_W = \frac{\sum t_0 q_1}{\sum q_1} : \frac{\sum t_1 q_1}{\sum q_1} = \frac{\sum t_0 dq_1}{\sum dq_1} : \frac{\sum t_1 dq_1}{\sum dq_1} = \frac{\sum t_0 dq_1}{\sum t_1 dq_1}$$

mehnat unumdorligi o'zgarishiga ishlab chiqarilgan mahsulot salsog'i o'zgarishini (o'zgarmas mehnat talabchanligida) ta'siri:

$$I_{W(dq)} = \frac{\sum t_0 d_{q_0}}{\sum t_0 d_{q_1}}$$

Namunaviy misol.

Tikuv fabrikasida ishlab chiqarilgan mahsulot va sarf etilgan ish vaqti haqidagi ma'lumotlarga asosan, mehnat unumdorligini o'zgaruvchan, doimiy ta'siri indekslarini hisoblang:

Mahsulot turlari	Ishlab chiqarilgan, dona		Bir mahsulotga sarf etilgan ish vaqti kishi/soat	
	1-chorak	2-chorak	1-chorak	2-chorak
	q_0	q_1	t_0	t_1
Ko'ylak	3000	3400	6	5
Kostyum	4000	4600	8	7

Har bir mahsulot turi bo'yicha mehnat unumdorligi indekslari:

$$i_w = \frac{\sum t_0 q}{\sum q} : \frac{\sum t_1 q_1}{\sum q_1} = \frac{3000 \cdot 6 + 4000 \cdot 8}{7000} : \frac{3400 \cdot 5 + 4600 \cdot 7}{8000} = \frac{5000}{7000} : \frac{49200}{8000}$$

$$i_w = \frac{(\sum t_0 q_0)}{(\sum t_1 q_1)} = \frac{(3000 \cdot 6 + 4000 \cdot 8)}{3400 \cdot 5 + 4600 \cdot 7} = \frac{18000 + 32000}{17000 + 32200} = \frac{50000}{49200} = 1,0162 \cdot 100\% = 101,62\%$$

Mehnat talabchanligining pasayishi natijasida (ikkala mahsulot turi bo'yicha ham 1 k/soat) va ishlab chiqarilgan mahsulot tarkibi o'zgarishi natijasi. Umumiy olingan vaqt tejami.

$$\dot{Y}_{T(W)} = \sum t_0 q_0 - \sum t_1 q_1 = 50000 - 49200 = 800 \text{ k/s}$$

yoki ikkinchi omilni ya'ni ishlab chiqarilgan mahsulot tarkibiy o'zgarishi ta'sirini qurish maqsadida qo'shimcha ishlov berilsa.

Mahsulot turlari	dq_0	dq_1	t_0	t_1
Ko'ylak	0,4286	0,425	6	5
Kostyum	0,5714	0,575	8	7

$$d_q = \frac{q}{\sum q}$$

$$I_w = \frac{\sum q_1}{\sum t_1} : \frac{\sum q_0}{\sum t_0} = \frac{\sum W_1 dt_1}{\sum t_1 dq_1} = \frac{6 \cdot 0,4286 + 8 \cdot 0,5714}{5 \cdot 0,425 + 7 \cdot 0,575} = \frac{7,1428}{6,13} = 1,162 \cdot 100\% = 116,2\%$$

YA'ni o'zgaruvchan tarkibli indekslar 3 usulda hisoblansa ham, bir xil natija beradi.

$$\bar{I}_w = \frac{\sum i_w T_1}{\sum T_1} = \frac{\sum (\frac{t_0}{t_1}) T_1}{\sum T_1} = \frac{\sum (\frac{t_0}{t_1} \cdot t_1 q_1)}{\sum T_1} = \frac{\sum t_0 q_1}{\sum T_1} = \frac{\sum t_0 q_1}{\sum t_1 q_1} = \frac{\sum t_0 dq_1}{\sum t_1 dq_1} = \frac{\sum W_1 d_{T_1}}{\sum W_0 d_{T_1}} = \frac{\sum t_0 dq_1}{\sum t_1 dq_1}$$

$$\frac{\sum W_1 d_{T_1}}{\sum W_0 d_{T_1}} = \frac{\sum t_0 dq_1}{\sum t_1 dq_1} = \frac{6 \cdot 0,425 + 8 \cdot 0,575}{5 \cdot 0,425 + 7 \cdot 0,575} = \frac{7,15}{6,15} = 1,1626 \cdot 100 = 116,26\%$$

Mahsulot hajmi o'zgarishiga sarf qilingan ish vaqti mehnat unumdorligi ta'sirini aniqlash.

YUqorida aytilganidek mehnat unumdorligi darajasi ikki ko'rsatkichga nisbatan hisoblanadi, ya'ni, $W = d / T$

q – mahsulot hajmi;

T – sarf qilingan ish vaqti.

Demak, mehnat unumdorligiga ikkala omil ta'sir ko'rsatadi. Mana shu omillarning ta'siri mutlaq miqdorda quyidagicha hisoblanadi.

$$Q = Q_1 - Q_0$$

$$Q_{(W)} = (W_1 - W_0) \cdot T_1$$

$$Q_{(T)} = (T_1 - T_0) \cdot W_0$$

$$Q = Q_m - Q_m$$

Namunaviy misol.

Quyidagi ma'lumotlar berilgan:

Ko'rsatkichlar	Davr		Indeks
		Jami	
1. Mahsulot hajmi, ming so'm	300	385	1,25
2. Sarf qilingan ish vaqti (kishi/kun)	100	110	1,1
3. Kunlik mehnat unumdorligi, ming so'm	3	3,5	1,17

Mahsulot hajmi o'zgarishiga, ya'ni, $\Delta_Q = Q_1 - Q_0 = 385 - 300 = 85$ ming so'm oshishini ikki omil ta'sir ko'rsatgan.

a) ekstensiv omil, ya'ni, sarf qilingan ish vaqti o'zgarishi ta'siri.

$$\Delta_{Q(T)} = (T_1 - T_0) \cdot W_0 = 110 - 100 = \frac{300}{100} = 30 \text{ ming so'm.}$$

b) intensiv omil, ya'ni, mehnat unumdorligi o'zgarishining ta'siri.

$$\Delta_{Q(W)} = (W_1 - W_0) \cdot T_1 = \left(\frac{385}{110} - \frac{300}{100} \right) \cdot 110 = 55 \text{ ming so'm.}$$

Demak, $\Delta_Q = \Delta_{Q(T)} + \Delta_{Q(W)} = 30 + 55 = 85$ ming so'm.

Qisqacha xulosalar

Mehnat unumdorligi darajasi ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi eng muhim ko'rsatkich hisoblanadi, u to'g'ri va teskari ko'rsatkichlar yordamida baholanadi. To'g'ri mehnat unumdorligi ko'rsatkichi – vaqt birligida ishlab chiqargan mahsulot miqdorini ifodalaydi. Teskari mehnat unumdorligi ko'rsatkichi, mehnat talabchanligi – mahsulot birligiga sarf etilgan ish vaqti birligini ifodalaydi. Bu ko'rsatkichlar orasida teskari bog'liqlik mavjud.

Mehnat unumdorligi darajasini o'rganish muammosi, iqtisodchi-statistiklar orasida diskussiya hisoblanib, juda ko'p fikr va mulohazalar bildirilmoqda. G'arb statistikasida unumdorlik ko'rsatkichlari tizimi ishlab chiqarish nazariyasi asosida tashkil etiladi va bu nazariyaga ko'ra mehnat unumdorligi, unumdorlikning xususiy ko'rsatkichi sifatida qaraladi, chunki sarflangan jonli mehnat, faqat ishlab chiqarish omillaridan biri sifatida qaralib, texnik taraqqiyot etishi sari uning ahamiyati kamayib boradi va shuning uchun mahsulot yaratishda ishtirok etadigan ishlab chiqarish omillarini ham hisobga olish lozim.

Xalqaro statistikada unumdorlik hisob-kitobida, mahsulot ko'rsatkichi sifatida yalpi mahsulot ishlab chiqarish, pirovard mahsulot, sof mahsulot, yalpi qo'shilgan qiymat, sof qo'shilgan qiymat ko'rsatkichlaridan foydalanish mumkinligi ko'riladi. Mehnat unumdorligi dinamikasi indeks usuli yordamida o'rganilib, bu usul nafaqat mehnat unumdorligi o'zgarishini ko'rsatib, balki turli xil omillar ta'sirini ham aks ettiradi. Mehnat unumdorligi bozor sharoitida natijaviy ko'rsatkichni oshirishning asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Mehnat unumdorligini xalq xo'jaligi rivojlanishida tutgan o'rni.
2. Mehnat unumdorligi darajasini hisoblash usullari.
3. Unumdorlikni o'rganish bugungi kun diskussion muammolari.
4. Unumdorlikni baholashda qo'llaniladigan natijaviy ko'rsatkichlar.
5. Mehnat unumdorligi dinamikasini o'rganish.
6. O'zgaruvchan tarkibli indekslarni hisoblash usullari.
7. Doimiy tarkibli indekslarni hisoblash usullari va ular orasidagi farq.
8. Tarkib siljishli indekslarni hisoblash usullari va ular orasidagi farq.

Asosiy adabiyotlar

1. Akbarova Z. Mehnat bozori statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent, 2004.
2. Под ред. С.Д.Ильенковой. Микроэкономическая статистика. Учебник. – М., 2004 г.
3. В.Г.Минашкин, О.Л.Козарезова. Основы теории статистики. – М., 2004 г.
4. Р.А.Шмойлова и др. Практикум по теории статистики. Учебной пособие. – М., 2004 г.
5. Р.А.Шмойлова и др. Теория статистики. Учебник. – М., 2004 г.
6. Башкатов Б.И., Карпухина Г.Ю. Международная статистика труда. Учебник. – М.: Дело и Сервис, 2001.
7. Сиденко А.В., Башкатов Б.И., Матаева В.М. Международная статистика. Учебник – М.: Дело и Сервис, 1999.
8. Башкатов Б.И., Карпухина Г.Ю. Международная статистика труда. Учебник. – М.: Дело и Сервис, 2001.
9. Сиденко А.В., Башкатов Б.И., Матаева В.М. Международная статистика. Учебник – М.: Дело и Сервис, 1999.
10. www.euireland.ie
11. www.cec.org.uk
12. www.eurunion.org
13. www.europarl.ie

VII bob. ISHCHI KUCHI QIYMATI STATISTIKASI

7.1. Ishchi kuchining qiymati tushunchasi va uning ko'rsatkichlari tizimi

Xalqaro mehnat bozori statistikasida markaziy o'rinni egallovchi ishchi kuchi qiymatining ko'rsatkichi geografik, tarmoq va kasbiy (professional) jihatlarida ishchi kuchining harakatchanligi (moyilligi)ga ta'sir etishda muhim ahamiyatga ega ekanligi sababli ishchi kuchining talab va taklifi nisbatiga, shuningdek, mehnat bozorida shakllanadigan vaziyatga bevosita bog'liq bo'ladi. "Ishchi kuchi qiymati" kategoriyasi faqat bozor iqtisodiyoti sharoitlarida mavjud bo'ladi. Markaziy rejalashtiriladigan iqtisodiyotda bu kategoriya o'rnida faqat mehnat haqi ko'rsatkichidan foydalanilgan. Sababi shundaki, mehnatga haq to'lash ish haqini belgilashning markazlashgan tizimi bo'yicha aniqlangan va amalda ishlab chiqarish natijalariga bog'liq bo'lmagan.

Ishchi kuchiga qo'shimcha sarflarning katta qismi taqsimlash tartibida davlat byudjeti orqali amalga oshirilgan. Oylik o'rtacha ish haqi korxonada bor bo'lgan (amalda-belgilangan) umumiy ish haqi fondi va xodimlarning o'rtacha soni asosida hisoblangan. Bunda faqat to'la oy ishlagan ishchi va xizmatchilar hisobga olingan, ya'ni to'la ish haqi yoki kasalligi, haq to'lanmaydigan ta'til yoki boshqa sabablar tufayli maosh olmaydiganlar hisobga olinmagan.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan davlatning roli o'zgaradi, uning bu sohadagi ko'pgina vazifalari bevosita ish beruvchilarga topshiriladi. Ish haqi kasaba uyushmalari bilan ish beruvchilar, shuningdek, hukumat o'rtasidagi muzokaralar mavzuiga aylandi. Ish beruvchilar ish haqi shakli va moddiy rag'batlantirish shaklini mustaqil belgilaydi, xodimlar tarif miqdorlari va lavozim maoshlarini aniqlaydilar, turli ijtimoiy to'lovlar amaliyotini qo'llaydilar.

XMT ta'rifi ko'ra, ishchi kuchining qiymati (yoki ishchi kuchini saqlash xarajatlari) ish beruvchilarning ishchi kuchini saqlash va undan foydalanishga aloqador sarflari summasidir. Bu sarflar ikki guruhga: bevosita va bilvosita sarflar guruhiga ajratiladi.

Ishchi kuchiga bevosita sarflarga quyidagilar kiradi: bevosita ish haqi va maosh ishlanmaydigan vaqt uchun to'lov; ish haqi fondiga kirmaydigan mukofot va sovg'alar; ovqatlanish va ichimliklar harakatlari hamda iqtisodiy faoliyat jarayonida natura shaklidagi boshqa to'lovlar.

Ishchi kuchiga bilvosita sarflar quyidagilarni o'z ichiga oladi: ish beruvchi o'z zimmasiga oladigan xodimlarning turar joyga xarajatlari; ishchi kuchiga boshqa xarajatlar, shuningdek, ishchi kuchiga xarajatlar sifatida qaraladigan soliqlar. Analitik maqsadlarda ishchi kuchiga xarajatlarni iqtisodiy faoliyat sohalari bo'yicha va imkoni bor joyda ish haqi bilan maosh oluvchilarning xalqaro standart tariflari yo'qligi tufayli bu kategoriyalarni shu mamlakat statistik maqsadlari uchun eng yaroqli mezonlarni hisobga olib farqlash lozim.

Ishchi kuchiga xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni bandlar soniga muvofiq tarzda ish haqi yoki maosh oladigan, ishlab turgan erkaklar va ayollar, shuningdek,

shogirdlar soni ham ko'rsatilgan ma'lumotlar bilan to'ldirish kerak. Ishchi kuchi qiymati ko'rsatkichini hisob-kitob qilish uchun haqiqiy ma'lumotlarni yig'ish ish beruvchilarni tanlab tekshiruvdan o'tkazish asosida amalga oshiriladi. Bu 5 yilda bir marta o'tkaziladi va afsuski, barcha mamlakatlarda emas, bu xalqaro taqqoslashni ancha qiyinlashtiradi.

Natijada mazkur maqsadda amaliyotda, qoidaga ko'ra, faqat soatbay ish haqi to'lash ko'rsatkichidan foydalaniladi. Statistika ishchi kuchi qiymatini o'rganish jarayonida quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- ishchi kuchi qiymati darajasi, tuzilishi va dinamikasini hududlar hamda iqtisodiy faoliyat sohalari bo'yicha aniqlash;
- mehnat haqi, ayniqsa, ish haqi ko'rsatkichlarini statistik o'rganish, shuningdek, uning darajasi va dinamikasiga turli omillar ta'sirini o'rganish;
- xodimlarni bandlikdan oladigan daromadlari ulushini baholash;
- aholi foydalanadigan ijtimoiy transportlarning statistik tasnifi;
- ishchi kuchining malaka egallash va ma'lumot darajasini oshirishga bog'liq xarajatlar hajmi va dinamikasini o'rganish;
- vakant birligi hisobiga ishchi kuchiga o'rtacha xarajatlarni (mehnat sarfi birligiga xarajatlarni) aniqlash.

7.2. Mehnatga haq to'lash ko'rsatkichlari

Mehnatga haq to'lashni o'rganish «Mehnat statistikasi»ning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi, chunki mehnat miqdori va sifatiga ko'ra, bir xil mehnatga haq to'lashdagi jiddiy farqlanish aholining mehnat mobilligi kuchayishining muhim omili hisoblanadi.

Mehnat haqi aholining pul va natura ifodasidagi barcha daromadlari bo'lib, u iqtisodiy faoliyat jarayonida hosil bo'ladi va ish haqi, choy puli va boshqalarni o'z ichiga oladi. **Ish haqi** yollanma xodimlarga, qoidaga ko'ra, muntazam vaqt oralig'ida ishlangan va ishlanmagan vaqt uchun pul va natura shaklida to'lanadigan rag'batlantirishdir.

Hozirgi kunda ish haqining darajasi va dinamikasini hisobga olish u yoki bu shaklda amalga oshirilishi mumkin. Ammo turli manbalarda ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar bir-biridan jiddiy farq qiladi: korxonalar (ish beruvchilar)ning ma'lumotlari eng yuqori hisoblanadi; ijtimoiy ta'minot va sug'urta organlari (kasalxona kassalari, nafaqa fondlari va boshqalar)ning ma'lumotlari ancha pastroq; kasaba uyushmasining ma'lumotlari undan ham pastroq bo'ladi. So'zsiz, kasaba uyushmalarining ma'lumotlari ko'proq darajada ishonchli bo'ladi.

Hozirgi kunda ish haqining ikki asosiy shakli: vaqtbay va ishbay turi mavjuddir.

Vaqtbay ish haqi ishlagan vaqt miqdoriga bog'liq bo'lib, quyidagi ikki ko'rinishga ega:

- vaqtbay mukofotli;

- oddiy mukofotli.

Ishbay ish haqi bajarilgan ish miqdori va sifatiga bog'liq bo'ladi. Uning bir necha turlari bor:

- bevosita ishbay (bunda ishning bahosi bajarilgan ish hajmidan qat'inazar o'zgarmaydi);
- ishbay progressiv (bunda bajarilgan ish bahosi bajarilgan ish hajmiga ko'ra ortib boradi);
- ishbay mukofotli;
- akkord ish haqi (alohida ish turlarini bajarish ish beruvchi bilan yollanma ishchi o'rtasida akkord shartnomasini tuzish natijasida aniqlanadi).

Aytish lozimki, amaliyotda vaqtbay va ishbay ish haqi sof ko'rinishda ancha kam qo'llanadi. Odatda, bu ikki shaklning turli birikmalaridan foydalaniladi.

Umumiy mehnat natijasiga qo'shgan hissasini aniqlash mumkin bo'lgan ish kuchi kategoriyalari mehnati ishbay haq ko'rinishida rag'batlantiriladi, qo'shgan hissasini aniqlash mumkin bo'lmagan kategoriyalar vaqtbay hisoblanadi.

Ish haqi fondi tarkibiga: ishlangan vaqt va ishlanmagan vaqt uchun mehnat haqini to'lash kiradi.

Ishlangan vaqt uchun mehnat haqi to'lash quyidagilarni qamrab oladi:

- vaqtbay ishlovchilarga ishlangan vaqt uchun ish haqi to'lash;
- vaqtbay ishlovchilarga rag'batlantiruvchi qo'shimcha to'lovlar to'lash;
- ishbaychilar ish haqi;
- ustama ishdan tashqari soatlarda, tungi vaqtda ishlaganligi uchun, grafik, bayram kunlari uchun qo'shimcha to'lovlar;
- komission to'lovlar;
- turli qo'shimcha to'lovlar (staj, malaka, brigadaga boshchilik qilganlik, shogirdlarni o'qitganlik uchun; ish sharoitining zararliligi uchun va indeksasiya to'lovlari).

Ishlanmagan vaqt uchun to'lovlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- haq to'lanadigan davlat bayrami kunlari;
- har yilgi ta'tillarga haq to'lash;
- boshqa haq to'lanadigan ta'tillar;
- mukofotlar (mavsumiy, yillik, foydadagi ishtirok, shuningdek, ta'tilga qo'shimcha to'lovlar).

YUqoridagilar bilan barcha ish haqiga ish beruvchi bevosita xodimga to'langan turar joy subsidiyalari va oilaviy nafaqalar ham qo'shiladi. Ish haqi fondiga quyidagilar kiritilmaydi: ish beruvchilarning o'z xodimlari ijtimoiy ta'minoti va pensiya fondlariga badallari; xodimlarning shu tizim va farqlar doirasida olgan summalari; dam olish nafaqalari.

Turli mamlakatlar statistikasida xodimlar oladigan natura shaklidagi to'lovlar summasini ish haqiga kiritish masalasi turlicha hal qilinadi. Qator mamlakatlar (Italiya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya)da bu to'lovlar ish haqi fondi tarkibiga to'la kiritiladi; ayrim mamlakatlar (Belgiya)da ish haqiga faqat mahsulot bilan berilgan to'lovlar kiritilib, bepul berilgan turar joy qiymati kiritilmaydi;

boshqa mamlakatlar (Fransiya, Germaniya, Yaponiya)da natura shaklidagi to'lovlar ish haqi fondiga umuman kiritilmaydi.

Ish haqi ikki variantda hisoblanadi:

- yalpi (soliqlar va majburiy to'lovlar chegirilguncha);
- sof (soliqlar va to'lovlar chegirilgandan so'ng).

Statistikada asosiy va qo'shimcha ish haqi ham farqlanadi.

Asosiy ish haqi haqiqiy bajarilgan ishlar uchun to'lovlardan iborat bo'ladi, qo'shimcha ish haqi esa shu korxonada ishlovchi xodimlarning bilvosita daromadlarini ifodalaydi. Asosiy ish haqi egallab turgan lavozim, ma'lumot va malaka darajasi, staj va bajarilayotgan ishning murakkabligiga bog'liq bo'ladi. Qo'shimcha ish haqi me'yor (norma)ni oshirib bajarganlik uchun to'lanadigan haq va narx-navoning o'sishi munosabati bilan turmush darajasini saqlash uchun qo'shimcha to'lovlarni o'z ichiga oladi. Asosiy va qo'shimcha ish haqidan tashqari bir oylik maosh miqdorida yilda bir ikki marta taqdirlov puli sifatida beriladigan bonuslar mavjud.

Keyingi yillarda ish haqining umumiy fondida qo'shimcha ish haqining salmog'i asosiy ish haqi ulushining kamayishi hisobiga bo'ldi.

Rivojlangan mamlakatlarda ish haqi fondini shakllantirish asosini tarif miqdorlari tashkil qiladi. Ular ma'lum kasb va ma'lum malaka darajasiga ega bo'lgan xodimning ma'lum vaqt oralig'idagi mehnat haqini qayd etadi. Xodimlarning alohida razryadlari bo'yicha tarif setkalaridan foydalaniladi. Har bir razryaddagi xodim turli normativ xujjatlarda rasmiy mustahkamlangan ma'lumot malaka talablariga javob berishi kerak. Ishlab chiqarish jarayonida ayni bir xil razryadga ega bo'lgan ishchilar haqiqiy bajarayotgan ishlaridan qat'inazar, bir xil tarif miqdorini oladi.

Tarif miqdoriga hududiy omil ham ta'sir etadi. Ish haqi o'rganilganda uning o'rtacha darajasi aholining alohida ijtimoiy-kasbiy tariflari bo'yicha aniqlanadi. U bir xodimga to'g'ri keladigan va bir kishi/soatga to'g'ri keladigan hisobda ham aniqlanishi mumkin. Birinchi holatda ish haqi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\bar{f} = \frac{\sum fT}{\sum T} = \frac{\text{Ish haqi fondi}}{\text{o'rtacha xodimlar soni (qilingan ish vaqti)}}$$

Bu erda, $\bar{f}$ - o'rtacha ish haqi.

O'rtacha ish haqi: o'rtacha soatlik ish haqi, o'rtacha kunlik ish haqi, o'rtacha oylik ish haqi, o'rtacha yillik ish haqi bo'lishi mumkin.

Xalqaro statistikada, qoidaga ko'ra, ish haqi bir xodim hisobiga emas, bir kishi/soatiga ko'ra aniqlanadi. Sababi shundaki, dunyo mamlakatlarining ko'pida xodimlarning sezilarli qismi to'la ish vaqtida band bo'lmaydi. Ish haqi dinamikasini o'rganishda ish haqining rivojlanish tendensiyasini aniqlash imkonini beradigan

indeks usulidan keng foydalaniladi. Ish haqi umumiy fondining dinamikasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$I_f = \frac{F_1}{F_0} = \frac{\sum f_1 T_1}{\sum f_0 T_0}$$

Bu erda, F_1 va F_0 - ish haqi fondlari. $F = \sum fT$

O'rtacha ish haqi dinamikasini ta'riflovchi indekslar esa muhim indekslar hisoblanadi. O'rtacha ish haqi qay darajada o'zgarganligini bilish maqsadida umumiy o'zgaruvchan tarkibli indeks hisoblanadi:

$$I_{\bar{f}} = \frac{\bar{f}_1}{\bar{f}_0} = \frac{\sum f_1 T_1}{\sum T_1} : \frac{\sum f_0 T_0}{\sum T_0}$$

Bu indeksga ikki omil ta'sir ko'rsatadi:

birinchidan:

-o'rtacha ish haqi o'zgarishi $(\bar{f}_0, \bar{f}_1)$;

-turli ish haqi oluvchi xodimlar tarkibi (yoki sarf qilingan ish haqi) o'zgarishi.

$$d_T = \frac{T_0}{\sum T_0}, d_T = \frac{T_1}{\sum T_1},$$

Har bir omilning o'rtacha ish haqi o'zgarishiga qay darajada ta'sir ko'rsatganini o'rganish maqsadida o'zgaruvchan tarkibli indeks quyidagi hosilaviy indekslarga bo'linadi:

-doimiy tarkibli indeks, faqat birinchi omilning ta'sirini o'rganish uchun

$$\bar{I}_f = \frac{\sum f_1 T_1}{\sum T_1} : \frac{\sum f_0 T_1}{\sum T_1} = \frac{\sum f_1 T_1}{\sum f_0 T_1}$$

- tuzilmaviy siljish indeksi,

$$I_{f(dT)} = \frac{\sum f_1 T_1}{\sum T_1} : \frac{\sum f_0 T_1}{\sum T_1} \text{ yoki } I_{f(dT)} = \bar{I}_{\bar{f}} : \bar{I}_f$$

Ularga o'zgaruvchan tarkibli, doimiy tarkibning ish haqi indekslari va tuzilmaviy siljishlar indekslari kiritiladi. Doimiy tarkibli ish haqining indeksi ishchi kuchining tarkibiy tuzilmasi o'zgarish bo'lgandagi o'rtacha ish haqining dinamikasini tavsiflaydi. Uni hisob-kitob qilishda tarozi sifatida hisobot davridagi xodimlar soni (ishlangan vaqt) dan foydalaniladi.

Ish haqi ko'rsatkichlarini tavsiflashda nominal va haqiqiy (real) ish haqini farqlash lozim. Nominal ish haqi ish haqining muvofiq qiluvchi davr narxlarida puldagi ifodasidir. Real ish haqi nominal ish haqi xarid qobiliyatining puldagi ifodasi, ya'ni mazkur ish haqiga sotib olish mumkin bo'lgan iste'mol tovar va xizmatlarning yig'indisidir.

Inflyasiya sharoitlarida real ish haqini aniqlash muhim ahamiyatga ega, chunki u narxlar o'zgarishining ta'sirini bartaraf etadi va xarid qobiliyatining haqiqiy dinamikasini aks ettiradi. Real ish haqi indeksi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi.

$$I_{\text{real ish}} = I_{\text{nom ish}} : I_p$$

Bunda: $I_{real\ ih}$ – real ish haqi indeksi;

$I_{nom\ ih}$ – nominal ish haqi indeksi;

I_p – tovar hamda pulli xizmatlarning iste'mol narxlari va tariflari indeksi.

Real ish haqi miqdori davlatning soliq siyosatiga ham bog'liq bo'ladi. Ishlovchilardan undirilgan soliqlar ko'pgina mamlakatlarda davlat byudjetini shakllantiruvchi asosiy manba hisoblanadi. SHuning uchun katta nominal ish haqi barqaror va iste'mol narxlarining darajasi o'zgarmas bo'lgan sharoitlarda ham ishlab turgan xodimlarning real ish haqi soliq miqdorining ortishi tufayli pasayishi mumkin. SHunga ko'ra, real ish haqini aniqlash asosida soliqlar chegaralangan nominal ish haqi yotishi kerak.

7.3. Iste'mol baholari indeksini hisoblash

Iste'mol baholari indeksini hisoblash juda muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lgan murakkab vazifadir. Iste'mol narxlari indeksi mazkur mamlakat vositasi xarid qobiliyatining real o'zgarishini aks ettiradi va aholi turmush darajasining eng muhim tavsiflaridan biri hisoblanadi.

Iste'mol narxlari indeksini hisoblash metodologiyasi tovar-vakillar usuliga asoslangan. Bu har bir tovar va xizmatni hisobga olgan holda iste'mol narxlari indeksini aniq hisoblab chiqish imkonini bermaydigan yuz minglab va millionlab har xil turdagi iste'mol tovarlari, xizmatlari ishlab chiqarilishi va iste'mol qilinishi tufaylidir.

Tovar-vakillar usulining mohiyati quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1) Tadqiq qilinayotgan tovarlar va xizmatlarning butun yig'indisi bir turli guruh va kichik guruhlariga ajratiladi.

2) Har bir guruh yoki kichik guruh uchun quyidagi usullardan foydalanish asosida tovar – vakil ajratiladi:

- tovar yoki xizmat hajmi (qiymati) bo'yicha shu guruh yoki kichik guruhda eng salmoqli bo'lishi kerak;

- tovar yoki xizmatning narxi o'rtacha – guruhiy narxga yaqin bo'lishi kerak (ya'ni mazkur guruhdagi barcha tovar yoki xizmatlar narxi taxminan bir xil o'zgarishi kerak).

3) Ajratilgan tovarlar uchun narxlar indekslari aniqlanadi.

4) Olingan indeks shu guruhdagi barcha tovar va xizmatlar uchun qo'llaniladi.

5) Ist'mil narxlarining muallaq (chamalangan) indeksi muvofiq keluvchi guruh tovar aylanishi bo'yicha baholar guruhiy indeksini muallaqlash (chamalash) yo'li bilan aniqlanadi.

6) O'rtacha guruhiy indekslar aniqlangandan so'ng yig'ma indeksni hisoblash maqsadida ular muallaqlanadi.

Mavjud axborotga bog'liq tarzda bu uch usulda amalga oshiriladi:

1. Vazn davri tovar aylanishining haqiqiy hajmi bo'yicha:

$$I_p = \frac{\sum i_p \times q_0 p_0}{\sum q_0 p_0}$$

Bunda: i_p – baholarning individual indekslari;

$\sum q_0 p_0$ – bazis davri tovar aylanishi.

2. Hisobot davri bazis narxlaridagi tovar aylanishi tuzilmasi bo'yicha:

$$I_p = \frac{\sum i_p \times q_1 p_0}{\sum q_1 p_0}$$

Bunda: i_p – narxlarning individual indekslari;

$\sum q_1 p_0$ – hisobot davri bazis narxlardagi tovar aylanishi.

3. Hisobot va bazis davrlarida mahsulot ishlab chiqarish yig'indisi bo'yicha:

$$I_p = \frac{\sum i_p \times (q_1 + q_0)}{\sum (q_1 + q_0)}$$

Bunda: i_p – narxlarning individual indekslari;

q_0 – bazis davridagi mahsulot ishlab chiqarish;

q_1 – hisobot davridagi mahsulot ishlab chiqarish.

Ulgurji baholar indeksi korxonalarining mahsulot sotish to'g'risidagi ma'lumotlari asosida hisoblanadi va tovar xizmatlarning turi bo'yicha aniqlanadi.

Mazkur holatda quyidagilar tanlov mezonlari bo'ladi:

- mazkur guruh mahsulotining ishlab chiqarishdagi sezilarli salmog'i;
- narxlar dinamikasi o'rtacha dinamikaga yaqin;
- narxlar to'g'risidagi zarur ma'lumotlarning borligi.

Amaliyotda ishlab chiqaruvchilarning narxnoma (preyskurant) narxlaridan ham foydalaniladi. Chakana baholar indeksi tovar va xizmatlarning butun doirasi bo'yicha tanlab olish asosida amalga oshiriladi. Baholar indeksi shahar va qishloq joylar uchun alohida aniqlanadi. Ro'yxatga olishdagi eng asosiy muammo muvofiq keluvchi sotilgan mahsulot miqdorini hisobga olishning mumkin emasligidir. SHunga ko'ra, ko'pgina hollarda baholar indeksi oddiy o'rtacha arifmetik formula bo'yicha aniqlanadi.

7.4. Ishchi kuchiga bilvosita xarajatlar statistikasining asosiy ko'rsatkichlari

Ishchi kuchi qiymatiga, ishchi kuchiga mehnat haqi ko'rinishida qilingan bevosita xarajatlardan tashqari ishchi kuchini qayta tiklash qiymatining bevosita aniqlovchi mazmuni bo'yicha bilvosita sarflar ham kiritiladi. XMT tavsiyalariga ko'ra, quyidagilar ishchi kuchiga bilvosita xarajatlar elementlari hisoblanadi:

- ish beruvchilarning ijtimoiy ta'minotga qilgan xarajatlari;
- kasbiy tayyorgarlikka qilingan xarajatlar;
- ish beruvchi o'z zimmasiga oladigan, xodimlarning turar joylariga qilinadigan xarajatlar;
- ijtimoiy xizmatlarga qilinadigan xarajatlar;

- ishchi kuchiga qilinadigan boshqa xarajatlar, shuningdek, ishchi kuchiga xarajatlar sifatida qaraladigan soliqlar.

Quyidagilar ish beruvchilarning ijtimoiy ta'minotga qilgan xarajatlariga kiritiladi:

- 1) Ijtimoiy ta'minotga majburiy (qonun bilan belgilangan) badallar (qarilik, nogironlik, boquvchisini yo'qotganlik nafaqalari fondlariga; kasallik va bola tug'ish munosabati bilan to'lovlar; ishlab chiqarishda shikastlanganlik uchun tovonlar; ishsizlik nafaqalari; oilaviy nafaqalar).
- 2) Ijtimoiy ta'minot va sug'urtaning xususiy fondlariga jamoaviy kelishilgan, shartnomaviy va majburiy bo'lmagan to'lovlar (qarilik, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik nafaqalari fondlariga; kasallik va bola tug'ish munosabati bilan to'lovlar; ishlab chiqarishda shikastlanganlik uchun tovonlar; ishsizlik nafaqalari; oilaviy nafaqalar).
- 3) Xodimlarga bevosita to'lovlar:
 - kasallik tufayli ishda yo'q bo'lgan, bola tuqqan, yo'qotilgan ish haqini qoplash maqsadida ishlab chiqarish jarohati olgan hollarda;
 - boshqalar (ijtimoiy ta'minot doirasida nafaqa hisoblanadigan);
- 4) Tibbiy xizmatlar va shunga o'xshash xizmatlarga xarajatlar.
- 5) Dam olish nafaqalari (ijtimoiy ta'minot doirasida xarajat hisoblanadigan).

Barcha mamlakatlarda ijtimoiy ta'minot tadbirkorlar, yollanma xodimlar va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning murakkab tizimi hisoblanadi.

Asosiy nafaqa – davlat tomonidan nafaqa yoshiga etgan barcha fuqarolar, ularning ish stajlaridan qat'inazar to'lanadigan nafaqa.

Qo'shimcha nafaqa – miqdori aholining iqtisodiy faoliyatida ishtirok etishiga bevosita bog'liq nafaqa bo'lib, u quyidagi elementlardan tarkib topadi:

- ish haqi darajasiga ko'ra davlat nafaqasidan;
- korxonalarning nafaqa rejasi bo'yicha nafaqadan;
- xodimning shaxsiy nafaqa rejasi bo'yicha nafaqadan.

Davlat nafaqasi – davlat tomonidan faqat yollanma ishchilarga asosiy nafaqadan tashqari to'lanadigan va butun ish stajiga o'rtacha hisoblangan nafaqasi.

Korxona va xodimlar nafaqa rejalarini bo'yicha nafaqa to'lovlari ta'rifga ko'ra, tadbirkor va xodimlar mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi, uning chegarasi qonunchilik tartibida belgilanadi. Korxonalar nafaqa rejasi bo'yicha to'lanadigan nafaqa miqdori badallar miqdori va ularni nafaqa fondlariga investitsiyalash natijalariga bog'liq bo'ladi.

Korxonalardagi nafaqa fondlari tadbirkor va xodimlar mablag'lari hisobiga ham quyidagicha tashkil etiladi: tadbirkor soliqni majburiy tartibda to'laydi. Bundan tashqari, xodim ish haqining boshqa sug'urta tashkilotlariga ixtiyoriy ajratishi mumkin.

Nafaqaning umumiy miqdori pirovard ish haqining miqdoriga bog'liq bo'ladi. Bupk Britaniyadagi nafaqaxo'rlarning deyarli 90%i nafaqani pirovard ish haqiga bog'liq tarzda oladi. **Pirovard ish haqi** ish haqining o'rtacha darajasi bo'lib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida turli tamoyillar asosida aniqlanadi:

- nafaqaga chiqish vaqtidagi ish haqi bo'yicha;
- oxirgi ish yilidagi o'rtacha ish haqi bo'yicha (ko'shimcha);
- oxirgi uch yildagi o'rtacha ish haqi bo'yicha;
- oxirgi o'n yillikning istalgan besh yilidagi o'rtacha ish haqi bo'yicha.

Nafaqaxo'r vafot etgan taqdirda uning nafaqasini bevosita merosxo'ri oladi. Agar xodim nafaqaga chiqqunga qadar vafot etsa, merosxo'r bevosita nafaqani u nafaqaga chiqishi lozim bo'lgan vaqtdan boshlab olish huquqini saqlab qoladi. Nafaqaga chiqish vaqtida nafaqaxo'rlar 2 oylikdan 12 oylik maosh miqdorida bir yo'la beriladigan nafaqani oladi. Xodim nafaqaga chiqish vaqtigacha vafot etgan holatda, uning merosxo'rlari 2 oylik maosh miqdoridagi bir yo'la nafaqani u nafaqaga chiqishi lozim bo'lgan vaqtdan oladi.

Kasbiy tayyorlash xarajatlariga tashqi tashkiliy va o'quv hujjatlaridan jalb etilgan instruktorlarning qalam haqlari va boshqa to'lovlar, shuningdek, xodimlarga kompensatsiya – o'qish uchun to'lov kabi sarflar va boshqalar kiradi.

Tadbirkor o'z zimmasiga olgan xodimlarning turar joy sarflarini qoplash: korxonaga qarashli turar joyni saqlash; ijaraga olingan turar joy haqini to'lash (subsidiyalar, ustamalar va b.)ni, shuningdek, kommunal xizmatlar uchun haq to'lashni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy xizmatlar xarajatlariga quyidagilar kiritiladi:

- oshxonalar va shunga o'xshash xizmatlarni saqlash;
- ta'lim va madaniy muassasalarni saqlash, shuningdek muvofiq keluvchi xizmatlarni ko'rsatish;
- kredit tashkilotlarga subsidiyalar va xodimlarga xuddi shunday xizmatlar uchun xarajatlar.

Ishchi kuchiga boshqa xarajatlar xodimlarga turar joydan ishga borish va qaytish uchun transport xizmatlariga, ish kiyimiga qilgan sarflarini, yollash bilan bog'liq sarflarni qoplash va h.k.

Ishchi kuchiga xarajatlar sifatida qaraladigan soliqlar (masalan, bandlar soni va ish haqi fondiga soliqlar)ni sof ko'rinishida, ya'ni davlat tomonidan berilgan chegirim, imtiyoz va subsidiyalarni chiqarib, ishchi kuchi qiymatiga kiritish kerak.

Qisqacha xulosalar

Ishchi kuchi qiymati kategoriyasi, faqat bozor iqtisodiyoti sharoitida mavjud bo'lib, oldingi rejalashtirilgan iqtisodiyot sharoitida ish kuchi bebaho deb, mehnat miqdori va sifatiga ko'ra haq to'lanadi shiori ostida haq to'langan. Ish kuchi qiymati talab va taklifga bog'liq bo'lib, bunga turli jihatlar ta'sir ko'rsatadi: geografik, tarmoq va kasbiy kabilar.

XMT ta'rifiga ko'ra, ishchi kuchi qiymati ish beruvchilarning ishchi kuchini saqlash va undan foydalanishga aloqador sarflari yig'indisidir.

Ishchi kuchiga qo'shimcha sarfning katta qismi taqsimlash tartibida davlat byudjeti orqali amalga oshiriladi.

Bozor munosabatlariga o'tish bilan bu savolni hal etishda, davlatning roli o'zgardi, bu sohada ko'pgina vazifalar bevosita ish beruvchilarga topshiriladi.

Ish haqi kasaba uyushmalari ish beruvchilar, shuningdek, hukumat orasidagi muzokaralar mavzuiga aylandi. Ish beruvchilar ish haqi shakli va moddiy rag'batlantirish shaklini mustaqil belgilaydi, turli ijtimoiy to'lovlar amaliyotini qo'llashadi.

Mehnatga haq to'lashni o'rganish mehnat statistikasining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi, chunki mehnat miqdori va sifatiga ko'ra, bir xil mehnatga haq to'lashdagi jiddiy farqlanish, aholi moyilligini kuchayishining muhim omili hisoblanadi.

Mehnat haqi aholining pul va natura ifodasidagi barcha daromadlari bo'lib, u iqtisodiy faoliyat jarayonida hosil bo'ladi va ish haqi, choy puli va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ish haqi yollanma xodimlarga, qoidaga ko'ra, muntazam vaqt oralig'ida ishlangan va ishlanmagan vaqt uchun pul va natura shaklida to'lanadigan rag'batlantirishdir.

Ish haqi haqida umumiy ta'rifga ega bo'lish maqsadida o'rtacha ish haqi va uning dinamikasi indekslar yordamida o'rganiladi.

Ish haqi dinamikasini o'rganishda muhim ahamiyatga, uning nominal va real ish haqi dinamikasiga bo'lib o'rganish hisoblanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ishchi kuchi qiymati kategoriyasi – bozor munosabatiga xosligi.
2. Ishchi kuchi qiymatini o'rganish yo'nalishlari.
3. Mehnat haqi – ishchi kuchi qiymatining asosiy elementi.
4. Ish haqi turlari.
5. Ish haqi fondi haqida tushuncha.
6. O'rtacha ish haqini hisoblash usullari.
7. Ish haqi dinamikasini o'rganish.
8. Ishchi kuchiga bilvosita xarajatlar statistikasi asosiy ko'rsatkichlari.

Asosiy adabiyotlar

1. Akbarova Z. Mehnat bozori statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent, 2004.
2. Под ред. С.Д.Ильенковой. Микроэкономическая статистика. Учебник. – М., 2004 г.
3. В.Г.Минашкин, О.Л.Козарезова. Основы теории статистики. – М., 2004 г.
4. Р.А.Шмойлова и др. Практикум по теории статистики. Учебной пособие. – М., 2004 г.
5. Р.А.Шмойлова и др. Теория статистики. Учебник. – М., 2004 г.
6. Башкатов Б.И., Карпухина Г.Ю. Международная статистика труда. Учебник. – М.: Дело и Сервис, 2001.
7. Сиденко А.В., Башкатов Б.И., Матаева В.М. Международная статистика. Учебник – М.: Дело и Сервис, 1999.
8. www.euireland.ie
9. www.cec.org.uk
10. www.eurunion.org

VIII bob. ISHCHI KUCHINING TURMUSH, MEHNAT VA DAM OLISH SHART-SHAROITLARI STATISTIKASI

8.1. Turmush darajasi tushunchasi va uning ko'rsatkichlari tizimi

Aholining turmush darajasi ijtimoiy-iqtisodiy va sosial kategoriya bo'lib, u insonni moddiy, madaniy, ma'ishiy va boshqa ehtiyojlarini qondirilish darajasi, hamda turmush sharoitlarini yanada yaxshilash kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Aholining moddiy ehtiyojlariga: oziq-ovqat, kiyim kechak, tura rjoy, uy-ro'zg'or buyumlari, birlamchi ehtiyoj predmetlari kabilar kiritiladi.

Aholining madaniy-ma'ishiy ehtiyojlariga: bilimga, saviyasi oshishiga, maishiy va kommunal xizmat sifatini oshishi kabilarga bo'lgan ehtiyojlar kiritiladi.

Aholining turmush sharoiti ehtiyojlariga: mehnatkashni mehnat qilish, dam olish, mehnat sharoitini yaxshilash, bo'sh vaqtini - salomatligini yaxshilashga, mehnat qilish qobiliyatini SAqlashga, madaniy saviyasini oshirishga qaratilishi tushiniladi. Mehnat qilish qobiliyatini yo'qotganda va boshqa sabablarga ko'ra muxtoj bo'lib qolgan paytda ijtimoiy ximoyalash kiritiladi.

Mehnat va mehnat munosabatlari sohasida sodir bo'layotgan hodisa hamda jarayonlarni baholash juda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, aholi mehnatga haq to'lash, shuningdek, turli ijtimoiy fan va dasturlarini shakllantirish imkoniyati turmush darajasiga bog'liq bo'ladi. SHuning uchun turmush darajasi yuqoriroq bo'lgan mamlakatlar xorijiy ishchi kuchini qabul qiluvchi(importyor)lar bo'lsa, kam rivojlangan mamlakatlar bu ishchi kuchini etkazib beruvchilar hisoblanadi. Aholining moddiy va boshqa ehtiyojlarini qondirish darajasi bilan aniqlanadigan turmush darajasi murakkab iqtisodiy kategoriya bo'lib, uni qandaydir bir ko'rsatkich vositasida tavsiflab bo'lmaydi.

BMTning Statistika komissiyasi aholi turmush darajasini baholash uchun ko'rsatkichlarning quyidagi kichik guruhlarini ajratishni tavsiya qiladi:

- aholining demografik tavsifi (tug'ilish, o'lim, kasallanish, uzoq yashash va boshqa ko'rsatkichlari);
- aholi daromadlarining ko'rsatkichlari (real va nominal);
- aholi xarajatlari va jamg'armalari ko'rsatkichlari;
- aholining moddiy boylik va xizmatlarni iste'mol qilish ko'rsatkichlari;
- aholining turarjoy va uzoq muddat foydalanishga mo'ljallangan ashyolar bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlari;
- bandlik va ishsizlik ko'rsatkichlari;
- aholining mehnat qilish shart-sharoitlari ko'rsatkichlari; bo'sh vaqt ko'rsatkichlari;
- ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, jismoniy tarbiya va sport, turizm va dam olish ko'rsatkichlari.

Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot (YAIM) yoki milliy daromad (MD) aholi turmush darajasini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Ammo undan xalqaro qiyoslashlarda foydalanishda ehtiyotkorroq bo'lish kerak. Chunki u turli mamlakatlardagi narxlar ko'lamidagi farqlarga va milliy valyuta ko'rsatkichlarini yagona valyutada (masalan, AQSH dollari yoki evro) qayta baholashdagi muammolar tufayli aholining turmush darajasiga to'la berilmaydi.

8.2. Aholi daromadlari darajasi va dinamikasi statistikasi

Bugungi kunning eng muhim vazifasi mamlakatimizda ijtimoiy xayotning barcha sohalarida yuz berayotgan islohotlarni YAngi pag'onaga ko'tarishdan iboratdir. SHu borada mamlakatimiz prezidentining 2002 yil avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida demokrafk o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari va O'zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishga qaratilgan ko'rsatmalari va Prezident ta'kidlaganidek «... islohot – inson uchun, mamlakat aholisining farovonligi va turmush darajasini ko'tarishiga qaratilganligidadir».

Makroiqtisodiy islohotlar insonni turmush farovonligini ta'minlash maqsadida olib borayotgan barcha tadbirlar asosi bo'lib O'zbekistonda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni – milliy ishlab chiqarishni rivojlantirish hisoblanadi. Asosiy natijaviy ko'rsatkichlardan biri bo'lib YAIM ko'rsatkichi hisoblanadi.

8.1.1-jadval.

O'zbekistonda 1995-2004 yillarda YAIM (mln. so'm, joriy narxlarda)

Ko'rsatkichlar	2000 y.	2001 y.	2002 y.	2003 y.	2004 y.
Nominal YAIM, mln. so'm	3194504,2	4925269,8	7469347,0	7768120,8	8366266,18
Jami qo'shilgan qiymat	2788136,8	4304685,8	6498331,8	6758265,1	702859,9
SHu jumladan:					
Qishloq xo'jaligi	972501,1	1477580,9	2285620,1	2939307,3	3779949,38
Sanoat	440474,2	694463,0	1053177,9	1118474,39	12223611,54
Qurilish	194448,3	285665,6	433222,1	452717,2	473089,4
Boshqa faoliyat turlari	1180713,3	1881453,0	2890637,2	2818912,8	2313848,6
Tovar va import sof solig'i	40367,4	58610,7	873913,6	1138709,5	1475767,4

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

8.1.2-jadval.

O'zbekistonda 1995-2004 yillarda YAIM tarkibi, %da

Ko'rsatkichlar	2000 y.	2001 y.	2002 y.	2003 y.	2004 y.
Nominal YAIM, mln. so'm	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Jami qo'shilgan qiymat	87,3	87,4	87,6	87,5	87,6
SHu jumladan:					
Qishloq xo'jaligi	30,4	30,0	30,6	32,0	40,2
Sanoat	13,8	14,1	14,1	14,4	14,6
Qurilish	6,1	5,8	4,9	5,3	5,2
Boshqa faoliyat turlari	37,0	38,2	38,7	32,8	27
Tovarlar va import sof solig'i	12,7	11,9	11,7	14,7	15,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

1996 yildan boshlab YAIM ni real hajmi o'sib boruvchi tendensiyaga ega bo'la boshlagan. Iqtisodiyotni erkinlashtirish bo'yicha qabul qilingan tadbirlar natijasida real YAIM qo'shimcha o'sish sur'atini ortishi bo'ldi. Buni quyidagi ma'lumotlardan ko'rish mumkin:

8.1.3-jadval.

YAIM dinamikasi (1991 yilga nisbatan, %da)*

Ko'rsatkichlar	1992 y.	1996 y.	2000 y.	2001 y.	2002 y.	2003 y.	2004 y.
YAIM	- 11,1	-17,1	-1,5	2,7	6,8	11,4	19,8

Milliy iqtisodiyotni bunday rivojlanishiga. Iqtisodiy islohotlarni samarali yo'naltirilgan qonunlar, Prezident farmonlari va boshqa qabul qilingan qarorlar asos bo'lmoqda.

YAIM hajmi, aholi jon boshiga YAIM hajmi oshishi albatta aholi daromadlariga bevosita, uzviy bog'liqlikda o'z ta'sirini ko'rsatadi.

«Mehnat statistikasi» doirasida aholi daromadlariga turmush darajasining eng muhim ko'rsatkichi sifatidagina emas, balki aholining bandlik darajasi, ishchi kuchining migrasiyasi va taklifi hajmini aniqlovchi omil sifatida ham qaraladi.

Aholining daromadlari ko'rsatkichlariga pul va natura shaklidagi daromadlarning barcha turlari, ularning manbalaridan qat'inazar kiritiladi.

Quyidagilar aholining asosiy daromad manbalari hisoblanadi:

- ish haqi yoki maosh;
- mashg'ulotlardan olinadigan ish haqi shaklida bo'lmaydigan daromadlar (choy puli va vositachilik haqi, qalam haqi, shaxsiy yordamchi xo'jalikdan olinadigan daromadlar);
- korxonalardan olinadigan, ish haqi shaklini egallaydigan tushumlar (moddiy yordam, korxonadan bo'shab ketishda beriladigan to'lovlar va b.);
- nafaqalar, stipendiya, kompensasiyalar va zararlarni qoplashlar;

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

- mulkdan olinadigan daromadlar (turar joy, ko'chmas mulk, er va boshqa aktivlarni ijaraga berishdan olinadigan foiz, renta, dividend, daromadlar);
- zayom va lotoreya yutuqlari, sovg'alar, sug'urta tovonlari, dividendlar,
- nolegal yoki yashirin faoliyatdan olinadigan daromadlar;
- chet eldan olinadigan daromadlar (ish haqi, nafaqa, stipendiya, grantlarning yuborilishi; xayriya, insonparvarlik yordami va b.).

Bundan haqiqiy to'langan summalar emas, balki hisoblangan summalar e'tiborga olinadi.

Aholi turmush darajasining asosiy ko'rsatkichi bo'lib aholi pul daromadlari va xarajatlari hisoblanadi. Aholi pul daromadlariga mehnatkashni mehnati evaziga olgan ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar, nafaqa va stipendiyalar. Mulk daromadlari, dividendlar, shaxsiy tamorqadan olingan daromadlar va boshqalar kiritiladi.

8.1.4-jadval.

Aholi turmush darajasi ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	1997 y.	1998 y.	2000 y.	2002 y.	2003 y.	2004 y.
Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadlari	Ming so'm	26,4	38,2	95,9	204,9	252,8	295,3
Ishchi va xizmatchilarning o'rtacha ish haqi	So'm	5741,5	8194,5	13180,7	25336,6	30206,0	-
Jon boshiga ishlab chiqarilgan iste'mol buyumlari	Ming so'm	11,9	16,6	36,8	173,0	199,0	93,0
Jon boshiga to'g'ri keladigan chakana tovar aylanish	Ming so'm	10,2	20,0	72,3	123,8	185,3	184,3
Vrachlar soni	Ming kishi	81,6	81,8	82,0	81,0	80,4	80,0
Maktab o'quvchilari	Ming kishi	5257,8	5622	5764,8	6329,1	6263,1	6151,4
Oliy o'quv yurtlari talabalari soni	Ming kishi	258,2	148,7	166,5	232,3	254,4	263,6
O'qituvchilar soni	Ming kishi	442,6	459,3	449,2	466,3	472,1	476,9

Manba:

1. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.
2. Osnovno'e polozhenie vneshney torgovli za 2004 g. – T.: 2005, 2,3,24 – betlar.
3. Osnovno'e pokazateli razvitiya narodnogo obrazovaniya i podgotovki kadrov za 2004 g. – T.: 2005, 3-b.

Aholining yuqoridagi aytib o'tilgan manbalaridan olgan barcha pul daromadlarining yig'indisi yalpi (umumiy) daromad ko'rsatkichlari hisoblanadi. Uning tarkibiga bir yo'la yirik summada olingan tushumlar (masalan, uy, er, transport vositalarini sotishdan olingan daromad yoki meros olish) kiritilmaydi. Aholining alohida guruhlar o'rtasida daromad ayirboshlashga kelsak, ular umumiy daromadlarni aniqlashda hisobga olinmaydi. Agar aholi alohida guruhlarining daromadlari aniqlanayotgan bo'lsa, ular bu daromadlar hisobiga olinishi kerak.

Aholining umumiy daromadlari xuddi ish haqi kabi nominal va real ko'rinishda aniqlanishi mumkin. Nominal umumiy daromadlar pullarda ifodalangan joriy narxlardagi natura va pul ko'rinishidagi daromadlardir.

8.1.5-jadval.

O'zbekiston Respublikasi aholi pul daromadlari tarkibi va ulardan foydalanish (umumiy pul daromadlari hajmiga nisbatan %da) (01.01 holatiga)

Ko'rsatkichlar	1998y.	1999y.	2000y.	2001y.	2002y.	2003y.	2004y.
Pul daromadlari – jami	100	100	100	100	100	100	100
SHu jumladan: mehnat haqi	57,6	57,9	54,4	54,5	53,8	55,3	56,6
Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar	28,2	28,3	30,7	32,8	33,2	32,4	32,0
Ijtimoiy transfertlar	14,2	13,8	14,9	12,7	13,0	12,3	11,4
Pul xarajatlari – jami	95,2	95,6	96,2	96,1	97,1	101,0	95,7
SHu jumladan: Tovarlar sotib olish va ko'rsatilgan xizmatlarga to'lovlar	85,0	85,9	85,7	85,5	85,3	84,4	78,7
Majburiy to'lovlar va turli badallar	8,5	8,4	8,3	8,4	9,1	7,7	7,8
Qimmatbaho qog'ozlar va jamg'armalarni qiymati, valyuta sotib olish	1,4	1,1	2,1	2,1	2,6	8,8	9,2
Boshqa xarajatlar	0,3	0,2	0,1	0,1	0,1	0,1	0,0
Aholi qo'lida pulni o'sishi	4,8	4,4	3,8	3,9	2,9	-1,0	4,3

Manba: Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Real umumiy daromadlar esa shu daromadlarga sotib olinishi mumkin bo'lgan moddiy boylik va xizmatlar yig'indisi bilan ifodalanadi (ya'ni, iste'mol baho indekslariga to'g'rilangan nominal daromadlar). Umumiy daromad hosil qilingach, uning muayyan qismi ixtiyoriy va majburiy to'lovlarga ishlatiladi.

Majburiy to'lovlarga joriy soliqlar (daromad solig'i, er, mulk, meros solig'i), etkazilgan zarar uchun kompensasiya to'lash, mol-mulk musodarasi, to'langan jarima va peniyalar, turli rasmiy yig'im va boj (poshlina)lar kiritiladi.

Ixtiyoriy to'lovlarga turli a'zolik badallari, ijtimoiy tashkilotlarga to'lovlar, xayriya badallari, sovg'alar, o'z puli hisobiga homiylik qilish va boshqalar kiritiladi.

Umumiy daromadlar bilan ixtiyoriy, majburiy to'lovlar o'rtasidagi farq ixtiyoriy daromadlarda daromadlar ko'rsatkichi tarzida ifodalanadi. Aholi qo'lidagi daromadlar muvofiq keluvchi tovar va xizmatlar bilan ta'minlanishi lozim bo'lgan to'lovga qodir talabning umumiy miqdorini ifodalaydi. Aholi qo'lidagi daromadlar yoki pirovard iste'mol yohud jamg'armaga ishlatilishi mumkin. Agar aholi qo'lidagi daromadlar umumiy summasidan aholi olgan bepul va imtiyozli xizmatlar qiymati chegirilsa, qo'ldagi shaxsiy daromadlar ko'rsatkichiga ega bo'linadi. Aholining moddiy farovonlik darajasiga ko'ra tabaqalashni o'rganish usullaridan biri aholi jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadlari darajasi bo'yicha taqsimlash hisoblanadi. Bunda o'rtacha jon boshiga pul daromadlari hisobot davridagi pul daromadlari umumiy summasini mavjud aholi soniga bo'lib aniqlanadi.

1997-2004 illarda davlatning siyosati umumiy iqtisodiy rivojlanishga bog'liq holda aholi daromadini ortishiga qaratilgan. Aholini real daromadlari 1996

yilga 34 % oshgan. 2004 yilda 2003 yilga nisbatan aholining real daromadlari 15 % ga oshdi.

Kelgusi besh yillikda minimal ish haqini 3,5 barobar ko'tarish va aholining o'rtacha daromadi darajasi 1,8-2,0 barobar oshirish vazifasi qo'yilgan.

Aholini jon boshiga o'rtacha pul daromadlari bo'yicha taqsimlash daromadlar darajalarining taqsimlangan standartlari asosida amalga oshiriladi. Bu standartlar muntazam ko'rib chiqib turiladi. Uning tuzilishi, qoidaga ko'ra, yosh, oilaviy ahvoli, bandlik maqomi va ijtimoiy-kasbiy tarkibga bog'liq tarzda aholining ko'p sonli guruhi kesmasida amalga oshiriladi. Aholining tabaqalashuvini aniq tavsiflashdagi afzallik shundaki, uni pul daromadlari darajasi bo'yicha emas, balki xarajatlar darajasi bo'yicha taqsimlashga beriladi.

Aholini jon boshiga o'rtacha pul daromadlari darajasi bo'yicha taqsimlash va uni tirikchilik qilish uchun zarur narsalar miqdoriga qiyoslash asosida quyidagi ko'rinishga ega bo'ladigan kambag'allik koeffisienti aniqlanadi:

$$K_{\text{kamb}} = S_m : S_{\text{umum}}$$

Bunda: S_m – tirikchilik qilish uchun zarur narsalardan kam daromad qiluvchi shaxslar soni;

S_{umum} – aholining umumiy soni.

Tirikchilik qilish uchun zarur iste'mol qiymatlari miqdori qiymat o'lchovida o'lchanib, o'z ichiga oziq-ovqat mahsulotlarining (parxez cheklovlari va zarur kaloriyalar miqdorini minimal darajada ta'minlaydigan) natura shaklidagi to'plami, shuningdek, nooziq-ovqat tovarlar hamda xizmatlar, soliq va majburiy to'lovlarga aholining kam daromadli guruhlari byudjetlarida bu maqsadlarga mo'ljallangan sarflar ulushlaridan kelib chiqib, hisoblanadigan xarajatlarning qiymat bahosidir. U tirikchilik qilish uchun shart-sharoitlardan kelib chiqib aniqlanadi va iste'mol narxlarini dinamikasiga ko'ra doimiylik tartibida qayta ko'rib chiqiladi.

Aholining pul daromadlari umumiy hajmidan kelib chiqib, foizlarda ifodalangan pul daromadlari hajmini aholining turli guruhlari bo'yicha taqsimlanishi ham aniqlanadi. Bunday taqsimlash asosida eng ko'p ta'minlangan jamiyat a'zolari daromad darajalari va eng kam ta'minlangan aholi pul daromadlariga taqqoslab, daromadlar tabaqalashuvining quyidagi koeffisientlari: fond koeffisienti va tabaqalashning desil (kvantil) koeffisienti aniqlanadi.

Fondlar koeffisienti daromadlar umumiy hajmida aholini eng ko'p va eng kam ta'minlangan guruhlari daromadlari yoki ularning ulushlari o'rtacha qiymatining nisbatidir.

Tabaqalashning desil (kvantil) koeffisienti eng ko'p ta'minlangan aholi darajasi minimal qiymatining eng kam ta'minlangan 10 % (20 %) aholi daromadlari darajasining minimal qiymatiga nisbati sifatida hisoblanadi.

8.3. Aholi xarajatlari va jamg'armalari statistikasi

Aholi xarajatlari va jamg'armalari ko'rsatkichlari aholining tovar va xizmatlarni sotib olishdagi potensial imkoniyatlarini tavsiflovchi daromadlaridan farq qilib, bu daromadlardan foydalanishda haqiqiy yuzaga kelgan nisbatni ifodalaydi. Ularni o'rganish turmush shart-sharoitlarini tavsiflashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har qanday mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida quyidagi qonuniyatlar mavjud: "Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, shunchalik:

- aholi jon boshiga pirovard iste'mol ko'p;
- xizmatlarni iste'mol qilish ulushi yuqori, moddiy boyliklarning iste'mol qilish ulushi past;
- oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish umumiy hajmida yuqori kaloriyalı mahsulotlar(go'sht, yog')ning ulushi ko'p bo'ladi".

Aholining xarajat va jamg'armalarini o'rganishda statistika o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- xarajatlar hajmi, tuzilmasi va dinamikasini tavsiflash ;
- aholi jamg'armalarining hajmi, ulardan foydalanish, jamg'arma va xarajatlar nisbatini aniqlash;
- aholining turar joy va kommunal-maishiy xizmatlar bilan ta'minlanganini o'rganish;
- jamiyatning xarajatlar darajasiga bog'liq tarzda tabaqalashish ko'rsatkichlarini o'rganish;
- soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlar tuzilmasi va dinamikasini o'rganish;
- aholi xarajatlari ko'rsatkichlarining mamlakatni rivojlantirishning boshqa umlashtiruvchi ko'rsatkichlari bilan o'zaro aloqasini tavsiflash.

8.3.1-jadval.

Ko'rsatkichlar	1998y.	1999y.	2000y.	2001y.	2002y.	2003y.	2004y.
Iste'mol xarajatlari – jami	100	100	100	100	100	100	100
SHu jumladan:							
Uy xo'jaligida oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olishga xarajatlar	67,0	67,3	67,6	67,8	60,5	57,5	58,1
SHuningdek:							
Non va non mahsulotlari	24,0	26,9	26,6	26,9	20,8	16,6	16,8
Kartoshka, sabzavot, mevalar	9,6	9,3	9,1	9,0	8,9	9,1	9,3
Go'sht va go'sht mahsulotlari	12,8	11,0	12,1	11,2	12,2	12,6	12,8
Sut va sut mahsulotlari va tuxum	4,2	3,9	4,1	3,8	3,8	3,9	4,1
O'simlik yog'i va boshqalar	7,8	7,6	7,3	7,5	7,9	8,0	8,1
SHakar va konditer mahsulotlari	4,6	4,8	4,9	5,1	4,7	4,8	5,0
Boshqa oziq-ovqat mahsulotlari	4,0	3,8	3,5	4,0	2,2	2,5	2,0
Uydan tashqarida (oshxona, kafelar) ovqatlanish uchun xarajatlar	1,7	1,6	1,7	1,5	3,2	4,1	3,5
Alkogol ichimliklar sotib olishga xarajatlar	1,3	1,3	1,2	1,1	0,6	0,7	0,5
SHaxsiy iste'mol uchun noiste'mol tovarlari sotib olishga xarajatlar	19,7	19,8	19,3	18,8	22,7	23,1	20,6
Ko'rsatilgan xizmatlarga to'lovlar	10,3	10,0	10,3	10,5	13,0	14,6	15,4

Manba:

1. Социально-экономическое развитие и уровень жизни населения в Узбекистане. 2000. Стат. сборник. – Т.: 2001, стр. 52.

2. Uzbekistan v sifrax 2003. Stat. sbornik. – T.: 2004, str. 61.
3. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Foydalanish yo'siniga ko'ra, aholining barcha xarajatlari joriy va kapital xarajatlarga ajratiladi. Aholining joriy xarajatlari tarkibiga ularning moddiy-ashyoviy shakllarini o'rganishda quyidagilar: oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki; kiyim-kechak va poyafzal; turar joy va kommunal xizmatlar xarajatlari; mebel va uy-ro'zg'or predmetlari; transport va aloqa; sog'liqni saqlash; ta'lim, madaniyat, jismoniy tarbiya va sport; dam olish va turizm; boshqa xizmatlar va moddiy boyliklar kiritiladi. Bunda kapital xarajatlarga er, uzoq muddatli foydalaniladigan moddiy aktivlar, mashina va uskunalar, shuningdek, uzoq muddat foydalanish ashyolarini sotib olishga qilingan xarajatlarni kiritish kerak. Mazkur holatda uzoq muddat foydalanish ashyolariga qilingan sarf har yilgi iste'molning umumiy hajmiga kiritiladi.

Xarajatlarni tahlil qilish jarayonida ularning miqdori va daromadlar miqdori o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanadi. Ular o'rtasidagi farq jamg'armalar ko'rsatkichi bo'lib, u pul va natura shaklida bo'lishi mumkin. Pul jamg'armalari aholi qo'lidagi pulning ortishi, moliya jamg'armalariga qilingan qo'yilmalarning ko'payishi va qiymatli qog'ozlar (aksiya, sertifikat, obligasiya va b.)ga qo'yilmalarni o'z ichiga oladi. Natural shaklidagi jamg'armalar aholiga tegishli bo'lgan er, asosiy kapital (turar joy, transport vositalari va b.), moddiy zaxiralar qiymatining o'sishi ko'rinishida ifodalanadi.

Aholining jamg'armalarga moyilligini tavsiflash maqsadida jamg'armalar koeffitsienti aniqlanadi. U aholi pul jamg'armalari yoki aholi ixtiyoridagi umumiy daromadlar yoki ixtiyoridagi pul daromadlariga nisbatini ifodalaydi. Statistika aholi xarajatlarini o'rganishda xarajatlar darajasi bilan uni aniqlovchi omillar o'rtasidagi o'zaro aloqani belgilash imkonini beradigan korrelyasion tahlildan keng foydalanadi. Bunday omillar sifatida aholi pul daromadlarining miqdori, aholi jamg'armalari, aholi soni va milliy daromaddan foydalanadi.

8.4. Aholining moddiy boylik va xizmatlarni iste'mol qilish ko'rsatkichlari

XMT tavsiyalari hamda MDH ta'riflariga ko'ra, iste'mol fondi tarkibiga moddiy boyliklar, pulli va bepul xizmatlarni iste'mol qilish kiritiladi. Moddiy boyliklarni iste'mol qilish quyidagi elementlardan tarkib topadi:

- savdoda xarid qilingan mahsulot;
- mehnat haqi ko'rinishidagi natura shaklidagi daromadlar;
- ishlab chiqaruvchi xo'jaliklarida ishlab chiqariladigan va iste'mol qilingan mahsulot;
- jamoa iste'moli (armiya, kasalxona, qariyalar uylari, bolalar muassasalari, nogironlar uylari iste'moli);
- boshqa manbalar hisobiga iste'mol (natura shaklidagi sovg'alar, insonparvarlik yordami, hayriya va b.).

Moddiy boyliklarning shaxsiy iste'moli iste'mol turlaridan biri bo'lib, u aholining shaxsiy byudjeti hisobiga qilgan iste'moli, shuningdek, aholi xo'jaliklarida iste'mol qilingan yonilg'i, gaz, elektr energiyasi va boshqa moddiy boyliklar to'loviga xarajatlarni ifodalaydi. Bu iste'mol natura shakli va pul ifodasida hisoblanadi.

Iste'mol hajmini pul ifodasida aniqlashda natura shaklida berilganlar yoki tannarxi bo'yicha shu mahsulot bozorida amalda bo'lib turgan tortilgan narxda baholanadi. Aholi tomonidan iste'mol qilingan eng muhim oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlarning turlari butun aholi va alohida ijtimoiy-kasbiy guruhlar uchun aholi jon boshiga go'sht, parranda, baliq, tuxum, non va bulochka mahsulotlarining yillik o'rtacha iste'moli ko'rsatkichlarini aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Bunda oziq-ovqat tovarlarining iste'moli faqat miqdor nuqtai nazaridan emas, balki sifat nuqtai nazardan ham ko'rib chiqiladi. Bu maqsadda iste'mol qilinayotgan oziq-ovqatning energetik qiymati (kaloriyalik) ko'rsatkichlari va uning kimyoviy tarkibi (tarkibida oqsil, yog' va uglevodlarning borligi) hisoblanadi. Ammo xalqaro statistika amaliyotida bunday ko'rsatkichlar zarur axborotning yo'qligi tufayli juda kam hollarda hisoblanadi.

Iste'mollarni qondirish koeffisienti moddiy boyliklarni iste'mol qilish miqdori va tuzilmasi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida hisoblanib, u quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$K_{konkq} = \frac{I_n}{I_n}$$

Bunda: I_n – aholi jon boshiga moddiy boyliklar berilgan turning haqiqiy iste'moli;

I_n – moddiy boyliklar berilgan turi iste'molining normativ hajmi.

Aholi jon boshiga moddiy boyliklar iste'moli dinamikasi indeks usuli yordamida o'rganiladi. Aholi jon boshiga ayrim moddiy boyliklar iste'molining individual indekslari natural shaklida va qiymat ifodasida, shuningdek, moddiy boyliklar aholida guruhlar bo'yicha yig'ma indekslar qiymat ifodasida hisoblanadi.

Aholi iste'molini statistik tahlil qilish yo'nalishlaridan biri uning hajmining qator omillar va eng avvalo, aholi daromadlarining darajasi hamda jins-yosh tuzilmasiga bog'liqligini o'rganish hisoblanadi. Jumladan, iste'molning daromadlar darajasiga bog'liqligini tavsiflash maqsadida quyidagi formula bo'yicha hisoblanadigan elastiklik koeffisientidan foydalaniladi:

$$K_{elast} = \frac{\Delta X_i}{\Delta Y} \cdot \frac{Y_i}{X_i} = \frac{\Delta X_i}{X_i} \cdot \frac{Y_i}{\Delta Y}$$

Bunda: X_i - iste'mol boyligining i turi;

Y_i - jon boshiga o'rtacha daromadning i darajasi.

Elastiklik koeffisienti, agar daromad darajasi 1%ga ko'paysa, shu moddiy boylik turining iste'moli necha foizga ortishini ko'rsatadi.

Pulli xizmatlar iste'moli o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- komunal-maishiy xizmatlar;

- transport va aloqa xizmatlari;
- ta'lim va sog'liqni saqlashning pulli xizmatlari;
- aholining madaniy, jismoniy tarbiya va sportga xarajatlari;
- sanatoriya, kurort muassasalari xizmatlari va turistik xizmatlari;
- huquqiy tushdagi xizmatlar;
- boshqa xizmatlari (pulli qo'riqlash, qidiruv, o'yin muassasalari va b.).

Bepul xizmatlar iste'moliga quyidagi xizmatlar kiritiladi:

- aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha notijorat tashkilotlar;
- bepul ta'lim va sog'liqni saqlash;
- bolalar va qariyalarga bepul qarash.

Pulli va bepul xizmatlar, shuningdek, butun iste'mol dinamikasini tavsiflashda quyidagi indekslar hisobida bo'lgan indeks usulidan keng foydalaniladi:

- xizmatlar fizik hajmi indeksida:

$$I = \frac{\sum y_1 p_0}{\sum y_0 p_0} ;$$

- aholi jon boshiga boyluk va xizmatlar iste'molining fizik hajmi indeksida:

$$I = \frac{\sum q_1 p_0 + \sum y_1 p_0}{\sum y_0 p_0 + \sum q_0 p_0} .$$

Bundan tashqari, kompleks iqtisodiy-statistik tahlil o'tkazishda daromadlar darajasi bilan boyluk, xizmatlar o'rtasidagi aloqa hamda bog'liqlikni korrelyasion-regression, klaster tahlil asosida o'rganish nazarda tutiladi.

8.5. Chakana tovar aylanishi statistikasi

Chakana tovar aylanishi aholining moddiy boyluklarini iste'mol qilish darajasini aniqlovchi eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Chakana tovar aylanishining tuzilmasi quyidagi ikki belgi bo'yicha o'rganiladi:

- savdo birliklarining mulkchilik shakllariga ko'ra (davlat, munisipal, jamoa yoki shirkat, xususiy, aralash va xorijiy);
- sotuvlar hajmining natura-ashyoviy tarkibiga ko'ra (oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari).

Chakana savdo aylanishi oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari chakana tovar aylanishini o'rganishda ularning eng muhimlarini alohida guruhlariga ajratib o'rganiladi. Chakana tovar aylanishi dinamikasini tavsiflashda aholi jon boshiga tovar aylanishi indeksi taqqoslash narxlarida qo'llanadi:

$$I_q = \frac{\sum q_1 p_0}{\sum s_1} : \frac{\sum q_0 p_0}{\sum s_0} = \frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_0 p_0} : \frac{\sum s_1}{\sum s_0}$$

Bunda: $\frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_0 p_0}$ - tovar aylanishi fizik hajmining indeksi;

$$\frac{\sum s_1}{\sum s_0} - \text{mamlakat aholisi sonining indeksi.}$$

Tovar aylanishi aholining moddiy boyliklarga bo'lgan ehtiyojining asosiy qismini qoplagani uchun uning qiymatini tavsiflashda qoplash koeffitsienti hisoblanadi.

$$\hat{E}_{\text{qoplash}} = \frac{Q_{\text{ist}}}{Q_{\text{sot}}}$$

Áóíäà: Q_{sot} – savdo tarmog'i orqali sotilgan mahsulot hajmi yoki qiymati;
 Q_{ist} – aholi iste'mol qilgan mahsulot hajmi yoki qiymati.

Bunday ko'rsatkich butun iste'mol boyliklari xizmatlari bo'yicha hisoblanadi. bunday holatda u quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{\text{opl}} = Q_{\text{ishl}} / Q_{\text{ist}}$$

Bunda: Q_{ishl} – ishlab chiqarilgan Tovar va xizmatlar hajmi yoki qiymati:

Q_{ist} – iste'mol qilingan tovar va xizmatlar hajmi yoki qiymati.

Tovar aylanishi fizik hajmining indeksini hisoblashda uni qiyoslanadigan narxlarda qayta baholash katta ahamiyat kasb etadi. Bu Tovar aylanishining joriy narxlardagi qiymatini iste'mol narxlari indekslariga nisbati olinadi:

$$\sum q_1 q_0 = \frac{\sum q_1 R_1}{y_{\text{ist. narx}}} = \sum q_1 p_1 / \frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_0 p_0}$$

Iste'mol narxlarining indekslari ne'matlar va xizmatlarning ma'lum to'plami asosida aniqlanadi. Tovar vakillarining bu to'plami rahbar organlari tomonidan tasdiqlanadi va vaqti-vaqtida yangilanib turadi. Narxlarning yig'ma indekslari tovar-vakillar indekslaridan o'rta muallaq arifmetik miqdor hisoblanadi. Bunda shu tovar-vakillarning tovar aylanishi mezon rolini o'ynaydi:

$$I_{\text{yig'ma. ist. narx}} = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_0 p_0}$$

8.6. Aholining bo'sh vaqtdan foydalanish ko'rsatkichlari

Aholi bo'sh vaqtining borligi va undan foydalanish ish vaqti bilan uzviy aloqada bo'ladi. Inson ixtiyoridagi barcha vaqtni quyidagicha taqsimlash mumkin:

- fiziologik ehtiyojlarni qondirish vaqti;
- ishga bog'liq vaqt, bunga tayyorgarlik ko'rish va yo'lga sarflangan vaqt ham qo'shiladi;

- bo'sh vaqt, undan aholi o'z ixtiyoricha foydalanadi.

Statistika bo'sh vaqtni o'rganishda uning hajmi va tarkibiy tuzilishini tadqiq qiladi. Tarkibiy tuzilishni o'rganish dam olish, uy ishlari bilan shug'ullanish, bolalar tarbiyasi, madaniy va ma'lumot darajasini oshirish, shuningdek, xobbi va ishqibozlikka sarflangan vaqtni ajratishdan iboratdir. SHu bilan birga bo'sh vaqt tarkibiga unumsiz sarflangan vaqt (masalan, turli muassasalar, tashkilotlarga borish va b.)kiritiladi.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi ishchining bo'sh vaqti ko'proq bo'lishiga ta'sir ko'rsatsa, o'z navbatida bo'sh vaqtdan samarali foydalanish, masalan, sog'liqni tiklash, profilaktika, bilim saviyasini oshirish kabilar ishlab chiqarishning rivojlanishi, ish vaqtdan samarali foydalanishga, kasal bo'lishi sababli ishga chiqmasliklar kamayishi, mehnat unumdorligi oshishiga olib keladi.

Bo'sh vaqtning asosiy zaxirasi har yilgi navbatdagi ta'til hisoblanadi. Uning miqdori shu mamlakat mehnat qonunchiligi bilan tartibga solinadi yoki kasaba uyushmalari va ish beruvchilar o'rtasidagi kelishuvlariga muvofiq aniqlanadi. Statistikada har yilgi navbatdagi ta'tilni miqdoriy tavsiflash maqsadida uning o'rtacha davomiyligi band aholining turli guruhlari (qoidaga ko'ra, kasb va tarmoq) hisoblanadi.

8.7. Aholi turmush darajasini ifodalovchi umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar

Aholi turmush darajasini ifodalovchi tizimning asosiy ko'rsatkichlari yuqorida ko'rib chiqildi. Bu ko'rsatkichlar jamiyat farovonligining ayrim tomonlari miqdori yoki sifatini baholadi. Aholi turmush darajasiga umumiy ta'rif berish taqqoslash uchun qo'l kelmaydi. SHunig uchun uzoq davr mobaynida shunday umumlashtiruvchi ko'rsatkich topish maqsadida iqtisodchilar ko'p uringanlar. Bunday ko'rsatkich bo'lishi mumkinmi yoki yo'qmi – bu muammo va ilmiy qiziqish uyg'otadi.

Jamiyat farovonligining asosiy manbai va omili davlatning iqtisodiy rivojlanishi hisoblanadi. SHuning uchun iqtisodiyotning natijaviy holatini ifodalovchi, aholi turmush darajasini umumlashtiruvchi ko'rsatkich tariqasida yalpi milliy mahsulot, milliy daromad va sof milliy ixtiyorda qolgan daromad hisoblanadi.

Aholi turmush darajasini tahlil etish, uning dinamikasini o'rganish, regionlar bo'yicha taqqoslash maqsadida aholi jon boshiga (doimiy baholarda) real yalpi ichki mahsulot hisoblanadi. Bu ko'rsatkichning kamchiligi shundan iboratki, uning tarkibiga aholi turmush darajasi bilan bog'liq bo'lmagan elementlar ham kiradi. Masalan, yalpi ichki mahsulot takibiga armiya xarajatlari, davlat boshqaruv apparati xarajatlari va boshqalar kiradi.

SHu bois aholi turmush darajasini baholash uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bog'liq bo'lgan natural ko'rsatkichlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bularga quyidagilar kiradi: go'daklar tug'ilishi, go'daklarning vafot etish ko'rsatkichi va yashashi mumkin bo'lgan umr uzunligi.

Umumlashtiruvchi ko'rsatkich tariqasida statistika amaliyotida hayot qiymati indeksidan foydalanilgan. Bu ko'rsatkich o'zgarishiga iste'mol tarkibi o'zgarishi natijasida, iste'mol talabi o'zgarishi, bozor kon'yunkturasi xolati kabilar ta'sir ko'rsatadi. Bu indeks aholi farovonligiga baho ta'sirini ifodalashi kerak edi. SHu maqsadda iste'mol, buyum va xizmatlarga baho o'zgarishi, aholi turmush darajasini o'zgarmas holda saqlab qolish uchun kerak bo'lgan xarajatlar taqqoslanar edi.

Bu ko'rsatkichni hisoblashda zarur bo'lgan iste'mol ne'matlari yig'indisi (iste'mol savati) aniqlanadi. SHu iste'mol savati amaldagi va o'zgarmas baholarda hisoblanib, ular taqqoslanadi. Lekin bunday usul hayot qiymati o'zgarishini emas, balki uning o'zgarishiga iste'mol baholari ta'sirini ko'rsatadi. SHunig uchun uning nomi "Iste'mol baholari indeksi" deb atala boshladi. Bu indeks turmush qiymati o'zgarishi, iste'mol savatiga kiruvchi ne'matlar yig'indisiga baho dinamikasining ta'sirini ta'riflaydi.

Aholi turmush darajasini umumlashtiruvchi ko'rsatkich hali ham muammo hisoblanadi. SHunday umumlashtiruvchi ko'rsatkich tariqasida inson potensialining rivojlanish indeksi (IPRI) ni ko'rib chiqamiz. Bu ko'rsatkich BMT rivojlanish dasturi iqtisodchilari tomonidan tavsiya etilgan.

Aholi turmush darajasining muhim tomonlarini o'z ichiga oladigan uch ko'rsatkich mavjud:

- tug'ilish va umr ko'rish davomiyligi;
- erishilgan ta'lim darajasi;
- aholi jon boshiga real yalpi ichki mahsulot hajmi.

IPRI yuqorida ko'rib chiqilgan ko'rsatkichlar indekslarining o'rtacha arifmetik usulida aniqlanadi. Har bir ko'rsatkich indeksini ko'rib chiqamiz:

$$Y = \frac{X_i - X_{\min}}{X_{\max} - X_{\min}}$$

Bu erda: X_i – i ko'rsatkichning haqiqiy ifodasi;

$X_{\max} - X_{\min}$ – i ko'rsatkichning maksimal va minimal ifodasi.

Tug'ilish va umr ko'rish davomiyligi indeksini hisoblashda minimal holat – 25 yosh, maksimal holat – 85 deb olinadi.

$$Y = \frac{X_i - 25}{85 - 25}$$

Erishilgan ta'lim darajasi indeksi (Y_2) ni hisoblashda ikki indeks katta yoshdagi aholining ma'lumotlilik indeksi i_{21} 2/3 vazn bilan va 1/3 vazn bilan boshlang'ich o'rta va oily o'quv yurtlaridagi ta'lim oluvchilar salmog'I yig'indisi indeksi (i_{22}).

$$Y_2 = \frac{2}{3} \times i_{21} + \frac{1}{3} \times i_{22}$$

15 va undan yuqori yoshdagi, ya'ni katta yoshdagi aholi ichida ma'lumotlilik indeksini hisoblashda $X_{\min}$ q 0; $X_{\max}$ q 100%.

Aholi jon boshiga real yalpi ichki mahsulot hajmi quyidagicha hisoblanadi: yalpi ichki mahsulotning real hajmi dollarda, valyutani sotib olish qobiliyatini

e'tiborda tutgan holda hisoblanib, normal turmush darajasi uchun juda yuqori daromad talab etmasligini hisobga olgan holda 1992 yilda jahon miqyosida o'rtacha jon boshiga to'g'ri kelgan yalpi ichki mahsulot hajmi 5120 dollar chegara tariqasida olinadi: $X_3 \leq 5120$ dollar. Aholi jon boshiga 5120 dollar ko'p yalpi ichki mahsulot to'g'ri kelgan davlatlarda $X_3 > 5120$ ortiqcha miqdori formulalar yordamida diskontirovka qilingan daromad aniqlanadi.

$X_3 < 5120$ bo'lsa, bunday davlatlarda aholi jon boshiga real yalpi ichki mahsulot hajmi 100 dollar tenglashtirib olinadi va maksimal diskontirovka qilingan miqdor 5448 dollar bo'ladi.

SHunday qilib:

$$Y_3 = \frac{X_3 - 100}{5448 - 100}$$

Inson potentsiali taraqqiyoti indeksi (IPTI), asosan amaliyotda xalqaro va hududlararo taqqoslash maqsadida ishlatiladi.

Davlat miqyosida tahlil uchun bu indeks yuqorida ko'rsatilgan aholi turmush darajasi ko'rsatkichlari bilan birgalikda ishlatiladi.

Qisqacha xulosalar

Davlat iqtisodiyotini baholash, odatda aholi turmush darajasiga bog'liq holda olib boriladi. Aholi turmush darajasini sifat ko'rsatkichlari inson hayotidan mamnunligini ifodalaydi va uni baholashda yuqori, qoniqarli, past darajalar bilan ifodalanadi. Ayrim iqtisodchilar hayotni yoqimlilik bo'yicha ham baholashga urinishadi, bunda hayotni emosional qabul qilishadi. Masalan, AQSH, Angliyada turmush darajasi sifati yuqoriroq bo'lsa ham, Ispaniya, Kanar orollarida dengiz bo'yi, mayin iqlim sharoitidagi hayot ko'proq mamnunliroq tuyuladi.

Lekin bunday tomonlarga ko'proq ahamiyat beriladi, qachonki moddiy tomondan aholi talablari yuqori darajada qoniqtirilganda, shu munosabat bilan aholi turmush darajasi deganda, hayotning moddiy asosi inson farovonligi miqdoriy darajasi ta'rifi tushuniladi va bir ko'rsatkich yordamida uni ta'riflab bo'lmaydi. Buning uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

BMTning Statistika komissiyasi aholi turmush darajasini baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishni tavsiya etadi:

1. Aholi demografik tavsifi.
2. Daromadlari ko'rsatkichi.
3. Xarajatlari va jamg'armalari.
4. Moddiy boylik va xizmatlar iste'moli.
5. Turar joy uzoq muddatga mo'ljallangan ashyolar bilan ta'minlanganligi.
6. Bandlilik va ishsizlik.
7. Mehnat shart-sharoitlari ko'rsatkichlari.
8. Ta'lim, sog'liqni saqlash va h.k.

Davlatlararo dinamikada qiyoslash maqsadida, aholi turmush darajasiga umumiy ta'rif berish maqsadida inson potentsialini rivojlanish indeksini hisoblash tavsiya etiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Turmush darajasi haqida tushuncha.
2. Turmush darajasini baholash yo'nalishlari.
3. Turmush darajasini baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi.
4. Aholi daromadlari va uni statistik o'rganish.
5. Aholi daromadlari va jamg'armalari ko'rsatkichlari.
6. Aholining moddiy boylik va xizmatlar iste'mol qilish ko'rsatkichlari.
7. CHakana tovaraylanma va uning tarkibi – aholi turmush darajasini baholovchi ko'rsatkich.
8. Aholi bo'sh vaqti va uning turmush darajasi bilan bog'liqligi.
9. IPRI ning mohiyati va hisoblash usuli.

Asosiy adabiyotlar

1. Akbarova Z. Mehnat bozori statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent, 2004.
2. Под ред. С.Д.Ильенковой. Микроэкономическая статистика. Учебник. – М., 2004 г.
3. В.Г.Минашкин, О.Л.Козарезова. Основы теории статистики. – М., 2004 г.
4. Р.А.Шмойлова и др. Практикум по теории статистики. Учебной пособие. – М., 2004 г.
5. Р.А.Шмойлова и др. Теория статистики. Учебник. – М., 2004 г.
6. www.euireland.ie
7. www.cec.org.uk
8. www.eurunion.org
9. www.euoparl.ie

GLOSSARIY

Statistik nazorat, bunda kuzatish ob'ektlari qamrovining to'raligi; barcha zarur grafa va qatorlar to'liq to'ldirilganligi; zarur rekvizitlar; manzil, sana, imzo, muhrlarning borligi tekshiriladi.

Arifmetik nazorat, u miqdoriy bog'langan ko'rsatkichlarga asoslanadi (masalan, tashkil etuvchi elementlar yig'indisi yakundan katta bo'la olmaydi);

Mantiqiy nazorat, u sifat bog'lanishiga asoslanadi (masalan, 5-6 yoshli bola oliy ma'lumotga ega bo'la olmaydi).

XMT – Xalqaro Mehnat Tashkiloti.

XMB – Xalqaro mehnat byurosi.

Mehnatga layoqatlilik yoshi bo'yicha guruh, BMT Statistika komissiyasi tavsiya etgan.

Hududiy guruh – mamlakatlarni qit'alar hamda mamlakatlar birlashmalari bo'yicha hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, va boshqalar bo'yicha **xalqaro darajada** guruhlash.

Bandlik maqomi bo'yicha guruh – u XMT ishlab chiqqan bandlik maqomining xalqaro tasnifiga asoslanadi.

Kasbiy guruh, uning asosida XMT qabul qilgan kasblarning xalqaro standart asosida yotadi, bu tasnif 4 bosqichdan iborat bo'ladi.

Potensial mehnat resurslariga mehnat yoshidagi mehnatga layoqatlilar kiritiladi.

Haqiqiy mehnat resurslari – iqtisodiy faoliyat bilan band bo'lganlar.

Yollanma xodimlar. Ishlovchilarning eng ko'p sonli guruhi bo'lib, u mehnat shart-sharoitlari va unga haq to'lash to'g'risida har qanday mulkchilik shaklidagi korxonalar yoki alohida shaxs bilan mehnat shartnomasi (kontrakt, bitim) tuzgan shaxslarni o'z ichiga oladi.

Ish beruvchilar. Bu guruhga mustaqil yoki bir yoki bir necha sheriklar bilan birga ishlab, doimo "yollanma ishchi" sifatida bir yoki bir necha xodimlarni yollaydigan xodimlar kiritiladi.

O'z hisobiga ishlaydigan shaxslar. Bu guruhga qoidaga ko'ra, mustaqil yoki sheriklar bilan ishlaydigan va doimiy asosda hech qanday yollanma ishchilarni yollamaydigan shaxslar kiritiladi.

Ishlab chiqarish shirkat a'zolari. Bu guruhga shirkatlarning faol (ishlaydigan a'zolari hisoblanadigan shaxslar kiritiladi.

Oilaning yordam beruvchi a'zolari. Oilaviy korxonalar (biznes)da faoliyatni shu uy xo'jaligida yashovchi qarindosh boshqaradigan shaxslar oilaning yordam beruvchi a'zolari hisoblanadi.

Bandlik maqomi bo'yicha tasniflanmaydigan xodimlar. Bu guruhga ilgari daromad keltiradigan mehnat faoliyati bilan band bo'lmagan ishsizlar va zarur axborotning etarli emasligi yoki qandaydir boshqa sabablar tufayli yuqorida aytib o'tilgan guruhlardan birortasiga ham kiritish mumkin bo'lmagan shaxslar kiritiladi.

Iqtisodiy nafaol aholi – ishchi kuchi tarkibiga, ya'ni bandlar va ishsizlar qatoriga kirmaydigan, tekshirilayotgan yoshdagi aholi.

Doimiy xodimlar soni – ishga qabul qilish buyrug'ida muddati ko'rsatilmagan xodimlar kiritiladi.

Ro'yxatdagi xodimlar soni – ishga qabul qilish haqida buyruq chiqqan kundan boshlab, to ishdan bo'shatish haqida buyruq chiqquncha ro'yxatda bo'lganlar kiritiladi.

Vaqtincha xodimlar soni – ikki oy muddatgacha yoki vaqtincha ishlamayotgan xodimlar o'rniga ishlashga 4 oygacha qabul qilinganlar kiritiladi.

Mavsumiy xodimlar – olti oygacha mavsumiy ish bajarish uchun qabul qilinganlar kiritildi.

Ichki migrasiya – davlat miqyosida bir ma'muriy-hududiy birlikdan boshqasiga ko'chish.

Tashqi migrasiya – davlat chegarasidan o'tish bilan bog'liq bo'lgan harakat.

Doimiy migrasiya – belgilangan muddat oralig'ida mazkur davlatga doimiy istiqomat qilish uchun ko'chib kelganlar yoki undan ko'chib ketganlar soni bilan ta'riflanadi.

Mayatnik migrasiya – bir haftadan kam bo'lgan muddatdaga ishga doimiy istiqomat qiluvchi makondan xarakati tushuniladi.

Potensial taklif hajmi – mehnatga layoqatli aholining butun aholi soni va tarkibi, sog'lig'ining holati va mehnatga layoqatlilik darajasi, aholining hududiy joylashishi va joydan-joyga ko'chishi va x.k.

Haqiqiy taklif hajmi – iqtisodiy faol aholining soni va tarkibiy tuzilishi ko'rsatkichlari yordamida aks ettiriladi.

Tuzilmaviy ishsizlik – ishchi kuchi talab va taklifi miqdorini kasbiy va geografik nomuvofiqligi oqibati hisoblanadigan ishsizlik.

Texnologik ishsizlik – iqtisodiyotning ayrim tarmoqlaridagi ishlab chiqarishning texnologik xususiyatlariga bog'liq bo'lgan ishsizlik.

Friksion ishsizlik – yangi ish o'rni yoki turar joyni izlash maqsadida ishdan ixtiyoriy ketish bilan bog'liq ishsizlik.

Mavsumiy ishsizlik – faqat ma'lum davrlarda (masalan, qishloq xo'jaligi ishlari qizg'in davrda) ishga ega bo'ladigan, yilning boshqa davrlarida band bo'lmaydigan shaxslarga xos ishsizlik.

Ishlagan kishi/kun – ishchining ishga kelib tushgan kuni hisoblanadi.

ishlagan kishilar soati

haqiqiy ishlagan ish vaqti, o'lchov birligi hisoblanadi.

Kalendar vaqt fondi – ishga kelgan kishi kunlar + ishga kelmagan kishi kunlar.

Tabel vaqt fondi – kalendar vaqt fondidan bayram va dam olish kunlari fondiga kamroqdir.

Maksimal imkoniyatli vaqt fondi – tabel vaqt fondidan navbatdagi ta'til kunlari fondiga nisbatan kamroqdir.

